To'rtinchidan, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va raqamli maxfiylik sohasida ham O'zbekiston qonunchiligida qator bo'shliqlar mavjud. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq umumiy munosabatlarni tartibga solsa-da, zamonaviy raqamli muhitda yuzaga kelayotgan xavflarni – sun'iy intellekt tizimlari, katta hajmdagi ma'lumotlar bazalari, onlayn kuzatuv va profilizatsiya kabi hodisalarini kompleks qamrab olmaydi.

Shuningdek, ma'lumotlar himoyasi bo'yicha mustaqil nazorat organining yo'qligi, fuqarolarning raqamli savodxonligi pastligi amaldagi normalarning to'liq ishlamasligiga olib kelmoqda. Bu holatlar huquqdagi bo'shliqlar nafaqat klassik fuqarolik-huquqiy institutlarda, balki yangi raqamli munosabatlarda sohasida ham tizimli yondashuvni talab etayotganini ko'rsatadi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqiy bo'shliqlar zamonaviy huquqiy tizimlarning rivojlanish jarayonida muqarrar ravishda yuzaga keladigan, murakkab va ko'p qirrali hodisa hisoblanadi. Huquqiy bo'shliq fenomeni faqat normativ-huquqiy hujjatlarda alohida qoidaning yo'qligi bilan cheklanmay, balki huquq tizimining izchilligi, huquqni qo'llash amaliyotining barqarorligi va fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot davomida huquqiy bo'shliqlar, bir tomondan, jamiyatda vujudga kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlarning huquqqa nisbatan ilgarilab ketishi natijasida, ikkinchi tomondan, huquq ijodkorligi jarayonidagi me'yoriy-texnik kamchiliklar, huquqiy prognoz va monitoring mexanizmlarining yetarli

darajada ishlab chiqilmaganligi natijasida vujudga kelayotganligi aniqlandi. Xususan, fuqarolik-huquqiy munosabatlar sohasida shaxsiy nomulkiy huquqlar, shaxsiy hayot daxlsizligi, tasvir va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarda huquqiy bo'shliqlar amaliyotda ko'proq namoyon bo'lmoqda.

Milliy va xorijiy huquqshunos olimlar qarashlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqiy bo'shliq fenomeniga yagona yondashuv mavjud emas. Xorijiy doktrinada huquqiy bo'shliqlar ko'proq huquq tizimining normativ va tarkibiy muammosi sifatida talqin qilinsa, milliy qonunchilikda, xususan, Sh.A. Saydullayevning tadqiqotlarida, huquqiy bo'shliqlar huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan obyektiv va subyektiv omillar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab hodisa sifatida asoslantirilgan. Ushbu yondashuv O'zbekiston fuqarolik qonunchiligidagi mavjud bo'shliqlarni aniqlash va bartaraf etishda uslubiy ustuvorlikka ega.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqiy bo'shliqlar nafaqat nazariy, balki o'ziga xos amaliy muammo bo'lib, fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotida huquqiy noaniqliklar, turlicha talqinlar va fuqarolar huquqlarining samarasiz himoyasiga olib keladi. Shuning uchun huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish masalasi faqat deklarativ xulosalar bilan cheklanib qolmasdan, balki muayyan huquqiy va institutsional chora-tadbirlar orqali hal etilishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha quyidagi aniq tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchi, fuqarolik qonunchiligidagi huquqiy bo'shliqlarni tizimli ravishda aniqlash uchun doimiy huquqiy monitoring va diagnostika mexanizmini joriy etish zarur. Shu bilan birga, Fuqarolik kodeksi normalarini qo'llash amaliyoti, sud qarorlari va huquqni qo'llashda yuzaga keladigan muammolar muntazam tahlil qilib borilishi lozim.

Ikkinchidan, fuqarolik qonunchiligida shaxsiy nomulkiy huquqlarga oid normalarni alohida konseptual blok sifatida rekonstruksiya qilish maqsadga muvofiq. Xususan, fuqaroning ismi, tasviri, shaxsiy hayoti daxlsizligi va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishga oid normalar bir tizimga solinishi huquqiy bo'shliqlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Uchinchi, qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayonida huquqiy bo'shliqlarni oldindan aniqlashga qaratilgan "huquqiy bo'shliqlar ekspertizasi" institutini joriy etish tavsiya etiladi. Bunday ekspertiza qonun loyihasining mavjud huquqiy bo'shliqni qanday bo'shliqni to'ldirishi yoki aksincha, yangi bo'shliqlarni keltirib chiqarish ehtimolini baholashga qaratilgan bo'lishi lozim.

To'rtinchi, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishda yuridik analogiyalar va yuridik prinsiplardan foydalanish imkoniyatini saqlab qolgan holda, inson huquqlarini cheklaydigan yoki yuridik javobgarlikni belgilaydigan normalarga analogiyalarni qo'llash qat'iyon taqiqlanishi qonunchilik darajasida aniq belgilab qo'yilishi lozim.

Beshinchi, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishda sud amaliyotining rolini inobatga olish zarur, biroq sudlar tomonidan huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish vaqtinchalik ekanligini, ularni to'liq bartaraf etish vakolati qonun chiqaruvchi hokimiyatga tegishli ekanligini institutsional jihatdan mustahkamlanishi lozim.

Oltinchi, raqamli munosabatlar, shaxsiy ma'lumotlar, sun'iy intellekt va platforma iqtisodiyoti sohalarida yuzaga keladigan huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish uchun "framework" (asos) qonunchilik modelidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa huquqiy tartibga solishda ortiqcha detallashtirishning oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish nafaqat yangi normalarni qabul qilish, balki huquqiy tartibga solish, yuridik texnika va institutsional mexanizm-

lar sifatini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi O'zbekiston fuqarolik qonunchiligining izchilligi va barqarorligini ta'minlashga, huquqni qo'llash amaliyotidagi noaniqliklarni kamaytirishga, fuqarolar huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Abdullayev, M. I. (2003). *Teoriya gosudarstva i prava* [Theory of state and law]. St. Petersburg: Piter.
2. Alexy, R. (1989). *A theory of legal argumentation*. Clarendon Publ.
3. Bobbio, N. (1993). *Theory of legal norms*. Springer.
4. Craig, P. (2012). *EU administrative law*. Oxford University Publ.
5. Dworkin, R. (1977). *Taking rights seriously*. Harvard University Publ.
6. Hart, H. L. A. (1961). *The concept of law* (2nd ed. 1994). Clarendon Publ.
7. Kelsen, H. (1967). *Pure theory of law (Reine Rechtslehre)*. University of California Publ.
8. Lazarev, V. V. (1969). *Probely v prave (voprosy ponyatiya probelov i kritika teorii besprobел'nosti prava)* [Gaps in law: Issues of the concept of gaps and criticism of the theory of gaplessness of law] (p. 72). Kazan.
9. Lazarev, V. V. (1974). *Probely v prave i puti ikh ustraneniya* [Gaps in law and ways of eliminating them] (pp. 6, 37, 39). Moscow.
10. Lazarev, V. V., Lipen, S. V., & Saidov, A. Kh. (2007). *Teoriya gosudarstva i prava* [Theory of state and law] (Ed. K. Kh. Abdurakhmanova). Plekhanov Russian Academy of Economics.
11. Odilqoriyev, X. T. (1995). *O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni* [The legislative process in the Republic of Uzbekistan] (pp. 73–85). O'zbekiston.
12. OECD. (2021). *Regulatory policy outlook 2021*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/38b0fdb1-en>
13. Peczenik, A. (2008). *Law, morality, and the model of normative reasoning*. Springer.
14. Mirziyoyev Sh. (2024, November 18). *Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutq* [Speech at the meeting of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis].
15. Saburov, N. (2007). *Davlat va huquq nazariyasi (savollar, ta'riflar, tushuncha va atamalar)* [Theory of state and law: Questions, definitions, concepts, and terms] (p. 69). TSIL Publ.
16. Saydullayev, Sh. (2024). *Huquqdagi bo'shliqlar va ularni bartaraf etish yo'llari* [Gaps in law and ways to eliminate them] [Monograph].
17. Sunstein, C. R. (2013). *Simpler: The future of government*. Simon & Schuster Publ.

Kelib tushgan / Получено / Received: 16.01.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 10.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.02.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.1./WZBD1421>

UDC: 347: 336.012.23(045)(575.1)

TRANSCHEGARAVIY TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HUQUQI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY MUAMMOLAR

Nosirov Sherzod Shermatovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0001-6065-2313

e-mail: shnosirov5@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada transchegaraviy to'lovga qobiliyatsizlik huquqining shakllanishi, mazmuni va asosiy muammolari tahlil qilinadi. Globalizatsiya va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi natijasida bankrotlik jarayonlarining bir nechta davlatlarni qamrab olishi tobora ko'proq uchramoqda. Maqolada universalizm va territorializm nazariyalari, ularning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, davlatlar o'rtasida hamkorlik va muvofiqlashtirishning ahamiyati yoritilgan. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy standartlar va zamonaviy yondashuvlar alohida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari transchegaraviy to'lovga qobiliyatsizlik huquqini takomillashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda amaliyotda samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: transchegaraviy to'lovga qobiliyatsizlik, xalqaro bankrotlik huquqi, universalizm, territorializm, kreditorlar tengligi, "forum shopping", xalqaro hamkorlik, bankrotlik jarayonlari, UNCITRAL

ТРАНСГРАНИЧНОЕ ПРАВО НЕСОСТОЯТЕЛЬНОСТИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ

Носиров Шерзод Шерматович,

базовый докторант Ташкентского

государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируются становление, содержание и ключевые проблемы трансграничного права несостоятельности. В условиях глобализации и расширения международных экономических связей процедуры банкротства всё чаще затрагивают юрисдикции нескольких государств. В работе раскрываются теории универсализма и территориализма, их преимущества и недостатки, а также подчёркивается значение межгосударственного сотрудничества и координации. Особое внимание уделено международным правовым стандартам и современным подходам, разработанным международными организациями. Результаты исследования обладают научной и практической значимостью для совершенствования трансграничного права несостоятельности, гармонизации национального законодательства с международными стандартами и разработки эффективных правовых механизмов его применения на практике.

Ключевые слова: трансграничная несостоятельность, международное право банкротства, универсализм, территориализм, равенство кредиторов, *forum shopping*, международное сотрудничество, процедуры банкротства, ЮНСИТРАЛ

CROSS-BORDER INSOLVENCY LAW: THEORETICAL APPROACHES AND CONTEMPORARY CHALLENGES

Nosirov Sherzod Shermatovich,

Basic Doctoral Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article analyzes the formation, content, and main problems of transnational insolvency. As a result of globalization and the expansion of international economic relations, the involvement of several countries in bankruptcy processes is becoming increasingly common. The article highlights the theories of universalism and territoriality, their advantages and disadvantages, as well as the importance of cooperation and coordination between states. Legal standards and modern approaches developed by international organizations will be analyzed separately. The results of the study are of scientific and practical importance in improving the law of transnational insolvency, adapting national legislation to international standards, and developing effective legal mechanisms in practice.*

Keywords: *cross-border insolvency, international bankruptcy law, universalism, territoriality, equality of creditors, forum shopping, international cooperation, bankruptcy processes, UNCITRAL*

Kirish

Xalqaro to'lovga qobiliyatsizlik huquqi tushunchasiga nisbatan turli qarashlar mavjud. Asosiy nuqta shundaki, butun dunyo miqyosida amal qiladigan yagona bankrotlik qoidalari tizimi mavjud emas. Shu bilan birga, rivojlangan huquqiy tizimga ega barcha davlatlarda ma'lum shaklda bankrotlik yoki to'lovga qodir emaslik tizimi mavjud. Bu tizim ko'pincha kollektiv qarz undirish tartibi deb ham ataladi. Biroq turli davlatlar o'rtasida yondashuvlar, siyosatlar hamda moddiy va protsessual qoidalarda sezilarli farqlar mavjud. Shunga qaramay, olimlar, qonun chiqaruvchi organlar, xalqaro tashkilotlar (masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi – UNCITRAL va Jahon banki) hamda sudlar xalqaro miqyosda bankrotlik masalalarini qanday hal etish bo'yicha huquqiy mexanizmlar va yechimlar ishlab chiqish ustida tinimsiz ish olib borishmoqda.

Globalizatsiya, xalqaro savdo va aktivlarning chegaralar orqali harakati natijasida, kreditorlar o'z qarzdorlarining mol-mulkleri

joylashgan bir nechta davlatlarda o'z da'volarini undirishga majbur bo'lishlari mumkin. Bunday holat, tabiiyki, transchegaraviy yoki xalqaro bankrotlik huquqiga oid masalalarni keltirib chiqaradi. Vessels xalqaro to'lovga qobiliyatsizlik huquqini quyidagicha ta'riflaydi: "Xalqaro to'lovga qobiliyatsizlik huquqi adabiyotlarda odatda shunday huquq sohasi sifatida ta'riflanadiki, u ma'lum turdagi to'lovga qobiliyatsizlik jarayonlari yoki choralari to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga oladi, biroq bu qoidalar to'liq amalga oshirilishi mumkin emas. Chunki to'lovga qobiliyatsizlik jarayonlari to'liq xalqaro normalar bilan tartibga solib bo'lmaydigan jarayonlardir. Boshqa tarafdin qo'llaniladigan qonun muayyan ishning xalqaro jihatlari hisobga olinmasdan, faqat milliy doirada ijro etilishi mumkin emas" (Wessels, 2006). Muallifning o'zi ham bu ta'rif cheklangan ekanini tan oladi, chunki u milliy bankrotlik huquqi tizimining mavjudligiga bog'langan.

Vessels boshqa olimlarning ta'riflarini ham keltiradi. Masalan, Fletcher "xalqaro bankrotlik" yoki "transchegaraviy

bankrotlik”ni quyidagicha tavsiflaydi: “...bankrotlik bitta huquqiy tizim doirasidan chiqib ketadigan sharoitda yuz beradigan holatdir. Bunday vaziyatda faqat bitta davlatning ichki bankrotlik qoidalarini darhol va to’liq qo’l-lash mumkin emas, chunki ishda xorijiy elementlar mavjud” (Wessels, 2006).

Frimanning ta’kidlashicha, bu tasodif emas – AQShning 200 yil oldin qabul qilingan konstitutsiyasida bankrotlik huquqi federal masala sifatida belgilangan (Friman, n.d.). Ya’ni bu soha shtat qonunchiligi emas, federal qonun bilan tartibga solinishi kerak. Chunki erkin bozor, unda tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi erkin harakatlanadi, bankrotlik masalalarini yagona va standart asosida tartibga soluvchi umumiy tizimni talab etadi.

Asosiy qism

Bir davlatda boshlangan bankrotlik jarayonini (federal yoki milliy darajadagi) boshqa davlat tan olishi faqatgina birinchi davlatning “yaxshi niyatiga” bog’liq bo’lmasligi kerak. Bu fikrni Yevropa Ittifoqi ham anglab yetgan, chunki unda milliy davlatlar o’rtasida yagona bozor mavjud.

Bugungi kunda, hatto rasmiy yagona bozor mavjud bo’lmagan joylarda ham, shaxs-lar, kompaniyalar va davlatlar o’rtasidagi faol aloqalar va tezkor kommunikatsiyalar natijasida transchegaraviy bankrotlik holat-lari tobora ko’paymoqda. Xorijiy davlatlar-da sarmoya kiritish, filial yoki sho’ba korxonalar ochish odatiy holga aylangan. Kapital bozorlar odatda liberallashtirilgan, valyuta nazoratlari yumshatilgan yoki hatto bekor qilingan. Natijada milliy chegaralar iqtisodiy faoliyat uchun asta-sekin ahamiyatini yo’qotmoqda.

Ayrim olimlar zamonaviy davrda yirik korporativ inqirozlarning aksariyati bir nechta davlatni qamrab oladi, shuning uchun xalqaro bankrotlik holatlari istisno emas, balki qoida deb hisoblashadi. Agar turli davlatlar-ning sudlari o’rtasida transchegaraviy holat-larda muvofiqlashtirish va hamkorlik bo’l-masa, bir xil qarzdorga nisbatan bir nechta

bankrotlik jarayonlari ochilishi xavfi doimo mavjud bo’ladi.

Agar bu jarayonlar bir-biri bilan raqobat-lashsa yoki tabiatan bir-biriga zid bo’lsa (ma-salan, tugatish / likvidatsiya jarayoni bilan korporativ qutqarish yoki qayta tashkil etish jarayoni to’qnashsa), bu holat kreditorlar uchun ortiqcha kapital yo’qotishlariga olib kelishi mumkin. Chunki moliyaviy inqirozni bartaraf etish yoki korxonani tiklashga qara-tilgan harakatlar to’xtab qoladi.

Bundan tashqari, bunday holatda qaysi davlatning qonuni oxir-oqibatda bankrotlik-dagi huquqiy masalalarga (masalan, ta’minot huquqlari, to’lovlar ketma-ketligi va ustuvorlik masalalari) tatbiq etilishini oldindan aniq belgilash qiyin bo’ladi. “Bu esa aktivlar uchun kreditorlar o’rtasida “poyga”ga sabab bo’ladi – bu poygada “faqat eng kuchlilar” g’olib chiqadi. Poygada ishtirok eta olmay-digan kreditorlar esa eng katta yo’qotuvchi-larga aylanadi, bu esa bankrotlikning asosiy global tamoyillaridan biri – kreditorlar teng-ligi tamoyiliga (par conditio creditorum) zid keladi”(Wood, 1997).

Shuningdek, firibgarlik yoki nohalol yu-risdiksiya tanlash (forum shopping) xavfi ham yuzaga keladi, ya’ni qarzdor yoki kredi-tor o’ziga eng qulay sud tizimini topish uchun davlatlar o’rtasida “sayohat” qiladi. Bu mu-ammolar yillar davomida aniqlangan va ular-ni hal etish uchun turli manfaatdor tomonlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan bir qator tashabbuslar ilgari surilgan.

Transchegaraviy bankrotlik masalalariga oid aniq va yagona qoidalar o’rnatishning asosiy sababi – bu aniqlik va oldindan ba-shorat qilish imkonini ta’minlashdir. Bun-day barqarorlik xalqaro savdo va investit-siyalar uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Transchegaraviy bankrotlik holatlari turli sabablarga ko’ra yuzaga kelishi mumkin. Ma-salan, qarzdor:

– chet eldagi hamkorlar bilan iqtisodiy munosabatlarda bo’lgan bo’lishi mumkin;

- bir nechta davlatlarda joylashgan mulklarga yoki aktivlarga ega bo'lishi mumkin;
- xorijiy kreditorlarga ega bo'lishi mumkin;
- xorijiy davlat yurisdiksiyasi ostida bo'lgan shartnomaviy majburiyatlarni olgan bo'lishi mumkin;
- o'z mamlakatidan tashqarida olingan yoki bajarilishi kerak bo'lgan majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Natijada bankrotlik jarayonlari bir nechta davlatlarda bir vaqtda boshlanishi mumkin va bu jarayonlarning har biri transchegaraviy masalalarni keltirib chiqaradi. Bu masalalarning eng asosiysi – bir xil qarzdorga nisbatan olib borilayotgan bir nechta jarayonlarni qanday muvofiqlashtirish (agar bu mumkin yoki maqsadga muvofiq bo'lsa) masalasidir.

Qarzdorning faoliyati bir necha davlat yoki yurisdiksiya bilan bog'liq bo'lgani uchun, bunday holatlar xalqaro xususiy huquq (private international law) doirasiga kiradi. Eng sodda shaklda transchegaraviy bankrotlik – bu bir davlatda bankrotlik jarayoni olib borilib, kreditorlar boshqa davlatda joylashgan holatni anglatadi. Biroq amalda bunday holatlar bundan ancha murakkab bo'lishi mumkin:

- qarzdorning sho'ba korxonalari bir necha davlatda joylashgan bo'lishi;
- aktivlar turli mamlakatlarda bo'lishi;
- ishlab chiqarish faoliyati va kreditorlar bir nechta davlatlarda joylashgan bo'lishi;
- bir vaqtning o'zida bir necha davlatlarda bankrotlik jarayonlari olib borilishi mumkin.

Transchegaraviy bankrotlikda ko'plab huquqiy muammolar va savollar yuzaga keladi. Ularning yechimi esa shundan iboratki, har bir mustaqil davlat o'z qonunchiligini o'zi boshqaradi. Shuning uchun bu muammolarni hal etish uchun davlatlar o'z qonunlarini isloh qilishda faol ishtirok etishlari zarur. Biroq Yevropa Ittifoqi misolida bo'lgani kabi, ayrim mamlakatlar bu vakolatlarning bir qismini ustmilliy (supranational) organlarga topshirgan.

Ko'pchilik davlatlarning milliy bankrotlik qonunlari na rasmiy, na amaliy jihatdan transchegaraviy bankrotlik holatlariga yetarlicha moslashtirilmagan. Shu sababli bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlarda bankrotlik jarayonlari ochilishi mumkin va har bir davlat:

- o'z milliy qonunlarini (shu jumladan, kollizion qoidalarini) qo'llaydi;
- xorijiy sud jarayonlari esa ko'pincha cheklangan doirada qo'llaniladi yoki ta'sir kuchi boshqa yurisdiksiyada tan olinmaydi.

Shunga qaramay, amalda ko'pincha asosiy (universal) jarayon – qarzdorning asosiy manfaatlar markazi joylashgan davlatda olib boriladi va ikkinchi darajali (territorial) jarayonlar esa qarzdorning aktivlari yoki doimiy manfaatlari mavjud bo'lgan boshqa davlatlarda yuritiladi. Agar bu jarayonlarda davlatlar o'rtasida hamkorlik va muvofiqlik bo'lmasa, qat'iy territorial yondashuv katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ko'plab davlatlarning bankrotlik qonunlari zamonaviy talablarga javob bermaydi. Ayrim qonunlar eski davr merosi (masalan, mustamlakachilik davridan qolgan) bo'lib, bugungi xalqaro savdo va investitsiya muhiti uchun mos emas. Shu sababli bir qator xalqaro tashkilotlar xalqaro standartlar va eng yaxshi tajribalarni yaratish uchun tashabbuslar boshlagan:

- Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan – to'lovga qobiliyatsizlik va kreditor/qarzdor tizimlari samaradorligi tamoyillari;
- UNCITRALning – Bankrotlik bo'yicha qonunchilik uchun qo'llanmasi;
- Yevropa Komissiyasining – Bankrotlik va yangi boshlanish: muvaffaqiyatsizlikka nisbatan stigma va bankrotlikning huquqiy oqibatlari loyihasi.

Agar milliy qonunlarning umumiy darajasi yuqori bo'lsa, bu ko'plab amaliy muammolarni hal etishga yordam beradi, lekin asosiy ehtiyoj – davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va muvofiqlik masalasini to'liq qamrab olmaydi. Transchegaraviy bankrotlik masalalari muhokama qilinayotganda davlatlarning tur-

licha yondashuvlarini uyg'unlashtirish ham muammoli bo'ladi.

Eng asosiy farqlardan biri – bankrotlik kimning manfaatini ko'proq himoya qilishi kerakligiga doir qarashdir:

– “pro-creditor” tizimlar – kreditorlarning da'volarini undirish manfaatiga urg'u beradi;

– “pro-debitor” tizimlar – qarzdorga o'z faoliyatini davom ettirish imkonini yaratishga intiladi” (Wood, 1997).

Masalan, Fransiyada bankrotlik tizimi mehnat huquqlarini (ishchilarning manfaatlarini) ko'proq himoya qiladi.

Bundan tashqari, ayrim davlatlar xorijiy davlatlarning da'volarini (masalan, soliq yoki ijtimoiy sug'urta to'lovlari) tan olishga istaksiz, yoki mahalliy kreditorlarni himoya qilishni afzal ko'radi. Natijada davlatlar qarzdorning aktivlari uchun o'zaro raqobatlashadi.

Bankrotlik jarayonlari faqat protsessual jihatdan emas, balki moddiy huquq sohalarini ham (xususiy va jamoat huquqini) qamrab olgani sababli yanada murakkablashadi. Odatda, davlatlar o'z bankrotlik jarayonlarini “eksport qilishga” tayyor, ammo xorijiy jarayonlarni “import qilishga” unchalik moyil emas.

Transchegaraviy bankrotlik muammolarini hal etishda ikki asosiy nazariya mavjud:

1. Universalizm (umumjahon yondashuv).

2. Territorializm (hududiy yondashuv) (Fletcher, 2005).

Bu ikki nazariya bir-biriga butunlay zid, ammo har ikkalasi ham asosli dalillarga ega. Shunga qaramay, xalqaro miqyosdagi mutaxassislar va tahlilchilar mavjud kamchiliklariga qaramay, universalizm tamoyilini afzal deb biladilar. Biroq milliy hukumatlar o'z milliy manfaatlarini e'tibordan chetda qoldira olmaydi, chunki bu manfaatlarni territoriallik tamoyili doirasida aniqlash va himoya qilish osonroq.

Universalizm (yoki universallik) tamoyili. Universalizm yoki universallikning soddalashtirilmagan talqini shundan iboratki, qarz-

dorning butun dunyo bo'ylab mavjud barcha aktivlari va majburiyatlarini o'z ichiga oluvchi yagona bankrotlik jarayoni bo'lishi kerak. Shunday qilib, bunday ish ochilgach, boshqa hech bir davlatda boshqa bankrotlik ishlari yoki qarzdorning mol-mulkini undiruv bo'yicha boshqa harakatlar amalga oshirilmasligi lozim.

Amalda, faqat bitta sud yurisdiksiyaga ega bo'lishi kerak. Tanlangan davlat qarzdorning asosiy manfaatlar markazi joylashgan joy bo'lishi mumkin. Biroq boshqa yondashuvlar ham mavjud, masalan: butun dunyo miqyosida amal qiluvchi yagona bankrotlik huquqi (biroq yagona sud bo'lmagan holda) yoki shartnomaviy elementlarni ham o'z ichiga oluvchi tizim. Qanday shaklda bo'lmasin, bu yondashuv quyidagi asosiy g'oyaga tayanadi: qarzdorning barcha aktivlari bankrotlik ishiga kiritilishi kerak va bankrotlik ishini yurituvchi shaxs (masalan, ma'mur, likvidator yoki ofitser) barcha aktivlarni nazorat qilish va ularni qo'lga kiritish vositalariga ega bo'lishi zarur. Dunyo bo'ylab barcha kreditorlar bankrotlik ishida ishtirok etish imkoniga ega bo'lishlari, barcha da'volar esa teng asosda ko'rib chiqilishi kerak (Rasmussen, 1998).

Universalizm tarafdorlari bu yondashuvni xalqaro bankrotlik ishlarida ishtirok etuvchi tomonlar manfaatlarini eng maqbul tarzda qondiruvchi deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, ushbu tamoyilning yana bir afzalligi sifatida jarayonning nisbatan kam xarajatli bo'lishi ta'kidlanadi. Universalizm tamoyili globallashuv va xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi yirik transmilliy korporatsiyalar sharoitida ayniqsa mos tushadi. Shunga qaramay, bu tizim xorijiy huquq tizimlariga va xorijda olib boriladigan bankrotlik jarayonlariga nisbatan yuqori darajadagi ishonchni talab qiladi, chunki yagona bankrotlik ishi ekstraterritorial (ya'ni davlat chegaralaridan tashqariga ta'sir qiluvchi) kuchga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, universal yondashuv samarali bo'lishi uchun qaysi huquq qo'llanishi (choice-of-law) va to'lovlar ustuvorligi (prio-

rity rules) kabi murakkab huquqiy masalalar ham hal etilishi lozim.

Universalizmning muxoliflari esa quyidagi muammolarga e'tibor qaratadilar: – qarzdor uchun yagona davlatni (bosh davlatni) aniqlash juda murakkab; – bu tamoyil ichki bozorlar uchun noaniqlik keltirib chiqaradi; – “bosh davlat” standartlari aniqlanmagan yoki strategik manipulyatsiyaga ochiq bo'lishi mumkin (ayniqsa, qarzdor yirik korporativ guruh bo'lsa) (LoPucki, 1999).

Territorializm tamoyili. Ushbu tamoyil universalizmga tubdan qarama-qarshi bo'lib, qarzdorning aktivlari mavjud bo'lgan har bir davlatda alohida bankrotlik ishi ochilishi mumkin, deb hisoblaydi. Biroq bu ishlar faqat o'sha davlat hududida joylashgan aktivlar bilan cheklanadi. Mazkur tamoyilga ko'ra, bir qarzdorga nisbatan bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlarda bankrotlik ishlari yuritilishi mumkin. Har bir ishda da'volarni taqdim etish huquqiga ega bo'lgan kreditorlar doirasi cheklangan bo'ladi, bankrotlik ma'muri esa faqat o'z davlatining milliy chegaralari doirasida vakolatga ega bo'ladi.

Bu yondashuvga binoan, milliy manfaatlar, ya'ni mahalliy kreditorlar manfaatlari chet elga aktivlarni o'tkazishdan avval himoya qilinishi kerak. Territorializm mahalliy manfaatlar va ichki bozorda faoliyat yurituvchi kreditorlar manfaatlarini ko'zda tutadi. Bunday kreditorlar ko'pincha mahalliy aktivlar qiymati asosida kredit berish qarorini qabul qiladilar. Shuningdek, ular xorijiy bankrotlik ishlarida ishtirok etish jarayonida katta amaliy va iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Huquqiy jihatdan (de jure) ular teng maqomda bo'lishi mumkin bo'lsa-da, amalda (de facto) ular uchun bu imkoniyatlar cheklangan bo'lishi va bu ularning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin.

Agar mahalliy bankrotlik ishi yuritilmasa, faqat eng kuchli kreditorlar o'z da'volarini qoplash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Territorializm tamoyilini qo'llashda asosiy

kamchiliklardan biri shundaki, qarzdor bir davlatda (qarzlari joylashgan yerda) bankrot deb e'lon qilinishi mumkin, lekin boshqa bir davlatda (mulk joylashgan joyda) hali ham to'lovga qodir bo'lishi mumkin. Bu esa shuni anglatadiki, qarzdor bir davlatda moliyaviy jihatdan barqaror, ammo boshqa bir davlatda butunlay bankrot bo'lishi mumkin. Territorializm tarafdorlari bu yondashuv bilan bog'liq muammolarni tan oladilar, biroq ular yechim universalizmga emas deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bu muammolarni hal qilishning to'g'ri yo'li – hamkorlikka asoslangan territorializm shaklidir.

Ba'zan shunday deyiladiki, fuqarolik huquqiga asoslangan davlatlar yurisdiksiya masalalarida ko'proq territorial yondashuvga moyil, holbuki anglo-sakson (common law) tizimiga asoslangan davlatlar ko'proq universalizm tamoyiliga yaqin turadi. Ammo amalda hech bir milliy davlat bu yondashuvlardan mutlaq shaklda foydalanmaydi. Shu sababli “modifikatsiyalangan universalizm” va “modifikatsiyalangan territorializm” tushunchalari paydo bo'lgan.

To'liq territorial yondashuv juda qimmatga tushadi, universal yondashuvni esa siyosiy va amaliy jihatdan qo'llash qiyin. Shu bois ayrim olimlar amaliyroq yechimlarni taklif qilganlar, masalan: “xalqaro prinsip” (internationalist principle) – bu “common law”dagi “comity” (davlatlar o'rtasida o'zaro hurmat va tan olish) tamoyiliga asoslangan yoki hududga bog'liq bo'lmagan yondashuv, ya'ni huquq tanlovi qoidalariga asoslangan tizim (Bufford et al., 2001).

Davlatlar o'rtasida hamkorlik va muvofiqlik yetishmovchiligini bartaraf etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda ham, amalda, ikki yondashuv elementlarini moslashtirish va murosaga keltirish yo'li tanlanadi. Haqiqat shundaki, amaliyotda ko'pincha bir vaqtning o'zida ham asosiy (universal), ham ikkilamchi (territorial) bankrotlik jarayonlariga joy mavjud bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, transchegaraviy to'lovga qobiliyatsizlik huquqi zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylangan. Bir qarzdorga nisbatan bir nechta davlatlarda bankrotlik jarayonlarining olib borilishi jiddiy huquqiy va amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Universalizm va territorializm nazariyalari bu muammolarga turlicha yechim taklif qilsa-da, amaliyotda ularning sof shakllari deyarli qo'llanilmaydi.

Shu sababli modifikatsiyalangan yondashuvlar hamda davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro tan olish mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun muhim yo'nalish bo'lib xizmat qilmoqda. Kelajakda transchegaraviy bankrotlik masalalarini samarali hal etish davlatlar o'rtasida ishonch, huquqiy uyg'unlik va muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni yanada kuchaytirishni talab qiladi.

REFERENCES

1. Bufford, S. L., et al. (2001). *International insolvency*. Federal Judicial Center.
2. Federal Ministry of Justice (Germany). (n.d.). *Insolvency Code (Insolvenzordnung)*. http://www.gesetze-im-internet.de/englisch_inso/
3. Fletcher, I. F. (2005). *Insolvency in private international law: National and international approaches* (2nd ed.). Oxford University Press.
4. Friman, H. (n.d.). *Transchegaraviy to'lovga qobiliyatsizlik qoidalari bo'yicha muhokamalar* [Discussions on cross-border insolvency rules]. Unpublished master-class materials prepared for the LL.M. programme in International Insolvency Law, University of Pretoria.
5. INSOL International. (2025). *INSOL World, Q4 2025*. <https://www.insol.org/getmedia/57649a7a-1785-45f7-8981-a179f3acdefc/IW-Q4-2025.pdf>
6. LoPucki, L. M. (1999). Cooperation in international insolvency: A post-universalist approach. *Cornell Law Review*, 84, 696–762.
7. Lunts, L. A. (1976). *Mnogonatsionalnye predpriyatiya kapitalisticheskikh stran v aspekte mezhdunarodnogo chastnogo prava* [Multinational enterprises of capitalist countries in the aspect of private international law]. *Sovetskoe gosudarstvo i pravo [Soviet State and Law]*, 5, 124.
8. Mokhova, E. V. (2012). Tsentr osnovnykh interesov dolzhnika pri transgranichnoy nesostoyatel'nosti: perspektivy vvedeniya v Rossii novykh pravovykh konstruksiy [The center of main interests of the debtor in cross-border insolvency: Prospects for introducing new legal concepts in Russia]. *Zakon [Law]*, (10), 111–127.
9. Republic of Uzbekistan. (1997, March 1). Civil Code. <https://lex.uz>
10. Republic of Uzbekistan. (2022, April 12). Law "On insolvency". <https://lex.uz>
11. Rasmussen, R. K. (1998). A new approach to transnational insolvencies. *Michigan Journal of International Law*, 19, 1–36.
12. United Nations Commission on International Trade Law. (n.d.). *Model Law on Cross-Border Insolvency*. http://www.uncitral.org/pdf/russian/texts/insolven/05-80724_Ebook.pdf
13. United Nations Commission on International Trade Law. (n.d.). *UNCITRAL Model Law on Cross-Border Insolvency*. https://uncitral.un.org/en/texts/insolvency/modellaw/cross-border_insolvency
14. Westbrook, J. L. (2010). A global view of business insolvency systems. In *Corporate rehabilitation proceedings* (Chapter 4). Martinus Nijhoff Publishers.
15. Wessels, B. (2006). *International insolvency law*. Kluwer Law International.
16. Wood, P. (2007). *Principles of international insolvency* (2nd ed.). Sweet & Maxwell.
17. Wood, P. R. (1997). *Maps of world financial law*. Allen & Overy Global Law Maps.

Kelib tushgan / Получено / Received: 05.12.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 09.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.02.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.1./VUUH3389>
UDC: 347:004(045)(575.1)

BULUTLI TEXNOLOGIYALARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Abdullayev Komiljon Istatillo o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0005-4686-1492
e-mail: kamilbek.abdullayev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada xalqaro hamkorlik kontekstida bulutli texnologiyalarni huquqiy tartibga solishning dolzarb masalalari muhokama qilinadi. Turli huquqiy tizimlarda bulutli xizmatlarni tartibga solishning asosiy yondashuvlari tahlil qilingan, mavjud huquqiy tartibga solishdagi asosiy muammolar va qarama-qarshiliklar aniqlangan. Xalqaro amaliyot va statistik ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish asosida bulutli texnologiyalarni huquqiy tartibga solishning eng samarali mexanizmlari belgilab olindi. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va yurisdiksiya nizolarini hal etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bulutli texnologiyalarni tartibga solish sohasida xalqaro huquqiy bazani takomillashtirish va bu borada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilmoqda.

Kalit so'zlar: bulutli texnologiyalar, xalqaro huquq, xalqaro tashkilotlar, huquqiy tartibga solish, kiberxavfsizlik, xalqaro hamkorlik, ma'lumotlarni himoya qilish, raqamlashtirish

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Абдуллаев Комилжон Истатилло угли,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы правового регулирования облачных технологий в контексте международного сотрудничества. Проанализированы основные подходы к регулированию облачных сервисов в различных правовых системах, выявлены ключевые проблемы и противоречия существующего правового регулирования. На основе комплексного анализа международной практики и статистических данных определены наиболее эффективные механизмы правового регулирования облачных технологий. Особое внимание уделено вопросам защиты персональных данных, обеспечения кибербезопасности и разрешения юрисдикционных споров. Сформулированы конкретные рекомендации по совершенствованию международной правовой базы в сфере регулирования облачных технологий и развитию международного сотрудничества в данной области.

Ключевые слова: облачные технологии, международное право, международные организации, правовое регулирование, кибербезопасность, международное сотрудничество, защита данных, цифровизация

PROBLEMS AND PROSPECTS OF LEGAL REGULATION OF CLOUD TECHNOLOGIES

Abdullaev Komiljon Istatillo ugli,

Independent Researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. *The article discusses current issues of legal regulation of cloud technologies in the context of international cooperation. The main approaches to the regulation of cloud services in various legal systems were analyzed, and the main problems and contradictions in existing legal regulation were identified. Based on a comprehensive analysis of international practice and statistical data, the most effective mechanisms for the legal regulation of cloud technologies have been identified. Special attention is paid to the protection of personal data, ensuring cybersecurity, and resolving jurisdictional disputes. Specific recommendations are proposed for improving the international legal framework in the field of cloud technology regulation and developing international cooperation in this area.*

Keywords: *cloud technologies, international law, international organizations, legal regulation, cybersecurity, international cooperation, data protection, digitalization*

Kirish

Bugungi raqamli transformatsiya davrida bulutli texnologiyalar global axborot inf-ratuzilmasining ajralmas qismiga aylandi. Ularning tez rivojlanishi va keng joriy etilishi xalqaro huquqiy tartibga solishda yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xalqaro hamkorlik kontekstida bulutli texnologiyalarini *huquqiy tartibga solish mavzusining dolzarbligi* quyidagi bir necha asosiy omillar bilan izohlanadi:

birinchidan, global bulutli xizmatlar bozori misli ko'rilmagan o'sishni ko'rsatmoqda. Jumladan, jahon bulutli texnologiyalar bozori hajmi 2024-yilda taxminan 752 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. 2025-yildan 2030-yilgacha yillik o'rtacha 20,4 foiz o'sish sur'ati bilan 2030-yilda 2 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasida bulutli xizmatlar bozori 2025-yilda 673 million AQSh dollariga yetishi, 20 foizlik yillik o'rtacha o'sish ko'rsatkichi asosida 2030-yilga kelib taxminan 2 milliard AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda. Bunday katta o'sish xalqaro darajada adekvat huquqiy tartibga solishni talab qiladi;

ikkinchidan, bulutli texnologiyalarning transchegaraviy xususiyati milliy yurisdiksiyalar o'rtasida jiddiy huquqiy to'qnashuvlarni

keltirib chiqarmoqda. Bulutda saqlanadigan ma'lumotlar jismoniy jihatdan turli mamlakatlarda joylashgan bo'lishi mumkin, bu esa qo'llanadigan qonunchilik va yurisdiksiya haqidagi savollarni yuzaga keltiradi. Bu ayniqsa shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohalarida dolzarbdir;

uchinchidan, bulutli texnologiyalarni tartibga solishda yagona xalqaro yondashuvning mavjud emasligi biznes tuzilmalari va foydalanuvchilar uchun katta xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Milliy qonunchilikdagi farqlar huquqiy noaniqlikka olib kelishi, xalqaro hamkorlikni murakkablashtirishi va global raqamli bozorning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi global raqamlashuv sharoitida bulutli texnologiyalarni xalqaro huquqiy tartibga solishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

bulutli texnologiyalarni tartibga solishda mavjud xalqaro-huquqiy mexanizmlarni tahlil qilish;

bulutli xizmatlarni xalqaro-huquqiy tartibga solishdagi asosiy muammolar va ziddiyatlarni aniqlash;

bulutli texnologiyalar sohasida xalqaro-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy muammosi bulutli texnologiyalarni tartibga solishda yagona xalqaro yondashuvning mavjud emasligidir. Bu esa sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga jiddiy to'sqinliklar yaratadi. Shuningdek, xalqaro miqyosda huquqiy tartibga solishda sezilarli xilma-xillik kuzatilayotganligi yagona normativ baza shakllanishini qiyinlashtirmoqda. Turli mamlakatlarning milliy qonunchiligi o'rtasidagi ko'plab ziddiyatlar esa transchegaraviy loyihalar va bulutli texnologiyalar xizmatlarini amalga oshirishda muammolarni keltirib chiqaradi.

Universal xavfsizlik va ma'lumotlarni muhofaza qilish standartlarining mavjud emasligi foydalanuvchilar hamda bulutli xizmatlar provayderlari uchun qo'shimcha xavf-xatarlarni tug'diradi va xalqaro hamkorlikning rivojlanishini cheklaydi. Bundan tashqari, yurisdiksiya va qo'llanadigan qonunni aniqlash masalalari ayniqsa murakkab bo'lib, bulutli texnologiyalar bilan bog'liq vaziyatlarda kelib chiqqan nizolarni hal etish hamda huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishni jiddiy ravishda murakkablashtiradi.

Bulutli texnologiyalarni huquqiy tartibga solish masalasi mahalliy va xalqaro doiradagi tadqiqotchilar diqqatini jalb qilmoqda. Chet el mualliflarining ishlarida bulutli muhitda ma'lumotlarni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Masalan, K. Millard (2021) o'zining "Cloud Computing Law" darsligida turli yurisdiksiyalarda bulutli texnologiyalardan foydalanishning huquqiy jihatlarini batafsil tahlil qilgan. D. Svansson "International Cloud Computing Regulations" tadqiqotida bulutli xizmatlarni xalqaro tartibga solish muammolarini hal qilish yo'llarini taklif etadi.

A.I. Savelevning ishlarida Rossiya va xalqaro huquqda bulutli hisoblashning huquqiy jihatlarini batafsil o'rganilgan (Savelev, 2023).

A. Karsxiya raqamli texnologiyalarni tartibga solishning fuqarolik-huquqiy modellarini tahlil qilgan. T.K. Kira bulutli saqlash tizimlarida axborotlarni saqlashning huquqiy rejimini, I.A. Nesterova bulutli texnologiyalardan foydalanishda yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solish muammolarini, I.M. Rassolov esa axborot huquqi kontekstida bulutli texnologiyalarni huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq qilgan.

Ta'kidlash kerakki, ilmiy adabiyotlarda asosan bulutli muhitda kiberxavfsizlikni ta'minlash muammolariga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, M. Fenvik va T. Van Xutte "Cybersecurity in Cloud Computing" tadqiqotlarida zamonaviy bulutli xizmatlarning xavfsizligini ta'minlash usullarini tahlil qilib, bu sohada huquqiy tartibga solishning yangi mexanizmlarini taklif qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida y.f.d., professor I.R. Rustambekov va y.f.n. X.R. Sharipovalar raqamli texnologiyalar hamda ularning tarkibiy qismi bo'lgan bulutli texnologiyalarni fuqarolik-huquqiy va xalqaro-xususiy huquq nuqtayi nazaridan tartibga solishga qaratilgan takliflarni taqdim etgan (Sharipova, 2024).

Asosiy qism

Ushbu tadqiqot doirasida bulutli texnologiyalarni xalqaro kontekstda huquqiy tartibga solinishini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanadi. Tadqiqotning asosiy materiallari sifatida xalqaro huquqiy hujjatlar, turli mamlakatlarning milliy qonunchiligi, ilmiy nashrlar hamda bulutli texnologiyalar sohasidagi statistik ma'lumotlar xizmat qiladi.

Asosan quyida ko'rsatilgan xalqaro tashkilotlarning normativ hujjatlari, tavsiyalari va standartlari o'rganildi:

Xususan, Yevropa Ittifoqining "Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi reglamenti (GDPR-2018), "Tarmoq va axborot xavfsizligi to'g'risida"gi direktiva (NIS 2 Directive – 2022/2555), Amerika Qo'shma Shtatlarining "Ma'lumotlardan chet elda qonuniy foydalanishni aniqlashti-

rish to'g'risida"gi qonuni (CLOUD Act 2018), Osiyo-Tinch okean mintaqasi mamlakatlarning tegishli normativ hujjatlari, shuningdek, bulutli xizmatlarning axborot xavfsizligi bo'yicha ISO/IEC 27017:2015 standarti hamda Xalqaro elektroso'zlashuv ittifoqi (ITU) ning tavsiyalari.

Tadqiqot jarayonida quyidagi bir qator ilmiy metodlar qo'llandi:

huquqiy taqqoslash metodi orqali turli huquq tizimlarida bulutli texnologiyalarni tartibga solishning o'ziga xos jihatlarini aniqlash va mavjud muammolarni hal etishda eng samarali yondashuvlarni belgilash imkoniyati yaratildi. Ushbu usul yordamida turli davlatlarning bulutli texnologiyalardan foydalanish, ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi;

tizimli tahlil metodi xalqaro huquqiy tartibga solishda bulutli texnologiyalarning turli elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganish uchun qo'llandi. Bu metod bulutli xizmatlardan foydalanishning texnik, huquqiy va tashkiliy jihatlarini bir vaqtda hisobga olib, muammoni keng ko'lamda va to'liq tushunishga yordam berdi;

rasmiy-huquqiy metod bulutli texnologiyalarni tartibga solishga doir huquqiy normalarni tahlil qilish va ularni sharhlash uchun qo'llandi. Ushbu metod orqali mavjud qonunchilikdagi bo'shliqlar va ziddiyatlar aniqlanib, ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

statistik metod bulutli texnologiyalar bozori rivojlanishi, axborot xavfsizligining buzilishi holatlari va mavjud huquqiy mexanizmlarning samaradorligi bo'yicha miqdoriy ma'lumotlarni yig'ish hamda tahlil qilishda qo'llandi. Bu jarayonda *Grand View Research, Gartner, IDC va Forrester Research* kabi xalqaro tadqiqot tashkilotlarining ma'lumotlaridan foydalanildi;

tadqiqot metodi orqali bulutli texnologiyalar bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud qarorlari tahlil qilindi. Ayniqsa, turli yurisdiksiya sudlarining pretsedent qarorlariga e'tibor

berildi, chunki ular mazkur sohada huquqni qo'llash amaliyotini shakllantiradi.

Empirik baza sifatida AT sohasi mutaxassislari hamda axborot xavfsizligi sohasidagi ekspertlar materiallari ishlatildi. Bu esa bulutli texnologiyalarni huquqiy tartibga solishdagi amaliy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida aniq hamda dolzarb ma'lumot olish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida xalqaro amaliyotda bulutli texnologiyalarni huquqiy tartibga solish bo'yicha quyidagi uchta asosiy yondashuv aniqlandi:

birinchi yondashuv Yevropa Ittifoqiga xos bo'lgan kompleks yondashuvdir. Bunda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish kuchaytirilgan mexanizm asosida tartibga solinishi va bulutli xizmatlarning xavfsizligiga doir batafsil talablar qo'yilishi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv doirasida transchegaraviy ma'lumotlarni uzatishning aniq mexanizmlari belgilangan hamda ushbu talablarni buzganlik uchun yuqori jarimalar nazarda tutilgan. Bunday tizim foydalanuvchilar huquqlarining yuqori darajada himoya qilinishiga va biznes uchun oldindan ko'rilgan huquqiy muhitni yaratishga xizmat qiladi;

ikkinchi yondashuv AQShda keng qo'llanadigan yondashuv bo'lib, uning xususiyati shundaki, iqtisodiyotning turli sohalar uchun alohida talablar o'rnatilgan hamda davlat tomonidan bulutli xizmatlarni tartibga solishga katta e'tibor beriladi. Bunday yondashuv doirasida umumiy normalardan ko'ra sohaviy standartlarga ustunlik beriladi va huquqni qo'llashda moslashuvchan mexanizmlar qo'llanadi. Bu esa iqtisodiyotning turli sektorlarining o'ziga xos jihatlarini hisobga olish va tezkor ravishda o'zgaruvchi texnologik sharoitlarga moslashish imkonini beradi;

uchinchi yondashuv gibriddir yondashuv bo'lib, asosan Osiyo davlatlarida qo'llanadi. Bu yondashuvda ayrim ma'lumot kategoriyalari uchun qat'iy talablar qo'yiladi, boshqa sohalar esa nisbatan erkin tartibga solinadi. Ushbu yondashuv doirasida milliy xavfsizlik

masalalariga va davlatning bulutli platformalarini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Bunday tizim muhim ma'lumotlarni himoya qilish bilan innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

Turli yondashuvlarning samaradorligi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng natijador yondashuv foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish va innovatsiyalarni rivojlantirish o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi kompleks yondashuvdir. Ushbu yondashuv qo'llanadigan mamlakatlarda ma'lumotlarning sizib chiqishi bilan bog'liq hodisalar 43 foizga kamroq kuzatilgan va bulutli xizmatlarga bo'lgan foydalanuvchilar ishonchi 67 foizga yuqori bo'lgan.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida huquqiy tartibga solishning quyidagi bir qator jiddiy muammolari aniqlandi:

birinchi muammo – jiddiy yurisdiksiya nizolari. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bulut texnologiyalari sohasidagi xalqaro nizolarining 78 foizi qo'llanadigan huquqni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga, kompaniyalarning 65 foizi doimiy ravishda turli yurisdiksiyalarning ziddiyatli talablari bilan to'qnashadi. Yurisdiksiya nizolarini hal qilish uchun yagona mexanizmlarning mavjud emasligi xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga katta to'sqinlik qiladi;

ikkinchi muammo – shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalalari. Turli mamlakatlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish standartlarining farqliligi transchegaraviy ma'lumotlarni almashishga jiddiy to'sqinliklar yaratadi. Shuningdek, kompaniyalar ma'lumotlarni qayta ishlashning oshkoraligini ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa foydalanuvchilarning bulutli xizmatlarga bo'lgan ishonchini pasaytirmoqda. Shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatishni nazorat qilish uchun yagona mexanizmlarning mavjud emasligi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda va axborot xavfsizligi uchun xavf tug'dirmoqda;

uchinchi muammo – kiberxavfsizlik masalalari bilan bog'liq. Xususan, bulutli xizmatlarga qarshi kiberhujumlar sonining so'nggi yillarda keskin oshgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Kiberxavflarga qarshi samarali kurashishni xalqaro darajada davlatlar o'rtasidagi muvofiqlashtirishning yetishmasligi qiyinlashtirmoqda. Yagona xavfsizlik standartining mavjud emasligi bulutli infratuzilmani himoya qilish uchun kompleks choralarini ishlab chiqish va joriy etishga to'sqinlik qilmoqda.

Tadqiqot davomida bulutli texnologiyalar sohasidagi mavjud xalqaro hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi ham tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro hamkorlikda eng samarali vositalar sifatida kiberxavflar haqida ma'lumot almashish mexanizmlari ajralib turadi. Bunda ushbu mexanizmlarning samaradorligi 76 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, bulutli xizmatlar xavfsizligini baholash bo'yicha standartlar ham yuqori samaradorlik ko'rsatgan bo'lib, ularning samaradorligi 82 foizga yetgan. Xalqaro sertifikatlashtirish sxemalari ham 71 foiz bilan nisbatan yuqori samaradorlikni ko'rsatgan.

Biroq tadqiqot bir qator muhim xalqaro hamkorlik mexanizmlarida jiddiy kamchiliklarni ham aniqladi. Eng katta muammo transchegaraviy huquqni qo'llash mexanizmlarining past samaradorligida bo'lib, u atigi 34 foizni tashkil etadi. Xalqaro nizolarni hal qilish tartiblari ham yetarlicha samarali emas, ularning samaradorligi 41 foizni tashkil qiladi. Xavfsizlik standartlarini o'zaro tan olish tizimlari nisbatan yuqori natijalar ko'rsatganiga qaramay, ular ham yetarlicha samarali emas va 53 foiz samaradorlikka ega.

Tadqiqot natijalari tahlil qilinganda, bir qator muhim jihatlarni batafsil ko'rib chiqish va baholash zarurligini ta'kidlash lozim. Avvalo, bulutli texnologiyalarning huquqiy tartibga solinishi sohasida aniqlangan tendensiyalar raqamli texnologiyalar sohasida xalqaro hamkorlikning yangi rivojlanish yo'li shakllanganligini ko'rsatadi.

Yevropa Ittifoqida qo'llanayotgan kompleks yondashuv bir qator sabablarga ko'ra eng yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Birinchidan, u barcha a'zo davlatlar hududida yagona tartibga solishni ta'minlaydi, bu esa biznes uchun oldindan baholanadigan huquqiy muhit yaratadi. Ikkinchidan, ma'lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligiga bo'lgan qat'iy talablar foydalanuvchilarning bulutli xizmatlarga bo'lgan ishonchini oshiradi. Uchinchidan, mas'uliyatning aniq mexanizmlari va katta jarimalar bulutli xizmatlarni ko'rsatuvchi provayderlarni belgilangan talablarga rioya qilishga undaydi.

AQShda keng qo'llanadigan sektor yondashuvi ham ayniqsa sohalarga xos talablar nuqtayi nazaridan o'zining afzalliklariga ega. Bu yondashuvning moslashuvchanligi texnologiyalar o'zgarishlariga tezroq javob berish va iqtisodiyotning turli sohalari xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha yagona federal qonunchilik hujjatining yo'qligi xalqaro hamkorlikda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bunda yurisdiksiya nizolari muammosiga alohida e'tibor berish zarur. Qo'llanadigan qonunni aniqlash bilan bog'liq nizolar bunday nizolarni hal qilish uchun yangi xalqaro mexanizmlarni yaratish zarurligini ko'rsatadi. Mavjud xalqaro xususiy huquq vositalari raqamli iqtisodiyot sharoitida har doim ham samarali hisoblanmaydi. Chunki ma'lumotlarning jismoniy joylashgan joyi ularni qayta ishlash yoki foydalanish joyi bilan har doim ham mos kelmasligi mumkin.

Xalqaro miqyosda ma'lumotlarni himoya qilish sohasida xavfsizlik standartlarini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda, biroq milliy yondashuvlardagi farqlar xalqaro hamkorlik uchun jiddiy to'siqlar yaratadi. Tahlillarga ko'ra, kompaniyalar o'z biznes jarayonlarini turli yurisdiksiyalar talablariga moslashtirishga majbur, bu esa xarajatlarni oshiradi va bulutli texnologiyalardan samarali foydalanishni pasaytiradi.

Kiberxavfsizlik muammolari xalqaro hamkorlikda alohida e'tibor talab etadi. Kiberhujumlar sonining sezilarli o'sishi mamlakatlar o'rtasida kiberxavflarga qarshi kurashda muvofiqlashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida bulutli texnologiyalarni tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga jiddiy to'siqlar aniqlandi. Avvalo, texnik to'siqlar (*mamlakatlar o'rtasidagi xavfsizlik standartlari farqlari*), texnik yechimlarning nomuvofiqligi va xalqaro darajada tizimlarning o'zaro integratsiyalashuvdagi jiddiy qiyinchiliklar katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Huquqiy to'siqlar esa turli davlatlarning milliy qonunchiligidagi asosiy ziddiyatlar shaklida namoyon bo'ladi. Bulutli texnologiyalarni tartibga solish bo'yicha yagona yondashuvlarning mavjud emasligi va xalqaro darajada huquqni qo'llashdagi katta qiyinchiliklar vaziyatni murakkablashtiradi.

Tashkiliy to'siqlar ham jiddiy ahamiyatga ega. Ular orasida turli davlatlarning tartibga soluvchi organlari o'rtasida muvofiqlashuvning yetishmasligi alohida ko'zga tashlanadi. Ma'lumot almashishning samarali mexanizmlarining mavjud emasligi va ma'muriy tartibtaomillardagi farqlar xalqaro hamkorlikni yanada qiyinlashtiradi.

Tadqiqotda turli tartibga solish usullari bo'yicha qiyosiy tahlil eng samarali yondashuvlarni aniqlashga yordam berdi. Ular qatoriga texnik talablarni standartlashtirish (*texnik yechimlarda birxillikni ta'minlash*), huquqiy normalarni muvofiqlashtirish (*huquqiy ziddiyatlarni bartaraf etishga yordam beradi*) hamda ma'lumot almashishning tezkor mexanizmlarini yaratish kiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida bir qator yondashuvlar past samaradorligini ko'rsatdi. Xususan, ayrim davlatlar tomonidan bir tomonlama tartibga solish choralari kutilgan natijalarga olib kelmaydi. Ixtiyoriy o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlari ham yetarlicha samarali hisoblanmaydi. Shu bilan birga, xalqaro muvofiqlashuvsiz amalga oshirilayotgan mintaqaviy tashabbuslar ham past natija beradi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot xalqaro hamkorlik doirasida bulutli texnologiyalarni huquqiy tartibga solish masalalari bo'yicha bir qator muhim xulosalar va takliflarni shakllantirishga imkon berdi. Bulutli texnologiyalarni huquqiy tartibga solishning hozirgi holati tahlili ko'rsatdiki, ushbu sohada xalqaro hamkorlikdagi yondashuvlarni sezilarli darajada o'zgartirish zarur.

Avvalo, huquqiy tartibga solishning yagona tizimi yo'qligi xalqaro bulutli texnologiyalar (xizmatlar) bozorining rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Yagona standartlarning mavjud emasligi va milliy qonunchiliklar o'rtasidagi ziddiyatlar biznes xarajatlarining oshishi hamda bulutli texnologiyalardan samarali foydalanishning pasayishiga olib kelmoqda. Shu bois bulutli texnologiyalarni tartibga solish bo'yicha yagona xalqaro hujjat (konvensiya) ishlab chiqilishi zarur bo'lib, u mazkur sohada yagona prinsip va standartlarni belgilab berishi mumkin.

Tadqiqot asosida xalqaro huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi aniq takliflarni kiritish mumkin:

a) *bulutli xizmatlarni sertifikatlashning yagona xalqaro tizimini yaratish*. Bu tizim provayderlarning umumqabul qilingan xavfsizlik va sifat standartlariga muvofiqligini ta'minlashi lozim. Tizim turli xil bulutli xizmatlar xususiyatlarini hisobga olib, davlatlar o'rtasida sertifikatlarni o'zaro tan olish mexanizmlarini ko'zda tutishi zarur;

b) *bulutli xizmatlar yuzasidan yurisdiksiya va qo'llanadigan qonunni aniqlash bo'yicha universal qoidalar ishlab chiqish*. Ushbu qoidalar raqamli muhit xususiyatlarini inobatga olib, nizo yuzaga kelganda vakolatli sud va

qo'llanadigan qonunni aniqlash uchun aniq mezonlarni belgilashi lozim;

d) *bulutli muhitda kiberxavflar va xavfsizlik hodisalari haqida tezkor ma'lumot almashish uchun xalqaro tizimni shakllantirish*. Bu tizim paydo bo'layotgan tahdidlarga zudlik bilan javob berish va mamlakatlar o'rtasida hamohanglikni ta'minlash imkonini berishi kerak;

e) *bulutli xizmatlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish talablarini muvofiqlashtirish*. Hamkorlik ishtirokchilari tomonidan tan olinadigan yagona shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi standartlari ishlab chiqilishi zarur;

f) *bulutli texnologiyalarni tartibga solish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish uchun maxsus xalqaro tashkilotni yaratish*. Ushbu tashkilot xalqaro standartlarning bajarilishini kuzatish, nizolarni hal qilish va turli manfaatdor tomonlar o'rtasida muloqot maydonini ta'minlash bilan shug'ullanishi mumkin.

Taklif etilayotgan choralar xalqaro miqyosda bulutli texnologiyalar uchun samarali va oldindan baholanadigan huquqiy muhitni yaratishga yordam beradi. Bu esa global bulutli xizmatlar bozorining o'sishi va foydalanuvchilarning bulutli xizmatlarga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, bulutli texnologiyalarni huquqiy tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar, biznes hamjamiyatlari hamda ekspertlar jamoatchiligi faol ishtirok etishi zarur. Faqat shunday hamkorlik asosida zamonaviy raqamli davr talablariga javob beradigan samarali huquqiy tartibga solish tizimini yaratish mumkin bo'ladi.

REFERENCES

1. Chen, X. (2023). Cloud computing security standards in international practice. *Cybersecurity Law Review*, 8(1), 112–134.

2. United States. (2018) Clarifying Lawful Overseas Use of Data Act (CLOUD Act), H.R. 4943, 115th Cong.
3. European Parliament. (2022, 14 December) Directive (EU) 2022/2555 of the European Parliament and of the Council of on measures for a high common level of cybersecurity across the Union, amending Regulation (EU) No 910/2014 and Directive (EU) 2018/1972, and repealing Directive (EU) 2016/1148 (NIS 2 Directive).
4. European Cloud Security Alliance. (2023). *Guidelines*.
5. European Parliament. (2016). General Data Protection Regulation (GDPR), Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council.
6. Grand View Research. (2024). *Cloud computing market (2025–2030)*. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/cloud-computing-industry>
7. IEEE. (2023). *International Conference on Cloud Computing Security 2023 materials*.
8. International Legal Forum on Digital Technologies (2023). *Reports*.
9. International Telecommunication Union (2023). *Cloud computing standards*.
10. International Organization for Standardization. (2015). ISO/IEC 27017:2015. *Information technology – Security techniques*.
11. Kumar, R. (2022). Cross-border data flows in cloud computing. *Harvard International Law Journal*, 63(2), 89–112.
12. Millard, C. (2021). *Cloud computing law*. Oxford University Press.
13. NIST. (2023). *Cloud computing program documentation*.
14. OECD. (2023). *Cloud computing policy papers*.
15. Republic of Uzbekistan. (2019). Law of the No. LRU–547 “On Personal Data”].
16. International Conference on Cloud Computing Law and Policy. (2023). *Proceedings*.
17. Reed, C. (2022). *Information technology law: The law and society*. Oxford University Press.
18. Savelev, A. (2023). *Legal regulation of cloud computing: International experience*. Cambridge University Press.
19. Sharipova, Kh. (2024). Pravovoe regulirovanie oblachnykh tekhnologiy v kontekste mezhdunarodnogo sotrudnichestva [Legal regulation of cloud technologies in the context of international cooperation]. *Obzor zakonodatelstva Uzbekistana [Overview of the Legislation of Uzbekistan]*, (4).
20. Smith, J., & Johnson, B. (2023). International legal framework for cloud computing: Challenges and solutions. *International Journal of Law and Technology*, 15(2), 45–67.
21. Statista. (2024). *Cloud computing market leaders – statistics & facts*. <https://www.statista.com/outlook/tmo/public-cloud/central-asia>
22. Wang, F.F. (2022). *Internet jurisdiction and choice of law*. Cambridge University Press.
23. Zhang, L. (2023). Legal aspects of cloud computing in Asia-Pacific region. *Pacific Rim Law & Policy Journal*, 32(1), 23–45.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.01.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 10.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.02.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.1./VJBC1872>

UDC: 347+341.9(045)(575.1)

TRANSCHEGARAVIY ZARAR YETKAZISH OQIBATIDA VUJUDGA KELGAN NIZOLARNI HAL QILISHDA XALQARO XUSUSIY HUQUQNING O'RNINI

Avliyoqulov Bekmirza Bektemirovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti tyutori
ORCID: 0009-0005-1201-931X
e-mail: bekavliyoqulov@gmail.com

Annotatsiya. Juda tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan global iqtisodiy munosabatlar, savdo va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq faoliyatlar natijasida yuzaga kelayotgan nizolar va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqot ishi bu kabi muammolarni hal qilishning huquqiy asoslarini ishlab chiqishda xalqaro xususiy huquqning roli qanchalik muhimligini ilmiy faktlar, nazariy tahlillar va amaliy misollar yordamida ochib beradi. Shuningdek, ushbu maqolada sohaga taalluqli raqamli iqtisodiyot va hududiy savdo bitimlari kabi hozirgi kundagi masalalar tadqiq qilinib, ushbu zamonaviy muammolarni hal qilishda xalqaro xususiy huquq vositalarining moslashuvchanligi ham o'rganilgan. Shuningdek, maqola bugungi kunda transchegaraviy iqtisodiy munosabatlarda xalqaro xususiy huquqning tutgan rolini mustahkamlash uchun olib borilayotgan ilmiy ishlar uchun muhim xulosalarni taqdim etadi. Xalqaro xususiy huquqning rivojlanishi va tegishli sohaga moslashishi uchun beriladigan takliflar uning kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish va transchegaraviy faoliyatni yangi bosqichga ko'tarishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: xalqaro xususiy huquq, transchegaraviy zarar, huquqni tanlash, arbitraj, kollizion huquq, prinsip, globallashuv

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНОГО ЧАСТНОГО ПРАВА В РАЗРЕШЕНИИ СПОРОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В РЕЗУЛЬТАТЕ ПРИЧИНЕНИЯ ТРАНСГРАНИЧНОГО УЩЕРБА

Авлиёкулов Бекмирза Бектемирович,
тьютор факультета публичного права
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Стремительное развитие глобальных экономических отношений, а также активизация деятельности, связанной с торговыми и производственными процессами, обуславливают рост числа споров и актуализируют необходимость выработки эффективных механизмов их разрешения. В настоящем исследовании на основе научных фактов, теоретического анализа и практических примеров раскрывается значимость роли международного частного права в формировании правовых основ урегулирования подобных споров. Также исследуются актуальные вопросы, относящиеся

к цифровой экономике и региональным торговым соглашениям, и анализируется гибкость инструментов международного частного права при решении современных правовых проблем в трансграничных отношениях. Кроме того, статья содержит выводы, имеющие значение для дальнейших научных исследований, направленных на укрепление роли международного частного права в системе трансграничных экономических связей. Сформулированные предложения, касающиеся развития и адаптации международного частного права к потребностям соответствующей сферы, способствуют повышению его эффективности в разрешении потенциальных споров и выводу трансграничной деятельности на качественно новый уровень.

Ключевые слова: международное частное право, трансграничный ущерб, выбор права, арбитраж, коллизионное право, принцип, глобализация

THE ROLE OF PRIVATE INTERNATIONAL LAW IN RESOLVING DISPUTES ARISING FROM TRANSBOUNDARY DAMAGE

Avliyoqulov Bekmirza Bektemirovich,
Tutor of the Faculty of Public Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. Today, the development of effective solutions to conflicts arising as a result of activities related to the rapidly growing global economic relations, trade, and production processes is of great importance. This research work, using scientific facts, theoretical analyses, and practical examples, reveals the importance of the role of private international law in the development of the legal framework for solving such problems. This article also examines current issues related to the sector, such as the digital economy and regional trade agreements, and explores the flexibility of private international law instruments in addressing these contemporary challenges. The article also presents important conclusions for scientific work being carried out today to strengthen the role of international private law in cross-border economic relations. Proposals for the development and adaptation of international private law to the relevant field will contribute to the resolution of disputes that may arise in the future and raise transboundary activities to a new level.

Keywords: international private law, transboundary damage, choice of law, arbitration, conflict of law, principle, globalization

Kirish

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro xususiy huquq tamoyillari xalqaro savdo va o'zaro transchegaraviy munosabatlarda jarayonida kelib chiqadigan nizolarni hal etishda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, mazkur huquq sohasi huquqni tanlash, mojarolarni hal qilish jarayonlarini yuritish va boshqa murakkab masalalarni o'z ichiga oluvchi transchegaraviy tranzaksiyalarni amalga oshirish mexanizmlari bilan ta'minlaydi. Ushbu tadqiqot ishida huquqiy qoidalar, huquqni tanlash hamda chiqarilgan qarorlarning bajarilishi kabi huquqiy prinsiplarni o'rganish

orqali xalqaro xususiy huquq sohasi transchegaraviy savdo-iqtisodiy munosabatlarni to'g'ri tahlil qilish va ularning qonuniyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi isbotlab berishga harakat qilingan. Huquqiy prinsiplar vujudga kelgan transchegaraviy nizolar davrida samarali yechim ishlab chiqish uchun sudlar va arbitrajlar qonuniy asos yaratadi hamda tomonlarning hech biri muayyan arbitraj yoki nizoli yuridik qarorlarni qabul qilishga majburlanmasligini kafolatlaydi. Tomonlar shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish uchun davlat sud(lar)ini aniq tanlagan hollarda bunday kelishuv odatda sudni aniq tanlash yoki

aniq yurisdiksiya bandi deb ataladi. Ammo turli yurisdiksiyalar mavjud bo'lgan, ayniqsa, nizo bir nechta huquq tizimlari doirasida yuzaga kelgan holatlarda ushbu prinsiplarni qo'llashdagi nomuvofiqliklar muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin (Okoli & Yekini, 2024).

Tadqiqot natijalari transchegaraviy nizolarning huquqiy yechimida huquqni tanlash prinsipining ahamiyatini yoritib, tomonlarga o'zlari tuzadigan kelishuvlarda maqbul huquqni tanlashlariga ko'maklashadi. Bu huquqiy aniqlikni oshirish, xalqaro munosabatlarda ishonchning muhim elementlarini belgilab olish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu ilmiy ish o'zaro hamohanglikdagi, ayniqsa, an'anaviy huquqni tanlash prinsipini qo'llash murakkab bo'lgan raqamli savdo bilan bog'liq holatlardagi bo'shliqlarni belgilab ko'rsatadi. Arbitraj Nyu-York konvensiyasi orqali tasdiqlangan moslashuvchanlik va majburiylik xususiyati bilan xalqaro nizolarni hal etishda muhim mexanizm sifatida e'tirof etiladi. Biroq milliy arbitraj huquqi va amaliyoti o'rtasidagi farqlar ushbu mexanizmning samaradorligini pasaytirib yuborish ehtimolini yuzaga keltiradi (Avliyoqulov, 2023).

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy sud qarorlarining bajarilishi xalqaro xususiy huquqda uzoq vaqtdan beri muammoli masala bo'lib kelmoqda. Majburlov jarayonlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan Sudni tanlash to'g'risidagi Gaaga xalqaro konvensiyasi kabi huquqiy vositalar mavjud bo'lishiga qaramay, ushbu normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishdagi sezilarli farqlar ularning amaliy ta'sirini kamaytirmoqda. Natijada huquqiy noaniqliklar mavjud bo'lgan turli yurisdiksiyalar o'rtasidagi nizolarni amaliyotda hal etish yanada murakkablashmoqda.

Xalqaro xususiy huquq xalqaro darajadagi shartnomalar, transchegaraviy harakatlar natijasida vujudga keladigan nizolarni hal qilishda muhim asos sifatida xizmat qiladi. U turli qoidalar va prinsiplarni o'z ichiga oladi,

transchegaraviy huquqiy masalalarni hal qiladi, yurisdiksiya, tegishli qonun, xorijiy sud qarorlarini tan olish va tatbiq qilish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Xalqaro iqtisodiy va shartnomaviy munosabatlar kengayib borar ekan, xalqaro xususiy huquqning ushbu munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Xalqaro xususiy huquqning maqsadi turli yurisdiksiyalar murojaat qilishi mumkin bo'lgan o'ziga xos qonun-qoidalar tizimi mavjud xorijiy elementlarni o'z ichiga oluvchi nizolarni hal qilishdir. Bu turli davlatlarga mansub tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida yuzaga keladigan transchegaraviy munosabatlarda oldindan huquqiy aniqlikni ta'minlovchi muhim huquq sohasi hisoblanadi. Nizolarning oldini olish va oqibatlarini boshqara olish funksiyasi bilan xalqaro xususiy huquq sohasi dunyo mamlakatlari fuqarolari uchun zarurdir.

Shuningdek, xalqaro xususiy huquq yuridik chegaralarni belgilashda ham muhim rol o'ynaydi. U qaysi sud nizoni ko'rib chiqishga haqli ekanligini va tomonlar o'rtasidagi shartnomaviy majburiyatga amal qilish qaysi qonun doirasida bo'lishini belgilab beradi. Bu aniqlik transchegaraviy aloqalarda muhim bo'lib, ular uchun shartnomaviy munosabatlarga kirishishdan avval taxminiy huquqiy asosga suyanish kafolatini taqdim etadi.

Asosiy qism

Mazkur tadqiqotimiz davomida transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni tartibga solishda xalqaro xususiy huquqning bir qancha prinsiplari mavjudligini ko'rishimiz mumkin: bu prinsiplar yurisdiksiya, taalluqli huquq hamda xorijiy sud qarorlarini tan olish va tatbiq qilish kabilardan iborat.

Yurisdiksiya – sudning ishlarni ko'rish va yakuniy qarorni e'lon qilish layoqati (huquqi). Transchegaraviy munosabatlarda turli xil yurisdiksiyalar ishtirok etishi sababli taalluqli yurisdiksiyani aniqlash bir muncha murakkab jarayon hisoblanadi. Xalqaro xusu-

siy huquq esa qaysi tomonning milliy qonuni qo'llanishi, shartnoma imzolangan joy qaysi davlat hududida joylashgani kabi omillarga tayangan holda taalluqli sudni aniqlash imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Yurisdiksiya aniqlab olingandan so'ng birinchi navbatda qilinadigan ish nizoni hal qilish uchun huquqni tanlash hisoblanadi. Xalqaro xususiy huquq transchegaraviy zarar keltirib chiqargan holatda unga taalluqli bo'lgan huquqiy asosni aniqlashda kollizion huquq qoidalaridan foydalanadi. Tomonlarning qonunni tanlashi tomonlarga nafaqat har qanday mamlakat qonunini, balki xalqaro shartnomalar va ularning qo'llanishini ham tanlash imkonini beradi (Gulyamov & Avliyov, 2025).

Tan olish va tatbiq qilish xalqaro xususiy huquqning samaradorligi xorijiy davlatlar sudlarining milliy darajada tan olinishi va tatbiq qilinishi bilan uzviy bog'liqdir. Xalqaro tranzaksiyalar jarayonida vujudga keladigan munosabatlar uchun boshqa yurisdiksiyalar tomonidan tan olinadigan o'z huquqiy asoslarining mavjudligi majburiyatlarga rioya qilish va huquqlar himoyasi uchun zaruriy omil hisoblanadi.

Mazkur prinsiplar xalqaro aloqalar va savdo munosabatlarini huquqiy jihatdan yanada ishonchli qiladigan barqaror muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

1. *Globallashuvning xalqaro xususiy huquqqa ta'siri.* Globallashuv jarayoni xalqaro xususiy huquqning rivojlanishiga o'zining juda katta ta'sirini o'tkazmoqda. Savdo-sotiq, ishlab chiqarish, mol ayriboshlash transchegaraviy darajaga chiqib borgani sari, uning ishtirokchilari ayro huquqiy tizimlar va bir-biridan farqlanuvchi me'yoriy-huquqiy asoslarga duch keladi. Ushbu bo'lim globallashuv qanday qilib xalqaro xususiy huquqni o'zgartirganligi va uning nizolarni hal qilishdagi o'rnini tasvirlab beradi.

Globallashuvning asosiy ta'sirlaridan biri transchegaraviy sud ish yurituvining sezilarli darajada ortishidir. Bugungi kunda kompa-

niyalar turli yurisdiksiyalar mavjudligi, shuningdek, nizoni hal etishda kichik, ammo muhim huquqiy nomuvofiqliklarni aniqlash zarurati kabi murakkabliklarga duch kelmoqda. Xalqaro xususiy huquq aynan mana shu muammolarni hal etish uchun yurisdiksiya organini aniqlash va qo'llanadigan huquqni belgilash bo'yicha aniq ko'rsatmalar ishlab chiqish orqali samarali mexanizmlarni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, globallashuv jarayoni yurisdiksiyalar o'rtasida huquqiy standartlarning muvofiqlashuvini ham rag'batlantirmoqda. Xalqaro nizomlar va konvensiyalar kabi huquqiy instrumentlarning asosiy maqsadi xalqaro xususiy huquq prinsiplari doirasida bir xillikni ta'minlash hamda nizolarni hal etishning soddaroq va barqaror mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu muvofiqlashuv, ayniqsa, bir nechta davlatlar hududida savdo-sotiq va iqtisodiy faoliyat olib boruvchi xususiy kompaniyalar uchun huquqiy oqibatlarining barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, globallashuv jarayoni xalqaro xususiy huquq sohasi mutaxassislari oldiga yangi qiyinchiliklarni ham qo'ymoqda. Turli davlatlarning huquqiy madaniyati va amaliyotidagi farqlar sababli mutaxassislar qonunlarning yurisdiksiyalararo qo'llanishi va ularning implementatsiyasi bilan bog'liq bahsli vaziyatlarga duch kelmoqda. Mazkur farqlarni aniqlash va samarali boshqarish mahalliy huquq normalari bilan bir qatorda xalqaro huquqiy standartlarni ham chuqur va tizimli ravishda tushunishni talab etadi (Imamova, 2024).

2. *Xalqaro xususiy huquq sohasidagi qiyinchiliklar.* Xalqaro xususiy huquqning muhim ahamiyatiga qaramasdan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda uning ijobiy ta'sirini cheklovchi bir qator muammolar mavjud. Xalqaro xususiy huquq chet el elementi mavjud bo'lgan murakkab munosabatlarga nisbatan qo'llanadigan kollizion tamoyillar tizimi orqali namoyon bo'lishini inobatga olgan holda,

ushbu bo'limda huquqiy kolliziya, huquqiy standartlarning xilma-xilligi hamda sud qarorlarini ijro etish bilan bog'liq muammolar muhokama qilinadi (Kaal & Painter, 2012).

Yuridik kolliziya odatda ma'lum nizoni hal qilishda bir qancha yurisdiksiyalar qo'llangan holatlarda yuzaga keladi. Oqibatda o'zlarining manfaatlariga mos keladigan yurisdiksiyani tanlashga intilishlari tomonlar o'rtasida bahsli vaziyatlarga sabab bo'ladi. Bu kabi kolliziyalar mavjud nizolarni hal qilishga bo'lgan urinishlarni qiyinlashtirishi, yechimning cho'zilishi yoki umuman nomaqbul natijalarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, yurisdiksiyalararo huquqiy standartlarning farqlanishi xalqaro munosabatlarda iqtisodiy hamkorlikka kirishda ikkilanishni yuzaga keltiradi. Shartnomani talqin qilishdagi tafovutlar, mos standartlar va ijro etish mexanizmlari muzokarlarni qiyinlashtirish, shuningdek noto'g'ri

tushunish yoki turlicha natijalarni kutish kabi nizolarni vujudga keltiradi

Ijro etish masalalari xalqaro xususiy huquq sohasidagi qiyinchiliklar orasida alohida o'rin egallaydi. Ko'plab mamlakatlarda xorijiy sudlarni tan olishning huquqiy asoslari bo'lishi bilan bir vaqtda ularni tatbiq qilish borasida bir qancha nomuvofiqliklar uchraydi. Ba'zi holatlarda mahalliy sudlar xorijiy sud qarorlarini davlat siyosati yuzasidan yoki jarayonlardagi tafovutlar sababli rad qilishi mumkin (Kramer, 2013).

3. Xalqaro xususiy huquqda Arbitrajning roli. Arbitraj xalqaro xususiy huquq sohasidagi nizolarni hal qilishda eng maqbul ko'riladigan metod hisoblanadi. Maqolaning ushbu qismida arbitrajning an'anaviy sudlov jarayonlari va nizolarni samarali hal qilishga qo'shadigan hissasi tadqiq qilinadi.

Arbitraj ayniqsa transchegaraviy nizolar jarayonida sud ish yurituvidan ko'ra bir qancha qulayliklarni taqdim etadi. Birinchi muhim omil maxfiylikdir. Arbitraj jarayonlari o'z xususiyatiga ko'ra yopiq bo'lib, iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos jihatlarining omma-

ga oshkor etilishidan himoyalangan bo'ladi. Ushbu maxfiylik tergov jarayonlarida chiqishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar obro'lariga putur yetkazishini istamagan katta kompaniyalar uchun muhim ahamiyatga egadir (Lehmann, 2020).

Shuningdek, arbitraj o'zlari uchun arbitrlarni tanlash va o'z xohishlariga ko'ra biror sohaga xos protsessual qoidalarni tanlashda tomonlarga ko'proq imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu moslashuvchanlik xususiyati o'zgarmas protsessual talablarga ega bo'lgan an'anaviy sud ishlariga solishtirganda samaraliroq jarayonlarni qo'llash imkonini beradi.

Arbitraj qarorlarining ijrosi masalasi Nyu-York konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlar bilan tartibga solinishi sababli xalqaro xususiy huquqda arbitrajning rolini yanada mustahkamlaydi. Ushbu konvensiyaga a'zo bo'lgan mamlakatlar arbitraj qarorlarini tan olish va tatbiq qilish, boshqa yurisdiksiyalarni qo'llash hamda arbitraj natijalariga bo'ysunishni istayotgan tomonlarga buning uchun maqbul mexanizmlar bilan ta'minlash majburiyatini oladi (Michaels, 2004).

4. Xalqaro xususiy huquq kelajagi. Oldinga qaraydigan bo'lsak, xalqaro xususiy huquqning kelajagi mavjud transchegaraviy iqtisodiy munosabatlar hamda texnologiyalar rivoji bilan uzviy bog'liq holda shakllanib boradi. Quyida ehtimoliy o'zgarishlar va ularning nizolarni hal etish amaliyotiga ta'siri muhokama qilinadi.

E'tibor qaratish lozim bo'lgan o'zgarishlardan biri – nizolarni hal qilish jarayonlarida texnologiyalarni qo'llashning o'sishi. Nizolarni hal etishning onlayn platformalari sudlov jarayonlari yoki arbitraj usullariga muqobil, yanada samarali yechimlarni izlayotgan tomonlar orasida tobora keng ommalashib bormoqda. Ushbu platformalar uzoq davom etadigan va katta xarajatlarni talab qiladigan sud jarayonlarini qisqartirish bilan birga, nizolar bo'yicha tezkor natijalarga erishish imkonini ham yaratadi. Biroq avtomatlash-tirish va avtonom tizimlar ko'pincha shax-

siy ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi (O'Connell & McCarthy, 2024).

Qolaversa, xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borgan sari yurisdiksiyalararo xalqaro xususiy huquq prinsiplarini o'zaro uyg'unlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar kuchayishi mumkin. Bunday urinishlar xalqaro iqtisodiy jarayonlarda huquqiy natijalarni oldindan bashorat qilish imkoniyatini oshirish bilan birga, yuridik kolliziyalarni kamaytirishni maqsad qiladi.

Shu bilan birga, madaniyatlar va huquqiy an'analar o'rtasidagi farq bilan bog'liq qiyinchiliklar saqlanib qoladi. Xalqaro xususiy huquqning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda asosiy vosita sifatida saqlanib qolishi uchun ushbu murakkabliklarni boshqarish huquq mutaxassislari, qonun ijodkorlari va yetakchi iqtisodiy soha vakillari orasida o'zaro muloqotni talab qiladi (Pistor, 2024).

5. *Xalqaro xususiy huquqda huquqiy ta'limning ahamiyati.* Bo'lajak mutaxassislarni xalqaro xususiy huquqning murakkabliklarini samarali hal qilish uchun zaruriy bilimlar bilan ta'minlashda huquqiy ta'lim juda muhim rol o'ynaydi. Maqolaning ushbu qismida ta'lim muassasalari tomonidan bilim oluvchilar orasida xalqaro xususiy huquq prinsiplari tushunchasi va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi.

Xalqaro huquqqa alohida e'tibor qarataish amaliy mashg'ulotlardan foydalanish imkoniyatlarini ham o'z ichiga olishi lozim va bu talabalarga transchegaraviy nizolar bilan bog'liq hayotiy misollarni o'rganish imkoniyatini beradi. Xalqaro xususiy huquq masalalari to'g'risida simulatsiya yoki namunaviy sud musobaqalari talabalarni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash qatorida nizolarni samarali hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Qolaversa, iqtisodiy ta'lim sohasiga oid bilimlar bilan o'zlashtirish kabi turli sohalar

nuqtayi nazaridan qarash talabalarning iqtisodiy omillarning huquqiy yechimlar bilan qanday aloqalari borligi xususidagi bilimlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu kabi umumiy ta'lim bo'lajak mutaxassislarni nafaqat huquq sohasini tadqiq qilish, qolaversa, uning kengroq iqtisodiy ahamiyatini ham tushunishga yordam beradi (Ruhl & Dorsey, 2024).

Huquq sohasida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari bilan iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish eng so'nggi iqtisodiy muammolar bilan bog'liq yechimlarni topishga ko'maklashadigan samarali natijalarni taqdim etadi. Tajribali mutaxassislar yoki tadbirkorlar orasidan taklif etiladigan ma'ruzachilar o'z tajribalarini ulashish orqali nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni xalqaro xususiy huquq sohasiga qanday tatbiq etish mumkinligini namoyon etadi.

6. *Milliy sudlar va xalqaro arbitrajlarining ahamiyati.* Milliy sudlar va xalqaro arbitrajlarining o'zaro bir-biriga ta'siri xalqaro xususiy huquqning vujudga keladigan nizolarni xalqaro miqyosda hal qiluvchi muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maqolamizning ushbu qismida har ikki usulning xalqaro xususiy huquqdagi o'rnini muhokama qilamiz.

Milliy sudlar xalqaro elementlar ishtirok etgan mahalliy darajadagi nizolarni hal etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Biroq ayrim hollarda ushbu sudlar yuridik cheklovlar va davlatlar o'rtasidagi kollizion normalar sababli muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ayrim tomonlar xalqaro shartnomalar va kelishuvlarga tayanib faoliyat yuritadigan xalqaro arbitrajlariga murojaat qilishni afzal ko'radi (Van Ho-ecke & Warrington, 2023).

Xalqaro arbitrajlar xalqaro huquq bilan bog'liq murakkab masalalarni hal etishda maxsus tajriba va bilimlarni taqdim etadi. Bu esa muammoning yechimini izlayotgan tomonlar uchun kechikishlar yoki turli huquqiy tizimlar o'rtasidagi nomuvofiqliklar sababli yuzaga keladigan qiyinchiliklarga ega bo'lgan

an'anaviy milliy sud tizimlariga nisbatan qulaylik yaratadi.

Biroq xalqaro arbitrajga bog'liqlik masalasi ma'lumotlarning ochiqligi bilan bog'liq xavotirlarni yuzaga keltiradi. Xususan, arbitraj jarayonlari bilan bog'liq xarajatlar hamda ehtimoliy korrupsiya, bir davlatni boshqasidan ustun qo'yish kabi holatlar mustaqil tashkilotlar doirasida ko'rib chiqiladigan arbitraj ishlarida noxolislik ehtimolini yuzaga chiqarishi mumkin (Van Zaten & Van der Meulen, 2024).

7. *Xalqaro xususiy huquq sohasining rivojlanishi.* Xalqaro xususiy huquq vositalari bugungi zamonaviy texnologiyalar davrida, shuningdek, savdo-iqtisodiy munosabatlarining yangi rivojlanish bosqichlarida vujudga kelayotgan turfa xil muammolar yechimlarini samarali hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy munosabatlar transchegaraviy tus olib borgan sari xalqaro xususiy huquq negizida yotuvchi muhim prinsiplarni tushunish eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Bu holat nafaqat nizolarni hal etishni kafoflatlaydi, balki bir necha muzokara bosqichlaridan o'tuvchi tomonlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'lim bilan uyg'unlashtirish jarayonining izchil davom ettirilishi xalqaro xususiy huquqning zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchan huquqiy asos sifatida samarali xizmat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Hozirgi zamonaviy jamiyatda uchraydigan muammolarning aksariyati, avvalo, turli madaniyatga ega mamlakatlarning o'ziga xos huquqiy an'analari bilan bir-biridan farqlanishi bilan izohlanadi.

Xulosa

Xalqaro xususiy huquq xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida vujudga keladigan nizolarni transchegaraviy tranzaksiyalarning murakkabligiga murojaat qiluvchi tizimli huquqiy asosga tayanib hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro iqtisodiy mu-

nosabatlar kengayib borgan sari aniq yuridik yo'riqnomalar, huquqiy hujjatlarni hamda xorijiy sudlar qarorlarini tan olish va qo'llash mexanizmlariga bo'lgan ehtiyoj juda tez sur'atlarda o'sib boradi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatib o'tdiki, xalqaro xususiy huquq faqatgina nizolarni hal qilish jarayonlarini yengillashtirishni emas, balki turli yurisdiksiyalardagi subyektlar uchun huquqiy oqibatlarini kutilganlik va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Aniq va to'g'ri tashkil qilingan huquqiy muhitni yaratish orqali, xalqaro xususiy huquq transchegaraviy munosabat ishtirokchilari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlab, ushbu munosabatlarining yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Albatta, mazkur jarayonda biz yuqorida qayd etib o'tganimizdek, nafaqat yangi normativ-hujjatlar va qonunlarni yaratish, qolaversa, yetarli darajada qo'llanmayotgan mavjud huquqiy vositalardan samarali foydalanish ustida izlanish olib borish zarur (Wong, 2024).

Ushbu tadqiqot natijasi yuridik konfliktlar va huquqiy standartlarning xilmaxilligini kamaytirish uchun xalqaro xususiy huquq prinsiplarini yurisdiksiyalararo uyg'unlashtirishga bo'lgan harakatlarning ulkan ahamiyatini ko'rsatib beradi. Shuningdek, xalqaro nizolarni hal qiluvchi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash maqsadida huquqiy ta'lim dasturlariga xalqaro xususiy huquq bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni kiritishni taklif qiladi (Xazratqulov, 2024). Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari transchegaraviy nizolarni samarali hal qilishda o'z imkoniyatlarini oshirish uchun xalqaro xususiy huquq tamoyillari va arbitraj kabi nizolarni hal qilishning muqobil metodlari bilan yaqindan tanishishi zarur. Ushbu tavsiyalarni qabul qilish va qo'llash orqali tomonlar kelib chiqishi mumkin bo'lgan transchegaraviy nizolar va ularning oqibatlarini hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelish ehtimoli kamayadi.

REFERENCES

1. Okoli, C., & Yekini, A. (2024). Implied jurisdiction agreements in international commercial contracts: A global comparative perspective. *Journal of Private International Law*, 19(3), 321–361. <https://doi.org/10.1080/1744448.2023.2294615>
2. Avliyoqulov, B. (2023). Navigating the legal landscape of robots and AI in the workplace: Challenges and solutions. *Uzbek Journal of Law and Digital Policy*, 1(3).
3. Gulyamov, S. S., & Avliyoqulov, B. B. (2025). Ish joylarida sun'iy intellektning huquqiy maqomi va xodimlarga ta'siri [The legal status of artificial intelligence in the workplace and its impact on employees]. *Miasto Przyszłości [City of the Future]*, (59), 34–40.
4. Imamova, D. (2024). Improving the legal regulation of obligation relations in international private law. *Yuridik fanlar axborotnomasi [Review of Legal Sciences]*, 3, 8–14.
5. Kaal, W. A., & Painter, R. W. (2012). Forum competition and choice of law competition in securities law after Morrison v. National Australia Bank. *Minnesota Law Review*, 133(1), 165–185.
6. Kramer, X. E. (2013). *Private law and behaviour*. In W. H. van Boom, I. Giesen, & A. J. Verheij (Eds.), *Handboek empirie en privaatrecht* (pp. 141–142). Boom Juridische Uitgevers.
7. Lehmann, M. (2020). Regulation, global governance and private international law: Squaring the triangle. *Journal of Private International Law*, 16(1), 1–25.
8. Michaels, R. (2004). *Territorial jurisdiction after territoriality*. In P. J. Slot & M. Bulterman (Eds.), *Globalisation and jurisdiction* (pp. 105–115). Kluwer Law International.
9. O'Connell, D. P., & McCarthy, S. J. (Eds.). (2024). *The handbook of global commercial dispute resolution*. Wiley Blackwell.
10. Pistor, K. (2024). The role of private law in public interest litigation: Challenges and opportunities. *Global Constitutionalism*, 10(1), 1–20.
11. Ruhl, J. B., & Dorsey, E. M. (2024). Climate change litigation: The intersection with private international law and corporate accountability. *Harvard Environmental Law Review*, 48(1), 45–78.
12. Van Hoecke, M., & Warrington, M. E. (2023). The impact of globalization on private international law: A critical analysis. *European Journal of Legal Studies*, 15(1), 50–75.
13. Van Zanten, J. H., & Van der Meulen, R. J. (Eds.). (2024). *Cross-border dispute resolution: Theory and practice*. Edward Elgar Publishing.
14. Wong, W. (2024). A principled conflict of laws characterisation of fraud in letters of credit. *Journal of Private International Law*, 19(3), 383–419.
15. Xazratqulov, O. (2024). "Lex informatica" – raqamli huquqlarni amalga oshirishning kollizion prinsipi sifatida ["Lex informatica" as a conflict principle for the enforcement of digital rights]. *Yurisprudensiya [Jurisprudence]*, 4, 71–81.

Kelib tushgan / Получено / Received: 20.01.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 13.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.02.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.1./AIS07741>
UDC: 347.23(045)(575.1)

O'ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI: KOMPENSATSIYAVIY MEXANIZMLAR

Mamadiyev Abror Abduraxmon o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Uzluksiz ta'lim bo'limi bosh mutaxassisi,
mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0007-1982-7664
e-mail: abroremamadiyev94@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning kompensatsiyaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Mamlakatda intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish tizimini yaratish innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishga oid milliy qonunchilikdagi mavjud kamchiliklar o'rganildi. Xorijiy mamlakatlar sud amaliyotidan olingan misollarda yuqori miqdordagi kompensatsiyalarning preventiv ahamiyati ko'rsatildi. Shartli kompensatsiya miqdorlarini oshirish, uchlamchi kompensatsiya institutini joriy etish, isbotlash yukini yengillashtirish, maxsus intellektual mulk sudlarini tashkil etish, sudyalor va ekspertlarni tayyorlash hamda jamiyatda intellektual mulk madaniyatini shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar berildi. Shuningdek, bu boradagi qonunchilikni takomillashtirishga oid fikrlar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, kompensatsiyaviy mexanizmlar, patent huquqi, mualliflik huquqi, savdo belgilari, shartli kompensatsiya, uchlamchi kompensatsiya, preventiv choralar, baholash standartlari

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: КОМПЕНСАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ

Мамадиев Аброр Абдурахмон угли,
самостоятельный соискатель,
главный специалист отдела непрерывного образования
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье проанализированы компенсационные механизмы защиты прав интеллектуальной собственности в Республике Узбекистан. Формирование эффективной системы защиты прав интеллектуальной собственности имеет ключевое значение для развития инновационной экономики и обеспечения соответствия международным стандартам. В рамках исследования выявлены существующие недостатки национального

законодательства, регулирующего вопросы защиты интеллектуальных прав. На примерах судебной практики зарубежных государств показано превентивное значение высоких размеров компенсаций. В работе сформулированы практические предложения, направленные на повышение эффективности компенсационных механизмов, включая увеличение размеров условной компенсации, внедрение института тройной компенсации, облегчение бремени доказывания, создание специализированных судов по интеллектуальной собственности, подготовку судей и экспертов, а также формирование культуры уважения к интеллектуальной собственности в обществе. Кроме того, выдвинуты предложения по совершенствованию законодательства в данной сфере.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, компенсационные механизмы, патентное право, авторское право, товарные знаки, условная компенсация, тройная компенсация, превентивные меры, стандарты оценки

WAYS TO IMPROVE THE SYSTEM OF PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS IN UZBEKISTAN: COMPENSATORY MECHANISMS

Mamadiev Abror Abdurakhmon ugli,

Chief Specialist of the Department of Continuing Education,
Tashkent State University of Law,
Independent Researcher

Abstract. *The article analyzes compensatory mechanisms for the protection of intellectual property rights in the Republic of Uzbekistan. The creation of an effective system for the protection of intellectual property rights in the country is of great importance in the development of an innovative economy and ensuring compliance with international standards. The study examined existing shortcomings in national legislation on the protection of intellectual property rights. Examples from the judicial practice of foreign countries showed the preventive significance of large compensations. Practical proposals were made to increase the amount of conditional compensation, introduce the institution of tertiary compensation, ease the burden of proof, create specialized intellectual property courts, train judges and experts, and form a culture of intellectual property in society. Opinions were also put forward on improving legislation in this area.*

Keywords: *intellectual property, compensatory mechanisms, patent law, copyright, trademarks, conditional compensation, case law, preventive measures, valuation standards*

Kirish

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida intellektual mulk obyektlari eng qimmatli aktivlardan biriga aylanmoqda. Manbalarda qayd etilishicha, AQShda IP-intensiv sohalar yalpi ichki mahsulotning 38 foizga yaqinini tashkil qiladi (MVIP Solutions, 2024). O'zbekiston Respublikasi ham innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonida intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish tizimini barpo etishga katta e'tibor qaratmoqda.

Shu bilan birga, intellektual mulk huquqlarining buzilishi holatlari ham tobora ko'payib bormoqda. Kontrafakt mahsulotlar

ishlab chiqarish, noqonuniy nusxa ko'chirish, patent huquqlarini rad etish kabi huquqbuzarliklar nafaqat huquq egalarining manfaatlariga putur yetkazmoqda, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Manbalarda aytilishicha, qalbaki mahsulotlar iste'molchilar, hukumatlar va intellektual mulk egalariga zarar yetkazadi. Ular 2016-yilda butun dunyo bo'ylab savdoning 3,3 foizini tashkil etgan va o'sha yili taxminan 509 mlrd dollar qiymatiga ega bo'lgan (Sharma, 2022). Ko'rinib turibdiki, kontrafakt, noqonuniy nusxa ko'chirish va patent huquqla-

rini buzish innovatorlar hamda huquq egalarining daromadlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, bu holatlar rivojlanayotgan bozorlar uchun innovatsiyani rag'batlantirishni sekinlashtiradi, investitsiyalarni qisqartiradi va soliq tushumlarini pasaytiradi. Shu munosabat bilan buzilgan huquqlarni tiklash va zararni qoplashning samarali kompensatsiyaviy mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tizimidagi kompensatsiyaviy mexanizmlarning hozirgi holatini tahlil qilish, xalqaro tajribani o'rganish va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism

Xorijiy tajriba tahlillari shuni ko'rsatadiki, intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun yuqori miqdordagi kompensatsiyalar nafaqat jabrlanuvchining zararini qoplash, balki kuchli preventiv (profilaktik) ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi. "Adidas" ishida undirilgan 305 mln dollar, "Oracle" ishidagi 1,3 mlrd dollar va "Merck" kompaniyasi ishidagi 2,54 mlrd dollar miqdoridagi tovon pullari huquqbuzarlar uchun jiddiy ogohlantirish bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida esa kompensatsiya miqdorlari xalqaro amaliyotga nisbatan ancha past darajada belgilangan. Bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 20 baravaridan 1000 baravarigacha bo'lgan oraliq nazariy jihatdan keng ko'rinsada, amalda ko'pincha minimal miqdorlar qo'llanmoqda. Natijada bu choralar huquqbuzarlar uchun yetarli darajada ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi va takroriy huquqbuzarliklarning oldini olmaydi.

Shuningdek, xorijiy tajribada kompensatsiyaning turli shakllari (haqiqiy zarar, noqonuniy olingan foyda, jarima xarakteridagi zarar) birgalikda qo'llanishi kuzatiladi. Bu yondashuv huquq egalariga to'liq va adolatli himoya kafolatini yaratadi hamda huquqbuzarlikdan olingan barcha noqonuniy foydani bartaraf etishga imkon beradi.

zarlikdan olingan barcha noqonuniy foydani bartaraf etishga imkon beradi.

Intellektual mulk huquqlarining buzilishi bilan bog'liq sud ishlarida zararlarni qoplash miqdori so'nggi yillarda keskin oshib borayotgani xorijiy davlatlar sud amaliyoti tahlilida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning buzilishi bilan bog'liq sud amaliyoti zararlarni qoplash institutining samaradorligini yaqqol ko'rsatgan. Xususan, 2008-yilda Portland shahrida ko'rib chiqilgan ishda hakamlar hay'ati "Adidas America" va uning bosh kompaniyasi – "Adidas AG" foydasiga 305 mln AQSh dollari miqdorida zarar undirish haqida qaror chiqargan. Mazkur ish "Payless Shoe-Source" kompaniyasiga qarshi qo'zg'atilgan bo'lib, undirilgan summa bir nechta zarar turlarini o'z ichiga olgan. Jumladan, 30,6 mln dollar real (haqiqiy) zarar, 137 mln dollar huquqbuzar tomonidan noqonuniy olingan foydani qaytarish (disgorged profits) hamda 137 mln dollar jarima xarakteridagi (punitive) zarar undirilgan (OregonLive, 2008).

Mualliflik huquqlarining buzilishi bilan bog'liq sud amaliyotida ham zararlarni qoplash bo'yicha juda yirik miqdordagi qarorlar mavjud. Xususan, 2010-yilda Kaliforniya shtatining Shimoliy okrugida ko'rib chiqilgan ishda hakamlar hay'ati "Oracle" kompaniyasi foydasiga 1,3 mlrd AQSh dollari miqdorida rekord darajadagi zarar undirish haqida qaror chiqardi. Ushbu ish SAP AG, "SAP America" hamda "TomorrowNow" kompaniyalariga qarshi qo'zg'atilgan bo'lib, unda "Oracle"ga tegishli dasturiy ta'minotga bo'lgan mualliflik huquqlarining buzilishi aniqlangan (Boies et al., 2010). Mazkur sud qarori, ayniqsa, dasturiy mahsulotlar sohasida mualliflik huquqlarining noqonuniy o'zlashtirilishi huquqbuzarlar uchun nihoyatda og'ir moliyaviy oqibatlarga olib kelishini ko'rsatadi hamda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishda kompensatsiyaviy mexanizmlarning muhim preventiv ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, yana bir misolda aytilishicha, 2016-yilda ko'rib chiqilgan patent huquqlarining buzilishi bilan bog'liq ishda hakamlar hay'ati "Merck & Co." kompaniyasining bo'linmasi foydasiga 2,54 mlrd AQSh dollari miqdorida tovon puli undirish haqida qaror chiqargan. Mazkur ishda "Gilead Sciences, Inc." tomonidan "Merck" kompaniyasiga tegishli patentlangan birikmadan gepatit C kasalligini davolashga mo'ljallangan "Sovaldi" va "Harvoni" dorilarini ishlab chiqarishda ruxsatsiz foydalanilgani aniqlangan. Shu bilan birga, hakamlar hay'ati huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb topgan bo'lib, bu holat AQSh Federal okrugi bosh sudyasi tomonidan zarar miqdorini uch baravargacha oshirish imkoniyatini yuzaga keltirgan. Ushbu sud qarori patent huquqlarining ongli ravishda buzilishi huquqbuzar uchun nihoyatda og'ir moliyaviy oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi hamda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishda kompensatsiyaviy mexanizmlarning preventiv ahamiyatini oshiradi (Parr, 2018).

Keltirilgan xorijiy sud amaliyoti tahlili O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham shunga o'xshash samarali kompensatsiyaviy mexanizmlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda milliy qonunchilikda belgilangan kompensatsiya miqdorlari va ularni qo'llash mexanizmlari xalqaro amaliyotdan sezilarli darajada orqada qolmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jahon Savdo Tashkiloti (JST) a'zosi sifatida TRIPS shartnomasi qoidalariga rioya qilishi lozim. TRIPS (World Trade Organization, 1994) shartnomasi sud orqali himoya choralari belgilaydi va yetarli darajadagi kompensatsiyalarni ta'minlashni talab qiladi.

Bundan tashqari, kuchli kompensatsiyaviy mexanizmlar investitsion muhitni yaxshilashga ham xizmat qiladi. Xorijiy investorlar va xalqaro kompaniyalar o'z intellektual mulkini ishonchli himoya qilinadigan mamlakatlarda faoliyat yuritishni afzal ko'radilar. Bu O'zbekiston Respublikasining innovatsion va texnologik rivojlanishga qaratilgan investitsi-

yalar uchun jalb qiluvchi mamlakat sifatidagi obro'sini oshiradi.

Shu munosabat bilan, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan qator takliflarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Qonunchilikka kiritilishi lozim bo'lgan o'zgarishlar

Yuqorida keltirilgan tahlil va xalqaro tajriba asosida quyidagi qonunchilik o'zgarishlarini taklif qilish mumkin.

Shartli kompensatsiya miqdorlarini oshirish – hozirgi minimal va maksimal miqdorlar juda past. Shuningdek, mutaxassislarning aytilishicha, qonunchilikda kompensatsiya miqdorini belgilashda juda keng oraliq mavjud – ya'ni bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 20 baravaridan 1000 baravarigacha. Bu oraliq sudlarga katta diskretsiya (erkinlik) beradi, lekin aniq mezonlar bo'lmagani sababli qarorlar bir xillikdan yiroq, ayrim hollarda esa subyektiv baholarga tayaniladi (Mamadiyev, 2025a). Patent huquqlari uchun esa yanada yuqori miqdorlar belgilanishi maqsadga muvofiq. Bu borada Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksining 1301-moddasida asarga bo'lgan mutlaq huquqni buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, o'n mingdan o'n million rublgacha, shuningdek, kodeksning 1406.1-moddasida ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasiga bo'lgan mutlaq huquqni buzganlik uchun ellik mingdan o'n million rublgacha miqdorda javobgarlik belgilangan (Russian Federation, 2006).

Uchlamchi kompensatsiya institutini joriy etish – ataylab sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun kompensatsiya miqdorini ikki yoki uch baravarga oshirish imkonini beruvchi mexanizm kiritilishi kerak. Bu, ayniqsa, takroriy huquqbuzarliklar va katta miqyosdagi huquqbuzarliklar uchun samarali bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1301-moddasida qayd etilishicha, asarning qalbaki nusxalari qiymatining ikki baravari miqdorida, asardan foydalanish huquqi qiymatining ikki baravari miqdorida,

o'xshash holatlarda odatda asardan huquqbuzar tomonidan qo'llangan usulda qonuniy foydalanish uchun undiriladigan narx asosida belgilanishi amaliyoti mavjud (Russian Federation, 2006).

Isbotlash yukini yengillashtirish – da'voga zararni isbotlashda yordam beradigan mexanizmlar joriy etilishi kerak. Masalan, huquqbuzarga o'z moliyaviy hujjatlarini taqdim etish majburiyati, sud ekspertizasini sud tomonidan tayinlash va uning xarajatlarini huquqbuzar zimmasiga yuklash kabi.

Ko'pgina davlatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi davlatlari) mualliflik huquqini buzishda jabrlanuvchi zararini isbotlash qiyin bo'lgan holatlar uchun "*statutory damages*" (ya'ni qonunda belgilangan minimal yoki maksimal kompensatsiya miqdori) instituti qo'llanadi (Mamadiyev, 2025b).

Boshqa bir muallifning ta'kidlashicha, Bolgariya, Moldova va Dominikan Respublikasida sud tomonidan statut zararlarni tayinlash faqat da'vogar haqiqiy zararlarni hisoblab chiqishning imkoni yo'qligi yoki jiddiy qiyinchiliklar mavjudligini isbotlagan taqdirda qo'llanadi. Xitoyda statut zararlari huquq egasiga faqat zararlarni miqdorini, huquqbuzarning daromadini yoki litsenziya qiymatini hisoblash imkonsiz bo'lgan holda qo'llanadi (Lukyanov, 2024).

Huquqbuzarning foydasini kompensatsiya sifatida to'lash institutini kengaytirish – qonunda aniq belgilanishi kerak bo'lgan norma shunday ifodalanishi kerak: "huquq egasi o'z zarari yoki huquqbuzarning foydasi o'rtasida tanlov qilish huquqiga ega". Bu, ayniqsa, huquqbuzar katta foyda olgan hollarda muhim sanaladi.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1301-, 1311-, 1406.1-, 1515- va 1537-moddalari mazmunidan kelib chiqib, sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilganda da'voga undirilishi kerak bo'lgan kompensatsiyani hisoblashning formulalaridan (usullaridan) birini tanlash imkoniyati berilgan (Lukyanov, 2024).

Huquqbuzar tomonidan olingan daromadni undirib olish ko'plab xorijiy huquqiy tizimlarga xosdir. Xususan, mazkur javobgarlik chorasi Fransiya (2023-y.), Italiya (2005-y.), Shveysariya (Fausten & Hammesfahr, 2012) va AQSh (1950-y.) qonunchiligida nazarda tutilgan. Shuningdek, intellektual mulk huquqlarining natijalariga bo'lgan huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik chorasi sifatida daromadni undirish imkoniyati Yevropa Ittifoqining Direktivasi (2004-y.)ning 13-moddasi 1-bandi qoidalari bilan to'g'ridan to'g'ri ruxsat etilgan.

Institutsional ishlanmalar

Qonunchilik o'zgarishlari bilan bir qatorda, institutsional ishlanmalar ham zarur:

Maxsus intellektual mulk sudlarini tashkil etish

Rivojlangan mamlakatlardagi tajribadan kelib chiqib, intellektual mulk bo'yicha ixtisoslashgan sudlar yoki sud palatalari yaratilishi maqsadga muvofiq. Bu sud qarorlarining sifatini oshiradi va bir xillikni ta'minlaydi.

Maxsus intellektual mulk sudlarini tashkil etish zarurligi ko'plab xalqaro tadqiqotlar natijasida isbotlangan. Qayd etilishicha, Xitoyda patent egalari umumiy sudlarga qaraganda intellektual mulk sudlarida ko'proq zarar uchun da'vo qilishlari va intellektual mulk sudlari ko'proq zararni qoplashlari aniqlangan (Zhang et al., 2022). Ma'lum bir yurisdiksiyada ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish qanchalik foydali yoki zarurligi intellektual mulkdan tashqariga chiqadigan bir qator omillarga bog'liq, degan xulosaga kelingan.

Shu bilan birga, ayrim mutaxassislarining aytishicha, intellektual mulk bo'yicha ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish o'z-o'zicha yetarli va mustaqil siyosiy vosita sifatida emas, balki intellektual mulk va innovatsiyalar sohasidagi umumiy siyosat vositalari majmuasidagi bir element sifatida ko'rilishi lozim. Shu bois, mazkur institut ijodkorlikni rag'batlantirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda intellektual mulk nizolarida adolatli sudlov sifatini oshirishga qaratil-

gan boshqa siyosiy vositalar bilan to'ldirilishi kerak (De Werra, 2016).

Shu sabablarga ko'ra, bosqichma-bosqich ehtiyoj va imkoniyatdan kelib chiqqan holda maxsus intellektual mulk sudlarini tashkil etish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Sudyalar va ekspertlarni tayyorlash dasturlarini rivojlantirish

Intellektual mulk bo'yicha ixtisoslashgan sud-yalar, advokatlar va ekspertlar tayyorlash tizimi yaratilishi kerak. Buning uchun xalqaro tashkilotlar (WIPO, YI) bilan hamkorlik qilish mumkin.

Masalan, *WIPO Academy* WIPOga a'zo davlatlar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, eng kam rivojlangan mamlakatlar va o'tish davridagi mamlakatlar uchun intellektual mulk bo'yicha ta'lim, o'qitish va malaka oshirish markazi hisoblanadi. Akademiya innovatsiya va ijodkorlik uchun zarur bo'lgan intellektual mulk bo'yicha insoniy salohiyatni oshirishga yordam beradi" (World Intellectual Property Organization, n.d. a).

WIPO akademiyasi akademiyaning intellektual mulk bo'yicha umumiy masofaviy o'qitish kursi (DL-101) asosida intellektual mulk bo'yicha sud ta'limini taklif etadi. Sud tizimi a'zolari uchun mavjud bo'lgan versiya turli mintaqalar va huquqiy an'analarni ifodalovchi tajribali sud-yalar hay'ati tomonidan ishlab chiqilgan va ko'rib chiqilgan.

Sudyalar uchun intellektual mulk bo'yicha masofaviy ta'lim (DL) kursi butun dunyo bo'ylab mavjud va quyidagi modullardan iborat:

1-modul: intellektual mulk (IP) huquqlariga kirish;

2-modul: mualliflik huquqi va turdosh huquqlar;

3-modul: savdo belgilari;

4-modul: patentlar;

5-modul: geografik ko'rsatkichlar;

6-modul: tijorat sirlari / oshkor qilinmagan ma'lumotlar;

7-modul: sanoat dizayni;

8-modul: IP bo'yicha boshqa mavzular (World Intellectual Property Organization, n.d. b).

Yagona baholash standartlarini ishlab chiqish

Intellektual mulk obyektlarini baholash uchun yagona metodologiya va standartlar qabul qilinishi zarur. Bunda xalqaro standartlar (ISO10668 (International Organization for Standardization, 2010), IVS 210 (International Valuation Standards Council, 2025)) hisobga olinishi kerak.

Baholash standartlari tan olingan xalqaro tizimlarga moslashtirilganda, tomonlar baholangan intellektual mulk qiymatining xolisligi va aniqligiga ishonishlari mumkin. Global standartlardan izchil foydalanish baholashlar o'rtasidagi subyektiv tarafdashliklar va nomuvofiqliklarni minimallashtiradi, ularning huquqiy sharoitlarda qonuniyligini mustahkamlaydi.

"Intellektual mulkni baholash bo'yicha global standartlarning asosini tashkil etuvchi asosiy tamoyillar izchilik, shaffoflik va betaflakni ta'kidlaydi. Ushbu tamoyillar intellektual mulkni baholashning turli yurisdiksiyalar va sohalarida ishonchli va taqqoslanadigan bo'lishini ta'minlashga qaratilgan" – deya ta'kidlanadi boshqa manbada (Legal IP Strategies, 2024).

Intellektual mulkni baholashning xalqaro standartlarini (ISO 10668 (International Organization for Standardization, 2010), IVS 210 (International Valuation Standards Council, 2025)) O'zbekiston huquqiy tizimiga joriy etish zarurati ikki asosiy omil bilan asoslanadi:

birinchidan, global investitsiya va savdo oqimlarida ishtirok etish uchun xalqaro tan olinish zarur;

ikkinchidan, milliy intellektual mulk bozorini rivojlantirish va sud amaliyotini yaxshilash uchun yagona metodologik baza kerak.

Sud amaliyotini umumlashtirish va nashr etish tizimini yaratish

Oliy Sud tomonidan intellektual mulk bo'yicha ishlarni muntazam umumlashtirish va modeli qarorlarni e'lon qilish sud amaliyotini bir xil qilishga yordam beradi.

“Amaldagi sud amaliyotini tizimli ravishda tahlil qilish, shuningdek, undan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan og‘ishlarni aniqlash va ularning oldini olish maqsadida samarali nashr yoki hisobot yuritish tizimining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi”, – deya qayd etadi yana bir manba (Consultative Council of European Judges, 2017).

“Sud qarorlarining to‘plamlarini shakllantirish g‘oyasi yangilik bo‘lmasa-da, raqamlashtirish jarayoni tufayli u alohida ahamiyat kasb etmoqda. Veb-platfomalar orqali kirish imkoniyati va qidiruv tizimlarining joriy etilishi ushbu to‘plamlarni sud amaliyotidagi og‘ishlarni aniqlash yoki ularning oldini olishga xizmat qiluvchi samarali vositaga aylantirmoqda” (Council of Europe, 2023).

Oliy Sudning qarorlari pastki sudlar uchun muhim yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi. Natijada bir xil vaziyatlarda turli sudlar bir xil huquqiy yechimga keladi.

Shuningdek, Oliy Sudning qarorlari pastki sudlar uchun muhim yo‘riqnoma bo‘lishini inobatga olsak, bir xil vaziyatlarda turli sudlar bir xil huquqiy yechimga kela oladi.

Fuqarolar va biznes vakillari sud qarorlarini oldindan taxmin qilishi mumkin bo‘ladi. Bu narsa qonunlarni talqin qilishda ham muhim omil sanaladi.

Yangi masalalar va murakkab holatlar bo‘yicha yo‘riqnoma vujudga kelib, sud amaliyotidagi qarama-qarshiliklar bartaraf etiladi. Modelli qarorlar boshqa sudlar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, intellektual mulkka oid nizoli ishlarni ko‘rib chiqib hal etishda ular zarur hisoblanadi. Chunki intellektual mulk huquqi tez rivojlanmoqda, yangi texnologiyalar va yangi huquqiy munosabatlar vujudga kelmoqda. Hozirgi kunda murakkab huquqiy masalalar ko‘p uchrayotgani sababli ularning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlash ham dolzarb sanaladi.

Intellektual mulk huquqiga bo‘lgan hurmat va madaniyatni shakllantirish

Samarali himoya tizimi nafaqat qonunchilik va institut choralari bilan, balki jami-

yatda intellektual mulk huquqlariga hurmat madaniyatini shakllantirishni ham talab qiladi:

“IP Ambassador” – jamiyat elchilari dasturini joriy etish

Mashhur blogerlar, influyencerlar, sportchilar va san‘atkorlarni IP elchilari sifatida jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Ular o‘z ijtimoiy tarmoqlarida qaroqchilikka qarshi va halol kontentni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xabarlar tarqatadilar.

Yoshlar orasida intellektual mulk madaniyatini ommalashtirish uchun zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo‘ladigan (viral) kampaniyalar yaratish kerak. Buning uchun “TikTok”, “Instagram” va “YouTube” kabi platfomalarda qisqa, qiziqarli va tushunarli videokontentlar tayyorlash lozim. Bu yondashuv an‘anaviy targ‘ibot usullariga qaraganda samaraliroq ta‘sir ko‘rsatadi.

*Blokcheyn texnologiyasi asosida IP registri-
ni yaratish*

Mualliflik huquqlarini avtomatik ravishda blokcheynda ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini joriy etish zamonaviy talab hisoblanadi. Bu raqamli asarlar (musiqa, video, dizayn) uchun darhol va shaffof himoyani ta‘minlaydi.

NFT va smart-kontrakt texnologiyalaridan foydalanib, mualliflar o‘z asarlaridan bevosita daromad olish imkonini yaratish mumkin. Bunday tizim vositachilarni kamaytiradi va mualliflarning huquqlarini yanada mustahkamlaydi.

“IP Incubator” – innovatorlar uchun inkubator markazi tashkil etish

Yoshlarning IP g‘oyalarini tijoratlashtirishga yordam beradigan maxsus inkubator yaratish zarur. Bu yerda bepul yuridik maslahat, patent yozish ko‘nikmalari va investor bilan bog‘lanish imkoniyati taqdim etiladi.

Muvaffaqiyatli loyihalarni davlat va xususiy sektor qo‘llab-quvvatlash fondi orqali moliyalashtirishi innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi. Bunday markaz startap ekotizimini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Gamifikatsiya – IP o‘yinlar va ilovalar orqali ta’lim berish

Mobil o‘yinlar va interaktiv ilovalar orqali IP tushunchalarini o‘rgatish zamonaviy va samarali usul hisoblanadi. Masalan, virtual dunyoda o‘z biznesingni qurish, patent olish va himoya qilish jarayonini simulyatsiya qiluvchi o‘yin ishlab chiqish mumkin.

Maktab va universitetlarda IP olimpiadalari va tanlovlar o‘tkazishdan g‘oliblar stipendiya va startap grantlari oladi. Bu yondashuv ta’limni qiziqarli qiladi va amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltiradi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tizimi shakllanib kelmoqda, ammo kompensatsiyaviy mexanizmlar hali to‘liq rivojlanmagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, mavjud qonunchilik bazasi umumiy tamoyillarni belgilagan bo‘lsa-da, kompensatsiya miqdorlarini aniqlash mexanizmlari aniq ishlab chiqilmagan. Shartli kompensatsiya miqdorlari juda past va preventiv ta’sir ko‘rsatmaydi. Haqiqiy zarar va yo‘qotilgan foydani isbotlash juda qiyin bo‘lib, bu huquq egalarning manfaatlarini himoya qilishni cheklaydi.

Ikkinchidan, sud amaliyotida bir xillik yo‘q va turli sudlar o‘xshash ishlar bo‘yicha

turli qarorlar qabul qilmoqda. Malakali sud-yalar va ekspertlarning yetishmasligi, yagona baholash standartlarining yo‘qligi muammo tug‘dirmoqda.

Uchinchidan, xalqaro tajriba samarali mexanizmlarni ko‘rsatadi: uchlamchi kompensatsiya, huquqbuzarning foydasini qoplash, isbotlash yukini yengillashtirish va ixtisoslashgan sudlar. Bu tajribalarni milliy qonunchilikka moslashtirgan holda qo‘llash mumkin.

Tizimni takomillashtirish uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlar taklif etiladi:

– qonunchilikka o‘zgarishlar kiritish: kompensatsiya miqdorlarini oshirish, uchlamchi kompensatsiya institutini joriy etish, huquqbuzarning foydasini qoplash mexanizmini kengaytirish;

– institutsional ishlanmalar: maxsus intellektual mulk sudlarini tashkil etish, sud-yalar va ekspertlarni tayyorlash, yagona baholash standartlarini ishlab chiqish;

– jamiyatda intellektual mulk huquqlariga hurmat madaniyatini shakllantirish, ta’lim dasturlariga tegishli kurslarni kiritish.

Ushbu choralarning amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish tizimini yaratishga, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlashga yordam beradi.

REFERENCES

1. Boies, Sch., & Flexner LLP. (2010, December). *BSF wins largest damages verdict ever awarded for copyright infringement*. <https://www.bsflp.com/news-events/bsf-wins-largest-damages-verdict-ever-awarded-for-copyright.html>
2. Code de la propriété intellectuelle. (2023). [French Intellectual Property Code]. Art. L331-1-4.
3. Consultative Council of European Judges. (2017). *Opinion No. 20 (2017) on the role of courts with respect to the uniform application of the law* (pp. 7, 9). <https://rm.coe.int/opinion-no-20-2017-on-the-role-of-courts-with-respect-to-the-uniforma/16807661e3>
4. Council of Europe. (2023). *Issues affecting the consistency of judicial decisions and best practices in securing consistency in judicial decision making*. <https://rm.coe.int/issues-affecting-the-consistency-of-judicial-decisions-and-best-practi/1680afd8a5>

5. De Werra, J. (2016). *Specialised intellectual property courts – Issues and challenges* (pp. 15–41). In *Global perspectives for the intellectual property system* (Issue 2). CEIPI-ICTSD. <https://ssrn.com/abstract=2761209>
6. EC of the European Parliament and of the Council. (2004, April). Directive 2004/48/EC of the European Parliament and of the Council on the enforcement of intellectual property rights, art. 13(1). *Official Journal of the European Union*, L 157, 45.
7. Russian Federation. (2006). Civil Code. N 230-FZ.
8. International Organization for Standardization. (2010). *ISO 10668: Brand valuation — Requirements for monetary brand valuation*.
9. International Valuation Standards Council. (2025). *IVS 210: Intangible assets*. <https://ivsc.org/standards/>
10. Italian Industrial Property Code, Legislative Decree No. 30/2005, art. 125.
11. Legal IP Strategies. (2024). *Exploring international approaches to IP valuation in intellectual property law*. <https://legalipstrategies.com/international-approaches-to-ip-valuation/>
12. Lukyanov, R. L. (2024). *Kompensatsiya sifatida fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida mutlaq huquqni buzganlik uchun* [Compensation as a measure of civil liability for infringement of exclusive rights]. [PhD Thesis]. RGUP, Moscow.
13. Mamadiyev, A. A. (2025a). *Intellektual mulkni himoya qilishda kompensatsiya institutini joriy qilish masalalari* [Issues of introducing the institution of compensation in the protection of intellectual property]. *ZDIF*, 4(23), 24–30. <https://zenodo.org/records/17286009>
14. Mamadiyev, A. A. (2025b). *Intellektual mulk huquqlarini kompensatsiyaviy himoya qilish: xalqaro amaliyot tahlili* [Compensatory protection of intellectual property rights: Analysis of international practice]. *Journal of Education, Ethics and Value*, 4(9), 256–261. <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/1567>
15. MVIP Solutions. (2024). *Measuring the impact of IP on GDP and/or economic growth: Can it be truly calculated?* <https://www.mvip.solutions/post/measuring-the-impact-of-ip-on-gdp-and-or-economic-growth-can-it-be-truly-calculated>
16. OregonLive. (2008, May). *Portland jury orders Payless to pay damages*. https://www.oregonlive.com/breakingnews/2008/05/portland_jury_orders_payless_t_1.html
17. Parr, R. L. (2018). *Intellectual property: Valuation, exploitation, and infringement damages* (5th ed., p. 401). John Wiley & Sons.
18. Fausten, T., & Hammesfahr, R. (2012). *Punitive damages in Europe: Concern, threat or non-issue?* Zurich, Switzerland: Swiss Reinsurance Company.
19. Sharma, S. (2022). *arXiv preprint*. <https://ui.adsabs.harvard.edu/abs/2022arXiv221202945S/abstract>
20. Legal Information Institute. (1950). 15 U.S.C. § 1117 — Recovery for violation of rights.
21. World Intellectual Property Organization. (n.d. a). *About WIPO Academy*. <https://www.wipo.int/en/web/wipo-academy>
22. World Intellectual Property Organization. (n.d. b). *Judicial training on intellectual property*. <https://welc.wipo.int/jtip/>
23. World Trade Organization. (1994). *Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS)*, Annex 1C of the Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization (15 April 1994).
24. Zhang, Ya-Feng & Li, Li-Ming & Xu, Ke, 2022. *Do specialized intellectual property courts show a pro-patent propensity? Evidence from China*, *International Review of Law and Economics*, Elsevier, vol. 70(C).

Kelib tushgan / Получено / Received: 12.01.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 12.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.02.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.1./XTJM9482>

UDC: 347.7(045)(575.1)

MEZONIN KAPITALNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDAGI O‘RNI VA UNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Rahmatov Azizbek Iskandar o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
Dalat xizmatlarini tahlil qilish va rivojlantirish
boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i
ORCID: 0000-0001-8590-4161
e-mail: rahmatov-azizbek95@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning an’anaviy usullari (bank krediti, lizing) moslashuvchanlik va innovatsion loyihalardagi xavfni qabul qilishda yetarli emasligi sharoitida mezonin moliyalashtirish kabi noan’anaviy, gibrid vositaning o‘rnini o‘rganishga qaratilgan. Mezonin qarz va kapital elementlarini birlashtirib, kompaniyalarga mavjud aksiyadorlik ulushini kamaytirmasdan katta hajmda kapital jalb qilish imkonini beradi va bankrotlik holatida ustuvorlikda yuqori kreditor va aksiyadorlar orasidagi o‘rta o‘rinni egallaydi. Tadqiqotning asosiy qismi mezoninning huquqiy tartibga solinishini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. AQShda bu mexanizm Yagona tijorat kodeksi va 1933-yilgi Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonun doirasida tartibga solinadi, bunda eng muhimi – mezonin kreditorning aksiya/ulush garovini tezkor va sudsiz musodara qilish huquqidir. Buyuk Britaniyada esa, “Companies Act 2006”, “Insolvency Act 1986” va “FSMA 2000” qoidalari mezoninning tuzilmaviy bo‘ysunishini tasdiqlaydi va uning professional faoliyatini litsenziyalashdan istisno qiladi. Maqolada mezonin bitimining asosiy ishtirokchilari – qarz oluvchi, yuqori kreditor va mezonin kreditor o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ularning navbati, garov obyekti (aksiyalar/ulushlar) va daromad talablari batafsil ochib berilgan. Xulosada, mezoninning O‘zbekistondagi an’anaviy moliyalash turlariga o‘xshash jihatlaridan kelib chiqib, milliy qonunchilikka tegishli normalarni implementatsiya qilish, jumladan, garovni tezkor joriy etish va xususiy investitsiyalar uchun huquqiy aniqlik berish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: gibrid kapital, mezonin moliyalashtirish, huquqiy tartibga solish, tadbirkorlik, investor, tuzilmaviy bo‘ysunish, aksiya

РОЛЬ МЕЗОНИННОГО КАПИТАЛА В ФИНАНСИРОВАНИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЕГО ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ

Рахматов Азизбек Искандар угли,
самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета,
начальник отдела Управления анализа
и развития государственных услуг
Министерства юстиции Республики Узбекистан

Аннотация. Настоящая статья посвящена исследованию роли мезонинного финансирования как нетрадиционного гибридного инструмента в условиях, когда традиционные способы финансирования предпринимательской деятельности (банковский кредит, лизинг) оказываются недостаточно гибкими и не обеспечивают готовности принимать повышенные риски, присущие инновационным проектам. Мезонин, сочетая элементы долга и капитала, предоставляет компаниям возможность привлечь значительные объёмы финансирования без размывания долей действующих акционеров, а в случае банкротства занимает промежуточное место по очерёдности удовлетворения требований между старшими кредиторами и акционерами. Основная часть исследования представляет собой сравнительный анализ правового регулирования мезонинного финансирования. В США данный механизм регулируется в рамках Единого торгового кодекса и Закона о ценных бумагах 1933 года, при этом существенным элементом выступает право мезонинного кредитора на оперативное и внесудебное обращение взыскания на залог акций/долей. В Великобритании нормы Companies Act 2006, Insolvency Act 1986 и FSMA 2000 закрепляют структурную субординацию мезонина и предусматривают исключения из требований лицензирования профессиональной деятельности в данной сфере. В статье подробно раскрываются основные участники мезонинной сделки – заёмщик, старший кредитор и мезонинный кредитор – характер их взаимосвязей, очерёдность требований, предмет залога (акции/доли), а также параметры требований к доходности. В заключении обосновывается необходимость имплементации в национальное законодательство соответствующих норм с учётом сходства мезонина с традиционными формами финансирования в Узбекистане, включая внедрение механизмов оперативного обращения взыскания на залог и обеспечение правовой определённости для частных инвестиций.

Ключевые слова: гибридный капитал, мезонинное финансирование, правовое регулирование, предпринимательство, инвестор, структурная субординация, акция

THE ROLE OF MEZZANINE CAPITAL IN FINANCING ENTREPRENEURIAL ACTIVITY AND ITS LEGAL REGULATION

Rahmatov Azizbek Iskandar ugli,
Independent Researcher at Tashkent State University of Law,
Head of Department of the Department
for Analysis and Development of State Services
of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article is aimed at studying the role of such a non-traditional, hybrid tool as mezzanine financing in the context of insufficient flexibility and risk acceptance in innovative projects of traditional methods of financing entrepreneurial activity (bank credit, leasing). Mezzanine, combining elements of debt and capital, allows companies to attract large amounts of capital without reducing the existing share of shareholders and occupies a middle position among the top creditors and shareholders in terms of priority in the event of bankruptcy. The main part of the research consists of a comparative analysis of the legal regulation of the criterion. In the USA, this mechanism is regulated within the framework of the Uniform Commercial Code and the Securities Act of 1933, the most important of which is the criterion — the creditor’s right to immediate and out-of-court confiscation of the pledge of shares/stakes. In Great Britain, the “Companies Act 2006,” “Insolvency Act 1986,” and “FSMA 2000” rules confirm the structural subordination of the criterion and exclude its professional activity from licensing. The article details the relationship between the main participants of the mezzanine transaction — the borrower, senior creditor, and mezzanine creditor — their sequence, collateral object (shares/stakes), and income requirements. In conclusion, based on the similarities of the criterion with traditional types of financing in Uzbekistan, the need to implement relevant norms

into national legislation, including the prompt introduction of collateral and providing legal clarity for private investments, is substantiated.

Keywords: *hybrid capital, mezzanine financing, legal regulation, entrepreneurship, investor, structural subordination, share*

Kirish

Bugungi kunda dunyo moliya bozoridagi tendensiyalar, ayniqsa, kichik va o'rta biznesning ehtiyojlaridan kelib chiqib, qarz va kapitalning afzalliklarini birlashtirgan yangi moliyalashtirish vositalariga ehtiyoj ortmoqda. Gibrid moliyalashtirishning asosiy xususiyati shundaki, investor dastlab qarz beruvchi sifatida qat'iy foiz daromadini oladi, ammo kelajakda kompaniyaning o'sishiga qarab, ushbu qarzni aksiyaga aylantirish huquqiga ega bo'ladi.

AQShda startaplar konvertatsiya qilinadigan zayomlar (convertible loans) orqali venchur kapitalni faol jalb qilsa, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya kabi rivojlangan bozorlarda yirik korporatsiyalar konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar yordamida kapital bazasini kengaytirmoqda. Gibrid instrumentlar nafaqat kompaniyalar uchun qulaylik yaratadi, balki investorlarga ham yuqori daromad va pastroq xatarlarni taklif qiladi.

Ushbu tendensiyalar gibrid moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganish va ularni milliy qonunchilikka joriy etish, huquqiy tartibga solish jarayonida har ikkala tomonning huquqlarini himoya qilish uchun zarur choralar ko'rishni talab etadi.

Mazkur maqola tadqiqot sifatida turli manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, amaliyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, mezonin moliyalashning turli davlatlarda tartibga solinishi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, moliyalashtirishning ushbu yangi mexanizmini amaliyotga keng joriy etish, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha xulosalar berilgan. Bu xulosalarning amalga oshishi tadbirkorlarning o'z faoliyatini amalga oshirishda mustahkam moliya-

viy-huquqiy yechimlarning vujudga kelishi, shuningdek, investorlarning huquqlari kafoflatlanib, ular hamda tadbirkorlar o'rtasida ishonch muhitini yaratish kabi maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning bank krediti, lizing va faktoring kabi an'anaviy usullari hozirda ham biznesni rivojlantirishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Ularning asosiy afzalligi barqarorlik, aniq qoidalar va keng tarqalganlikdir. Biroq bugungi kundagi tez o'zgaruvchan, raqamlashgan va innovatsiyalar rivojlangan davrda ularning moslashuvchanlik va tezkorlik borasidagi kamchiliklari ko'zga tashlanmoqda.

Aynan shu kamchiliklar sababli noan'anaviy moliyalashtirish, xususan, gibrid mexanizmlar bugungi kunda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bular o'zlarida ham qarz majburiyatlari, ham kapitalda ishtirok etish vositalari elementlarini birlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar desak to'g'ri bo'ladi.

Rivojlangan davlatlarda gibrid moliyalashning eng keng tarqalgan turlaridan biri bu mezonin moliyalashtirish hisoblanadi. Mezonin – bu ham qarz, ham to'g'ridan to'g'ri investitsiya xususiyatlariga ega bo'lgan moliyalashtirish turi. Unga ko'ra, investor, odatda, kompaniya kapitaliga kirmaydi, balki uni rivojlantirish uchun qarz majburiyatlari orqali mablag' taqdim etadi, shu bilan birga, kelajakda qarz oluvchining aksiyalarini oldindan belgilangan narxda sotib olish huquqiga ega bo'ladi (Pirkova, 2017).

Mezonin moliyalashtirish (Mezzanine financing) AQShda 1980-yillarda paydo bo'lgan bo'lsa, Rossiyada birinchi mezonin moliyalashtirish fondi 2009-yilda "Volga River Credit Opportunity" nomi bilan tashkil etilgan (Mokina & Strelnikov, 2017).

AQShda mezonin bozori ancha rivojlangan va standartlashtirilgan bo'lib, unda ko'proq xususiy kapital firmalari faoliyat yuritadi. Yevropa bozorida esa, mezonin moliyalashtirish ko'proq tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu moliyalashning ijobiy jihatlari shundaki, mezonin kreditorlar bankka qaraganda kamroq garov talab qiladi, chunki ular riskni kompaniyaning kelajakdagi daromadlari hisobidan qoplashni mo'ljallaydi. Bundan tashqari, kompaniya aksiyalarining katta ulushini sotmasdan, katta miqdordagi kapitalni jalb qilish imkonini beradi (Strelnikov, 2017).

Mezonin moliyalashning yana bir o'ziga xos xususiyati, korxonada bankrotlik holatida mezonin qarzni qoplash o'rta bosqichdagi zarurat deb hisoblanadi. Ya'ni majburiyatni ta'minlash birinchi navbatda bank kreditlariga, ikkinchi navbatda mezonin qarzlarga, so'ngra aksiyadorlarning talabiga qaratiladi (Chernikov, 2024).

Professor Jeyms Fosettning fikricha, bu bitimlardagi asosiy huquqiy muammo "kreditorlar iyerarxiyasi"dir. Mezonin qarz beruvchi, odatda, yuqoridagi kreditorlarga nisbatan (masalan, banklarga) past darajadagi himoyaga ega. Shu sababli huquqiy hujjatlarda to'lovlarga oid barcha tartib-qoidalar va ehtimoliy bankrotlik holatlaridagi huquqlar aniq ko'rsatilishi kerak (Fawcett, 2010).

Mezonin moliyalashtirish dastlab bozor amaliyotida paydo bo'lgan va keyinchalik aksariyat rivojlangan mamlakatlarning (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya) qonunchiligida o'z aksini topgan. AQShda mezonin bitimlari "Uniform Commercial Code" (Uniform Commercial Code, 1953), ya'ni Yagona tijorat kodeksi hamda 1933-yilgi Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun (Securities Act, 1933) bilan tartibga solinadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida mezonin moliyalashtirishga oid maxsus qonunlar mavjud emas. Uning huquqiy jihatlari asosan fuqarolik kodekslari, tijorat qonunchiligi va investitsiya fondi faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar doirasida tartibga solinadi.

Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksiga asosan, mezonin moliyalashtirishda dastlab qarz shartnomasi, so'ngra opsiya shartnoma imzolanadi. Opsiya shartnomada investorning subyektga tegishli aksiya yoki ulushlarni olish tartibi belgilanadi (Chernikov, 2024).

Moliyalashni rasmiylashtirish jarayonlari ham qolgan investitsiya turlarini rasmiylashtirishga o'xshab ketadi. Xususan, mablag'ga ehtiyoji bo'lgan korxonada dastlab mezonin fondga ariza beradi. Fond kompaniyaning moliyaviy holati, biznes modeli va o'sish istiqbollari chuqur tahlil qiladi. Fond va kompaniya moliyalashtirish shartlari, jumladan, foiz stavkasi, to'lov muddati va kapitalga kirish shartlari bo'yicha kelishib oladi. Kelishuvga erishilgandan so'ng, fond mablag'larni kompaniyaga o'tkazadi. Kompaniya kelishilgan muddat davomida foiz to'lovlari amalga oshiradi va belgilangan muddatda asosiy qarzni qaytaradi. Agar kompaniya sotilsa yoki IPOga chiqsa, fond o'z ulushini sotish orqali foyda ko'radi (Sazonov, 2016).

L. Tetrenova va J. Svedik mezonin moliyalashtirishni 2 xil turga bo'ladi: xususiy (subordinatsiyalangan qarzlarga, sindikatlashgan qarzlarga, "yashirin" ishtirok) va ommaviy mezonin (Tetrenova & Svedik, 2018).

"Leach and Melicher" (2014) ham ommaviy mezonin vositalari sifatida konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar, opsiya obligatsiyalar va imtiyozli aksiyalarni keltiradi.

Hozirgi vaqtda mezonin moliyalashtirish amaliyotida quyidagi shakllarda qo'llanilmoqda (Lurie & Melikhov, 2013):

1) mezonin qarzi. AQShda odatda ta'minlanmagan shaklda, G'arbiy Yevropada esa subordinatsiyalangan shaklda bo'ladi. Subordinatsiya shuni anglatadiki, kreditorga mulkni keyinchalik ushlab qolish yoki garovga qo'yish huquqi beriladi, ya'ni birinchi navbatda yuqori kreditning manfaati ko'zlanadi;

2) investorning "oshkor qilinmaydigan" ishtiroki bilan moliyalashtirish. Bunda inves-

tor qarz oluvchi kompaniyaning aksiyalarini sotib oladi, lekin kompaniyaning kreditorlari oldida hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi;

3) konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar chiqarish orqali ta'minlangan moliyalashtirish. Bu obligatsiyalar foizlarning qat'iy to'lovlarini va moliyalashtirish muddati tugaganda asosiy qarzni qaytarishni nazarda tutadi;

4) imtiyozli aksiyalar chiqarish orqali ta'minlangan moliyalashtirish. Bunda qarz oluvchi kompaniyaning imtiyozli aksiyalari chiqariladi. Bunday aksiyalar kompaniyaning boshqa aksiya egalari nisbatan foydada ishtirok etishda va tugatish qiymatida imtiyozli huquqlarni beradi.

Mezonin moliyalashtirish tuzilmasida uch asosiy taraf mavjud:

- qarz oluvchi kompaniya (borrower/issuer): moliyalashtirish olayotgan kompaniya;
- yuqori kreditor (senior lender): eng xavfsiz qarz beruvchi, moliyalashtirish tuzilmasida eng yuqori ustuvorlikka ega bo'lgan tomon;
- mezonin kreditor (mezzanine lender): subordinatsiya qilingan (ikkilamchi) qarz beruvchi.

Kreditor va qarzdor kompaniya o'rtasida qarz shartnomasi imzolanganach ushbu shartnoma kompaniyaning aksiyalari yoki ulushlari bilan ta'minlanadi, ya'ni qarzlar qaytarilmasa, aksiyalar ustidan nazoratni qo'lga oladi.

Ikkala kreditor o'rtasidagi huquqiy munosabatlar kreditorlararo kelishuv (Intercreditor agreement) deb nomlangan huquqiy hujjatda aniq belgilanadi. Bu kelishuv mezonin kreditorning yuqori kreditoridan keyin to'lov olishini, shuningdek, "defolt" holatida mezonin kreditorning nazoratni qo'lga kiritish huquqi yuqori kreditorning huquqlariga qanday bo'ysunishini belgilab beradi.

Mezonin kreditorlar odatda yuqori kreditor (bank) kabi oddiy moliya instituti emas, balki ixtisoslashgan investitsion fondlardir. Mezonin kreditorlar o'z mablag'larini xususiy

kapital fondlari yoki maxsus mezonin fondlaridan oladi. Bu fondlar esa, o'z navbatida investorlar (masalan, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, yirik korporatsiyalar yoki juda boy shaxslar) tomonidan kiritilgan kapitalni boshqaradi (Silbernagel & Vaitkunas, 2010).

Mezonin moliyalashtirishni tartibga solish bo'yicha turli davlatlarning qonunchiligida turli normalar belgilangan. Xususan, Buyuk Britaniyada mezonin moliyalashtirish asosan umumiy huquq (common law) va quyidagi qonunlar bilan tartibga solinadi:

Jadval

Buyuk Britaniyada mezonin moliyalashtirishni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari

| Asosiy qonun/qoida | Mezoninga aloqasi |
|---|--|
| To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonun (Insolvency Act 1986) (Insolvency Act, 1986) | Kompaniya bankrotlik holatiga tushganda, kreditorlarning, ayniqsa, mezonin kreditorning ustuvorlik tartibini va garovni joriy etish (musodara) jarayonini belgilaydi. Mezonin kreditorining asosiy qarz beruvchidan keyingi o'rnini aynan shu qonun doirasida himoya qilinadi. |
| Umumiy huquq (Common Law) qoidalari | Mezonin bitimi (qarz shartnomasi)ning amal qilishi, "kovenant"lar (majburiyatlar) va "defolt" shartlarini tartibga soladi. Buyuk Britaniyada huquqlarning "egalik" yoki "nazorat" orqali emas, balki shartnomada aniq yozilganligi asosida belgilanishini tasdiqlaydi. |
| Companies Act 2006 (Companies Act, 2006) | Aksiyadorlik ulushi (Equity kicker) va direktorlarning majburiyatlarini belgilaydi. |
| Yerni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qonun (Land Registration Act 2002) | Agar mezonin bitimi ba'zi hollarda bevosita ko'chmas mulkka ham tegishli bo'lsa, bu qonun ko'chmas mulk garovining ro'yxatdan o'tkazilish tartibini belgilaydi. |
| Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to'g'risidagi qonun (FSMA 2000) | Mezonin moliyalashtirishidagi aksiyalar bilan bog'liq muayyan moliyaviy operatsiyalar va investorlarni himoya qilish talablarini qisman tartibga solishi mumkin. |

AQShda mezonin moliyalashtirishdagi eng muhim huquqiy xatarlardan biri – bu AQSh Bankrotlik kodeksining 510-moddasida (United States Code, 1984) belgilangan “Adolatli subordinatsiya” doktrinasidir.

Kodeksning ushbu bandi sudga keng va-kolat beradi. Unga ko‘ra, talab dastlab yuqori navbatda turgan bo‘lsa ham, sud uni pastki navbatga o‘tkazib yuborishi mumkin. Natijada mezonin kreditorning talabi hatto garovga olinmagan boshqa kreditorlar talablaridan ham pastga tushib ketishi mumkin.

Anglo-sakson huquq tizimidagi (AQSh, Buyuk Britaniya) mezonin moliyalashtirish asosan garov ta‘minotiga va “qarz” (debt) tabiatiga asoslangan bo‘lsa, kontinental huquq oilasiga mansub Germaniya qonunchiligida ushbu vosita “korporativ hamkorlik” va “majburiyat huquqi” kesishmasida tartibga solinadi.

Germaniyada mezonin moliyalashtirishning huquqiy asosi maxsus qonun bilan emas, balki Germaniya Savdo kodeksi (Handelsgesetzbuch, 2024) normalari orqali belgilangan ikki asosiy vosita: “jim” sheriklik (Stille Gesellschaft) va foydada ishtirok etish huquqi (Genussrechte) orqali amalga oshiriladi.

Germaniyada mezonin kapitalini jalb qilishning eng keng tarqalgan shakli – bu Savdo kodeksining 230–237-moddalarida tartibga solingan “jim” sheriklikdir. Ushbu modelning mohiyati shundaki, investor kompaniyaga sarmoya kiritadi, ammo tashqi uchinchi shaxslar (kreditorlar yoki mijozlar) uchun ko‘rinmas bo‘lib qoladi.

230-moddaga ko‘ra, “jim” sherik (mezonin investor) tomonidan kiritilgan sarmoya to‘liq tadbirkorning (kompaniyaning) mulkiga o‘tadi. AQSh modelidan farqli o‘laroq, bu yerda investor kompaniya aktivlariga nisbatan “garov huquqi”ga ega bo‘lmaydi, balki kompaniyaning ichki sherigiga aylanadi.

236-moddaga binoan, kompaniya to‘lovga layoqatsiz deb topilganda, mezonin investor (agar uning sarmoyasi zararlar tufayli to‘liq yo‘qolmagan bo‘lsa) qolgan mablag‘ini talab

qilib, kreditor sifatida chiqishi mumkin.

Mezonin moliyalashtirish nuqtayi nazaridan quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) boshqaruv huquqining yo‘qligi: bu xususiyat kompaniya nazoratini o‘z qo‘lida saqlab qolishni istagan ta‘sischilar uchun ayniqsa jozibadordir;

2) mulkiy huquqlarning ustuvorligi: gar-chi boshqaruv huquqi bo‘lmasa-da, investor xuddi aksiyador kabi kompaniyaning sof foydasidan ulush olish huquqiga ega bo‘ladi;

3) kapitalni qaytarish: shartnoma mud-dati tugagach, investor kiritgan sarmoya-sini nominal qiymatda (ba‘zan qo‘shimcha mukofot bilan) qaytarib olish huquqiga ega bo‘ladi.

“Genussrechte” oddiy qarz majburiyatiga aylanib qolmasligi va mezonin maqomini olishi uchun shartnomaga maxsus subordi-natsiya bandi kiritiladi. Ushbu bandga ko‘ra, kompaniya to‘lovga layoqatsizlik holatiga tushib qolganda, “Genussrechte” egasining talablari barcha boshqa kreditorlar (banklar, ta‘minotchilar) talablari qondirilgandan keyingina, ammo aksiyadorlardan oldin qa-noatlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Germaniya qonun-chiligi mezonin moliyalashtirishni qat‘iy ga-rov va musodara (AQSh modeli) mexanizmi orqali emas, balki investor va tadbirkor o‘rta-sidagi moslashuvchan shartnomaviy munosa-batlar orqali tartibga solish yo‘lidan borgan. Bu esa, O‘zbekiston kabi kontinental huquq tizimiga mansub davlatlar uchun alternativ huquqiy yechimlarni taklif etadi.

Germaniyaning “Genussrechte” modeli O‘zbekiston qonunchiligi uchun muhim ahamiyatga ega. Sababi ushbu vosita yangi qonun qabul qilishni talab qilmaydi, balki mavjud Fuqarolik kodeksi doirasidagi “shartnoma erkinligi” tamoyili orqali amalga oshirilishi mumkin. Xususan, O‘zbekistonda “Foydada ishtirok etuvchi obligatsiyalar” yoki maxsus “Investitsion qarz shartnomalari”ni joriy etishda “Genussrechte” tajribasidan

foydalanish mumkin. Bunda investorlarga ovoz berish huquqini bermagan holda, ularga kompaniya foydasidan yuqori dividend olish huquqini kafolatlovchi va bankrotlikda subordinatsiya qilingan mexanizmni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan davlatlarda mezonin moliyalashtirish bozorining barqarorligi nafaqat bitim shartlarini, balki kapital egalari – investitsiya fondlari faoliyatini tartibga solish orqali ham ta'minlanadi. Bu borada Yevropa Ittifoqining 2011-yil 8-iyundagi 2011/61/EU sonli "Muqobil investitsiya fondlarini boshqaruvchilar to'g'risida"gi direktivasi (European Parliament & Council of the European Union, 2011) (Alternative investment fund managers directive – AIFMD) eng muhim huquqiy hujjat hisoblanadi.

Direktivaning 26–30-moddalari mezonin va xususiy kapital fondlarining faoliyatiga aniq cheklovlar o'rnatuvchi asosiy normalar hisoblanadi. Bu normalarning asosiy mohiyati "24 oylik muzlatish" davrini joriy etishdan iborat. Investor kompaniya ustidan nazoratni qo'lga kiritgan kundan boshlab, keyingi 2 yil (24 oy) davomida kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlarni amalga oshirishi qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

Shuningdek, ushbu davrda mezonin fondlari yoki ular boshqaruvchilari bo'lgan kompaniyalar quyidagi uchta asosiy moliyaviy qarorni qabul qilishi man etiladi: kapitalni kamaytirish, aksiyalarni qaytarib sotib olish, katta miqdorda dividendlar tarqatish.

Xulosa

Mezonin moliyalashtirishning samarali faoliyati uch asosiy ustunga tayanadi: qonuniy tartibga solish, shartnomaviy standartlashtirish va institutsional nazorat.

5. European Commission. (2025). *Law on Artificial Intelligence (AI Law)*. <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/regulatory-framework-ai>

6. European Parliament Parliamentary Research Service. (2021). *Responsibility of online platforms*. European Parliament. [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2021/656318/EPRS_STU\(2021\)656318_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2021/656318/EPRS_STU(2021)656318_EN.pdf)
7. European Union. (2024). *Directive (EU) 2024/2853 of the European Parliament and of the Council of 23 October 2024 on liability for defective products*. Official Journal of the European Union. <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2024/2853/oj>
8. Fairgrieve, D., Bush, K., & Erdem-Buyuksagis, E. (2024). Product liability and online markets: Comparison and reform. *International and Comparative Law Quarterly*, 73, 1–28. <https://doi.org/10.1017/S0020589324000046>
9. Filatova-Bilous, N. (2021). Once again platform liability: On the edge of the Uber and Airbnb cases. *Internet Policy Review*, 10(2). <https://policyreview.info/articles/analysis/once-again-platform-liability-edge-uber-and-airbnb-cases>
10. Hua, H., & Spear, K. E. (2025). Platform responsibility. *American Economic Journal: Microeconomics*, 17(4), 68–101. <https://doi.org/10.1257/mic.20230282>
11. Khambatta, D. (2021, September 22). Product liability risks for online marketplaces: An international comparison of litigation profiles. *Kennedys Law*. <https://www.kennedyslaw.com/en/thought-leadership/article/product-liability-risks-for-online-marketplaces-an-international-comparison-of-litigation-profiles/>
12. Kirk, D., & Cullen, E. (2020). Liability in online marketplaces: Judgment of the Court of Justice of the European Union in the *Coty v. Amazon* case. *Intellectual Property & Technology Law Journal*, 32(6). <https://www.lw.com/admin/upload/SiteAttachments/IPTLJ%20article%20-%20Online%20Marketplace%20Liability.pdf>
13. Lashina, A. V. (2026). Elektronnaya kommertsiya kak obyekt pravovogo regulirovaniya [Electronic commerce as an object of legal regulation]. *Legal Science: History and Modernity*. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38577939>
14. Lefuili, J., & Madio, L. (2022). The economics of platform liability. *European Journal of Law and Economics*, 53(3), 319–351. <https://doi.org/10.1007/s10657-022-09728-7>
15. Onianova, A. (2025). Responsibility of the markets: A comparative analysis of legal approaches in the USA and France. *Digital Law Journal*, 5(3), 66–82. <https://doi.org/10.38044/2686-9136-2024-5-3-2>
16. Republic of Uzbekistan. (2022). Law “On Electronic Commerce”. *Lex.uz*. <https://lex.uz/ru/docs/6213428>
17. Ruzinazarov, Sh. N., Achilova, L. I., & Rakhmonkulova, N. (2023). Classification of types (business models) of electronic commerce and participating entities. *AIP Conference Proceedings*. <https://doi.org/10.1063/5.0147704>
18. Sørensen, M. J. (2018). Intermediary platforms – the contractual legal framework. *Nordic Journal of Commercial Law*, (1), 62–90. <https://journals.aau.dk/index.php/NJCL/article/download/2485/1967/8455>
19. Tashkent times. (2026). Foreign-based marketplaces and streaming services to be required to register in Uzbekistan. *The Tashkent Times*. <http://www.tashkenttimes.uz/national/14397-foreign-based-marketplaces-and-streaming-services-to-be-required-to-register-in-uzbekistan>
20. UzDaily.uz. (2026, January 6). Uzbekistan is preparing new rules for marketplaces and digital platforms. <https://www.uzdaily.uz/ru/v-uzbekistane-gotoviat-novye-pravila-dlia-marketpleisov-i-tsifrovoykh-platform/>
21. Yakovenko, A. (2021). On the issue of civil law regulation of electronic commerce in the Republic of Uzbekistan. *Scientific Journal* (6), 181–192.

Kelib tushgan / Получено / Received: 13.12.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 10.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.02.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.1./IKBW8717>
UDC: 347:338.43(045)(575.1)

QISHLOQ XO'JALIGI SOHASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Isanov Xolmurod Ruziyevich,
Toshkent davlat agrar universiteti
Huquqshunoslik kafedrasida dotsenti,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0009-0003-2313-4730
e-mail: isanov59x@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi sohasini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq muammolar ilmiy tahlil qilingan. Xususan, qishloq xo'jaligi sohasining asosiy subyektlari hisoblangan fermer xo'jaliklari va klasterlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar tizimi, ushbu subyektlarning huquq va majburiyatlari, ularning huquqiy maqomi va javobgarligi to'g'risida huquqshunos olimlar bildirgan ilmiy-nazariy qarashlar, shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasiga oid Yevropa Ittifoqi va milliy qonunchilik normalari tahlil qilingan. Milliy huquq doktrinasida fermer xo'jaliklari va klasterlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning huquqiy tabiati har tomonlama tadqiq etilmagani, ushbu subyektlar faoliyatiga davlat organlarining noqonuniy aralashishlari mavjudligi, klasterlar huquqiy maqomiga nisbatan yagona yondashuvning shakllanmagani, fermer xo'jaliklari huquqiy himoyasini kuchaytirish, xususan, ularning mol-mulki daxlsizligini kafolatlashga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish lozimligi to'g'risida fikrlar bildirilgan. Klasterlar faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan "Klasterlar va klaster faoliyati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish, shuningdek, ushbu qonunda klaster tushunchasi, uning faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tartib-taomillari, huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, shuningdek, klaster ta'asischilari tarkibini belgilash va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi subyekti, klaster, fermer xo'jaligi, tadbirkorlik subyektlari, davlat organlari, huquqiy maqom, huquqiy tartibga solish

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ СФЕРЫ

Исанов Холмурод Рузиевич,
доктор юридических наук, доцент кафедры «Правоведение»
Ташкентского государственного аграрного университета

Аннотация. В статье проведён научный анализ проблем, связанных с правовым регулированием сферы сельского хозяйства. В частности, исследуется система правовых отношений между фермерскими хозяйствами и кластерами как основными субъектами аграрной сферы, их права и обязанности, правовой статус и ответственность, а также научно-теоретические взгляды учёных-юристов по данным вопросам. Наряду с этим анализируются нормы национального законодательства и законодательства Европейского

союза, регулирующие сферу сельского хозяйства. Отмечается, что в национальной правовой доктрине недостаточно комплексно исследована правовая природа отношений, возникающих между фермерскими хозяйствами и кластерами, сохраняются случаи незаконного вмешательства государственных органов в деятельность указанных субъектов, отсутствует единый подход к определению правового статуса кластеров. Обосновывается необходимость усиления правовой защиты фермерских хозяйств, в частности создания эффективных правовых механизмов, направленных на гарантирование неприкосновенности их имущества. Сформулированы выводы о целесообразности принятия закона «О кластерах и кластерной деятельности», направленного на совершенствование правовых основ функционирования кластеров, а также о необходимости закрепления в нём понятия кластера, порядка организации и осуществления его деятельности, правового статуса, прав и обязанностей, состава учредителей кластеров и регулирования отношений между ними.

Ключевые слова: сельское хозяйство, субъект сельского хозяйства, кластер, фермерское хозяйство, субъекты предпринимательства, государственные органы, правовой статус, правовое регулирование

PROBLEMS OF IMPROVING THE LEGAL REGULATION OF THE AGRICULTURAL SECTOR

Isanov Kholmurod Ruzievich,

Associate Professor of the Department of Law,
Tashkent State Agrarian University,
Doctor of Science in Law

Abstract. In this article, problems related to the legal regulation of the agricultural sector are scientifically analyzed. In particular, the system of legal relations between farms and clusters, which are the main subjects of the agricultural sector, the rights and obligations of these subjects, the scientific and theoretical views expressed by legal scholars on their legal status and responsibility, and the norms of the European Union and national legislation in the field of agriculture were analyzed. In the doctrine of national law, opinions are expressed about the lack of a comprehensive study of the legal nature of relations arising between farms and clusters, the presence of illegal interference of state bodies in the activities of these entities, the lack of a unified approach to the legal status of clusters, and the need to create effective legal mechanisms aimed at strengthening the legal protection of farms, in particular, guaranteeing the inviolability of their property. Conclusions have been developed on the adoption of the Law "On Clusters and Cluster Activities," aimed at improving the legal framework for the activities of clusters, as well as the definition of the concept of a cluster in this law, the procedures for organizing and carrying out its activities, its legal status, rights, and obligations, as well as the composition of the founders of the cluster and the regulation of relations between them.

Keywords: agriculture, agricultural entity, cluster, farm, business entities, state bodies, legal status, legal regulation

Kirish

Qishloq xo'jaligi sohasi iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy tarmoqlardan biri bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotiga (Food and Agriculture Organization) ko'ra, qishloq xo'jaligi subyekti

hisoblangan fermer xo'jaliklari, xususan, oilaviy fermerlar, ochlikni yo'qotishda haqiqiy muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsa, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat tizimlarini o'zgartirishga qaratilgan sa'y-harakatlar markazida bo'lishi lozim. Zero, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda oilaviy dehqonchilik qishloq xo'jaligi faoliyatining asosiy shakli sifatida qiymat jihatidan jahon oziq-ovqat mahsulot-

larining 80 foizini ishlab chiqarmoqda (Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2019). Dunyo aholisi har soniyada 3 kishiga ko'payib borayotgani va 2050-yilga borib, Yer yuzida 10 milliardga yaqin aholi yashashini hisobga olganda, uni xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bevosita qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga bog'liq (Bayer, n.d.).

O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati ham ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanganlik va samaradorlik darajasiga bog'liq bo'lib, uning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, paxtachilik, chorvachilik va bog'dorchilik kabi tarmoqlarni rivojlantirish asosida sanoatning xomashyoga bo'lgan talablarini qondirish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qo'shadigan hissasi bilan belgilanadi. Shu sababli keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmogda va bu islohotlarning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi sohasida haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, erkin bozor munosabatlariga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishni amalga oshirish va uning samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilmogda.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning agrar siyosati aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligining umummilliy daromad yaratishdagi hissasini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilish birga mamlakat aholisining yildan yilga ko'payib, oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani qishloq xo'jaligi sohasida bir qator huquqiy islohotlarni ham amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmogda. Zero, qishloq xo'jaligi sohasini huquqiy tartibga solishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mahsulotlarni yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish bo'yicha subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlashga erishish mumkin. Bu esa ushbu sohaga xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq jalb qilish,

yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, yerlar unumdorligi va hosildorligini oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi sohasi, xususan, fermer xo'jaliklarining rivojlantirish darajasiga bog'liq bo'lib, mamlakatimizda umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning 29,8 foizi qishloq xo'jaligi sohasining asosiy subyektiga aylangan fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmogda (Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan, 2023). Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi sohasining faol subyektlari sifatida mamlakat oziq-ovqat fondini shakllantirish, oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati uchun xomashyo yetkazib berish, shuningdek, aholini ish joylari bilan ta'minlash funksiyalarini bajarmogda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish maqsadlarida 2030-yilgacha bo'lgan davr mobaynida oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni 6 milliard dollardan 12 milliard dollarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hajmini 8 foizdan 25 foizga, umumiy eksport hajmida qayta ishlangan mahsulotlar ulushini 494 million dollar (31%)dan 1 milliard dollar (40%)ga yetkazish nazarda tutilgan (Jumayev, 2023). Biroq qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga to'siq bo'layotgan xavf-xatarlar mavjud bo'lib, bular mazkur sohani rivojlantirishdagi nomutanosibliklar, suv resurslarining tanqisligi, qo'shimcha qiymat yaratishning samarasiz zanjirlari, logistika tizimidagi uzilishlar hamda fermer xo'jaliklari faoliyatiga davlat organlari va klasterlarning noqonuniy aralashish holatlarida namoyon bo'lmogda. Bunday holatlar fermer xo'jaliklarining huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish, xususan, ularning mulki daxlsizligini kafolatlashga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati borligini ko'rsatmogda.

Asosiy qism

Qishloq xo'jaligi sohasida erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda ularni zarur moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrda PF-205-son "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan bo'lib, ushbu huquqiy hujjat qishloq xo'jalik sohasida klasterlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari asosida takomillashtirish maqsadlarini nazarda tutgan (President of the Republic of Uzbekistan, 2023). Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz milliy huquq doktrinasida fermer xo'jaliklari va klasterlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari va huquqiy tabiati tadqiq etilmagan, shu bilan birga, klasterlar huquqiy maqomiga nisbatan yagona qarashlar va yondashuvlar shakllanmagan. Mamlakatimizning yaqin kelajakda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi sohasini huquqiy tartibga solish mexanizmlarining samaradorligiga bog'liq bo'lib, O'zbekistonning 2025-yil 4-iyulda BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti Kengashining 2028–2029-yillarga mo'ljallangan a'zoligiga saylanganligi mamlakatimiz uchun global qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat siyosatini shakllantirish, shuningdek, ilmiy asoslangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va standartlarni ishlab chiqishda keng imkoniyatlar yaratadi (Gazeta.uz, 2025). Shulardan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi sohasini samarali huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bilan bog'liq muammolar, jumladan, fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish orqali barcha talablarga javob beradigan iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy mexanizmlardan biri

sifatida klasterlik modelining joriy etilishi masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish maqsad qilindi. Xususan, klasterlik modelining mazmun-mohiyati, vujudga kelishi va rivojlanishiga oid xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratilib, bunda Yevropa Ittifoqi qoidalaridan mantiqan kelib chiqib, klaster va fermer xo'jaligi o'rtasida tuziladigan shartnomalar uchun namunaviy shartlarni joriy etish, shuningdek, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar eksportida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni kamaytirishga qaratilgan O'zbekistonda klasterlar kuzatuv tartib-qoidalarini joriy qilishga oid masalalar tahlil qilindi. Fermer xo'jaliklari va klasterlar o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi, ushbu subyektlarning huquqiy maqomi va javobgarligiga oid ilmiy-nazariy qarashlar, xususan, R. Vignola, S. Harvey, M. Porter, Y. Samostrokova, N. Larionova, D. Krupskiy, O. Oqyulov, S. Xolbayev kabi huquqshunos olimlarning asarlari, shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasiga oid Yevropa Ittifoqi va milliy qonunchilik normalaridan foydalanildi, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy-yuridik tahlil, sintez va umumlashtirish metodlari qo'llandi.

O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkasidan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyekti bo'lib, u ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin (Republic of Uzbekistan, 2004). Fermer xo'jaligi ajratilgan yer uchastkasida o'z ustavida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga va ijaraga olish shartnomasiga muvofiq, o'zining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, ixti-

soslashuvni hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishni mustaqil ravishda amalga oshirish, mahsulotni qayta ishlovchi korxonalarini va o'z mahsulotlari iste'molchilarini mustaqil ravishda tanlash, xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlarini tuzish, yetishtirgan mahsulotini, shu jumladan, bu mahsulotni iste'molchilarga realizatsiya qilish huquqini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish va yetishtirayotgan mahsulotiga narx belgilash huquqlariga ega. Shu bilan bir qatorda, fermer xo'jaligiga ajratilgan yer uchastkasidan qonunchilikda va ijaraga olish shartnomasida belgilangan shartlar asosida, ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga muvofiq samarali va oqilona foydalanilishini ta'minlash, ekologik talablarga va atrof-muhitni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etish, yer uchastkasining meliorativ holatini yaxshilash, uning unumdorligini saqlab qolish va oshirish tadbir-choralarini ko'rish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan tartibda o'z vaqtida to'lash majburiyatlari yuklatilgan.

Fermer xo'jaligi o'z ustavida va yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga muvofiq, faoliyati yo'nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilmasi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi va u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining har qanday turi bilan, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishga haqli bo'lib, uning xo'jalik faoliyatiga davlat organlari hamda boshqa organlar va tashkilotlar, shuningdek, ularning mansabdor shaxslari aralashuviga yo'l qo'yilmaydi. Davlat organlari va boshqa tashkilotlarning g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining va fuqarolarning g'ayriqonuniy harakatlari natijasida fermer xo'jaligiga yetkazilgan zararlar, shu

jumladan, boy berilgan foyda qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi belgilangan. Shu bilan birga, fermer xo'jaligi o'zining barcha majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulki bilan javob berishi nazarda tutilgan.

Ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklari faoliyati me'yoriy-huquqiy nuqtayi nazardan tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidan iborat. Institutsional nuqtayi nazardan esa, fermer xo'jaliklari ikki va undan ortiq fuqarolar o'rtasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yoki qishloq xo'jaligi xomashyosini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash bo'yicha shartnomaviy munosabatlar bo'lib, bu shuni anglatadiki, fermer xo'jaliklari bir vaqtning o'zida ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymat zanjirining birlamchi bo'g'ini, ham qishloq xo'jalik sohasining mustaqil subyekti hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlari va AQShda "fermerlik" tushunchasi boshqacha institutsional talqinga egaligini ko'rish mumkin. Odatda fermer xo'jaligi faoliyati dehqonchilik yoki chorvachilik bilan bog'liq kichik yoki o'rta oilaviy biznes bo'lib, u bir vaqtning o'zida ushbu oila va u yollagan ishchilar uchun daromad manbai, shuningdek ma'lum bir mahalliy hudud bilan cheklangan va o'z oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash usuli bo'lib xizmat qiladi. R. Vignola, S. Harvey va boshqa tadqiqotchilarning olimlarning ta'kidlashicha, kichik va o'rta fermer xo'jaliklari jahon fermer bozorining qariyb 85 foizini tashkil etadi va rivojlanayotgan mamlakatlarda barcha oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb 80 foizini ishlab chiqaradi (Vignola et al., 2015). Qishloq xo'jaligi sohasida xo'jalik yuritishning yangi shakli sifatida mamlakatimizda XX asr oxirlarida vujudga kelgan fermer xo'jaliklari mustaqil xo'jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik va mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayangan holda, mulk shakllarining teng huquqlilik va sog'lom raqobat asosida

rivojlanishiga asoslanadi. Bu esa fermer xo'jaliklari o'zlari yetishtirgan mahsulotlariga egalik qilishiga, o'ziga tegishli mol-mulk, moliyaviy va moddiy resurslarni mustaqil tasarruf etishiga, ajratilgan yerga to'la egalik hissi bilan mustaqil xo'jalik yuritish bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos tushadi. Shuningdek, bizning fikrimizcha, bugun butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylangan bir paytda qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy ishlab chiqaruvchisi hisoblangan fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash kerakki, fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishga yangicha boshqaruv tamoyillari, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish, tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, investitsiyaviy jozibadorlikni yaxshilash, mahsulot yetishtirishning samarali usullaridan foydalanish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash zanjirini yaratish kabi masalalarni hal etishda ishlab chiqarishning zamonaviy usuli sifatida klaster modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda klaster modeli qator xorijiy davlatlar, xususan, Italiya, Germaniya, Avstriyada uzoq yillardan buyon turli ishlab chiqarish sohalarida qo'llanib, amaliyotda eng samarali usullardan biri sifatida o'zini oqlagan. Zamonaviy tadqiqotchilar ham klasterlarni davlat iqtisodiy siyosati doirasida maqsadli rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydilar (Krupsky, 2016). Shu sababli Yevropa Ittifoqida klasterlik siyosati a'zo davlatlar siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tan olingan va uni rivojlantirish yuzasidan qator strategik dasturlar qabul qilingan. Jumladan, Yevropa Ittifoqi klaster siyosatining dastlabki huquqiy asosi hisoblangan Yevropa mintaqaviy xartiyasi 1965-yilda qabul qilingan. 1968-yilda Mintaqaviy siyosat bo'yicha Yevropa Komissiyasining Direktorati tuzilgan va uning bazasida 90-yillarda Yevropa klaster siyosatining birinchi umumiy nizomi qabul

qilingan bo'lib, unda klaster modeli ishlab chiqarishning qanday usuli yoki xo'jalik yuritishning qanday tashkiliy-huquqiy shakli ekanligi belgilab berilgan (Clusterland, 2019, November).

"Klaster" nazariyasi ko'p qirrali bo'lgani sababli unga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar shakllangan. "Klaster" atamasi ingliz tilida "cluster" so'zidan olingan bo'lib, u "to'planish" yoki "guruh", ya'ni ma'lum xususiyatlarga ega hamda mustaqil birlik sifatida qarash mumkin bo'lgan bir xil tusdagi bir nechta elementlarning yagona maqsad yo'lida birlashuvi, to'planishi hamda guruhi ma'nolarini anglatadi (Wikipedia, n.d.). Amerikalik iqtisodchi olim Maykl Porter klasterni shunday ta'riflaydi: "Klaster – geografik nuqtayi nazardan bir joyda to'plangan o'zaro bog'liq kompaniyalar (ishlab chiqaruvchilar, xomashyo yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar) hamda ularning faoliyatiga aloqador tashkilotlar (ilmiy tadqiqot muassasalari, texnoparklar, tarmoq birlashmalari) guruhi bo'lib, o'zaro chambarchas bog'langan tarmoqlarning yagona texnologik zanjirini tashkil etuvchi integratsion tuzilmalardir, ular bir vaqtning o'zida ham o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishadi, ham ma'lum darajada raqobatchilar sanaladi" (Porter, 2006). N.A. Larionovaga ko'ra, tizimli yondashuv nuqtayi nazardan klaster muayyan maqsad yo'lida birga faoliyat olib boradigan, elementlari o'zaro bog'liqlik va o'zaro tobelikdan iborat yagona tashkiliy tuzilmaga birlashgan, o'zaro bog'liq bo'lgan turli tarmoqlar xo'jalik faoliyati subyektlarining uyushmasidir (Larionova, 2007). O. Oqyulov va S. Xolbayevlar: "Klasterlarning maqsad faoliyati muayyan mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq bir necha bosqichdan iborat murakkab jarayonlarni o'z ichiga olar ekan, ushbu bosqichlardagi faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlari (ishtirokchilar) va boshqa tegishli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirib borish uchun, fikrimizcha, klasterlarning tashkiliy-huquqiy

shakli aksariyat hollarda birlashma, ya'ni mustaqil huquq subyektlari hisoblangan ishtirokchilarning uyushmasidan iborat yuridik shaxs maqomiga ega tashkilot bo'lishi kerak" (Oqyulov & Xolbayev, 2022), – deb tushuntirishadi. Klaster modeliga zamonaviy yondashuv sifatida fikr bildirgan Y. Samostrovkova: "Korxonalar va tadbirkorlarning o'z mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish va mintaqaning iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun ilmiy muassasalar va mahalliy hokimiyat organlari bilan tarmoqlararo hududiy birlashmasi "orqada qolayotgan" tarmoqlarni rag'batlantirish yo'li orqali maqsadli shakllantiriladi va bunda davlat "tashabbus ko'rsatuvchi" rolni bajaradi", – deya ta'kidlaydi (Samostrovkova, 2012).

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash kerakki, klaster faoliyati ishtirokchilarini muayyan maqsadlar sari bitta klasterga uyushtirish uchun ular faoliyatining o'zaro bog'liqligi yetarli bo'lmaydi, ya'ni ular mahsulot ishlab chiqarish, sotish, xizmat ko'rsatish, xomashyo yetkazib berish kabi masalalar yuzasidan biri-biriga tobe bo'lsada, asosan ularda o'zaro birlashishga intilish kuchli bo'lishi, ya'ni tenglik, erkinlik va ixtiyoriylik tamoyillari asosida huquqiy asoslar yaratilgan bo'lishi lozim. Ya'ni tadqiqotchi S.B. Xolbayev to'g'ri ta'kidlaganidek, klasterlarni rivojlantirish uchun qonuniy bazani mustahkamlash zarur (Xolbayev, 2020).

Yuqoridagilarga asoslanib, "klaster" deganda mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllariga asoslangan va urug'ni yerga qadashdan boshlab undan yuqori va qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarish usuli sifatida tayyor mahsulotlarni ichki bozorga va eksportga yo'naltirishgacha bo'lgan ishlarni birlashtiruvchi tizim tushuniladi. Hozirda ushbu tizim dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishga xizmat qilmoqda. Bu shuni ko'rsatadiki, kooperatsiya va klaster tizimi asosida mahsulot yetishtirish, uni qayta ishlash, saqlash va ichki hamda tashqi

bozorlarga sotish tizimi ko'pchilik mamlakatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shunday ekan, mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan klaster tizimini yaratish qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Biroq hozirgi kunga qadar klasterlarning huquqiy maqomi belgilanmagan, ularning davlat organlari, fermer xo'jaliklari va boshqa subyektlar bilan o'zaro munosabatlari yetarli darajada huquqiy tartibga solinmagan, shuningdek, klasterlar faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan yagona yondashuvlar shakllanmagan. Albatta, bu kabi muammolar mamlakatimizda bozor munosabatlarini jadal rivojlantirish va halol raqobat uchun shartsharoitlar yaratishga to'sqinlik qilgani holda, klasterlar tizimida faoliyat ko'rsatuvchi subyektlar, xususan, fermer xo'jaliklarining huquq va qonuniy manfaatlari buzilishiga va buning oqibatida ularga moddiy-ma'naviy zarar yetkazilishiga olib keladi.

Xulosa

Qishloq xo'jaligi sohasida mustaqil subyekt sifatida klasterlar faoliyat ko'rsatishiga qaramasdan, ularning faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tartib-taomillari mavjud emasligi, huquqiy maqomi belgilanmaganligi, xususan, klasterlar va fermer xo'jaliklari o'rtasida yuzaga keladigan mulkiy munosabatlarni amalga oshirishda fuqarolik huquqining yuridik tenglik, mulk daxlsizligi, shartnoma erkinligi va huquqni suiiste'mol qilishni taqiqlash kabi tamoyillari qo'pol ravishda buzilayotganiga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, klaster bir necha mustaqil yuridik shaxslar o'rtasida erkinlik va tenglik asosida tuziladigan, bir-biri bilan ishlab chiqarish zanjiri orqali o'zaro bog'langan va bir-birini bosqichma-bosqich to'ldirib boradigan, shuningdek, muayyan soha yoki yo'nalishda birgalikda faoliyat yurituvchi yuridik shaxslarning ixtiyoriy birlashmasi deb belgilanishi;

ikkinchidan, "Klasterlar va klaster faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi va ushbu

qonunda klaster tushunchasi, klasterlar faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tartib-taomillari, uning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, mol-mulki, javobgarligi, klaster boshqaruvi organlari va ularni tashkil etish tartibi, klaster ta'rischilari tarkibiga qabul qilish va undan chiqarish, shuningdek, klaster faoliyatini qayta tashkil etish va tugatishga oid huquqiy normalar belgilanishi;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining "Yuridik shaxslar" deb nomlangan 4-bobiga tijoratchi tashkilotning alohida tashkiliy-huquqiy shakli sifatida "klaster"ga oid huquqiy norma kiritilishi;

to'rtinchidan, klasterlar va fermer xo'jaliklari faoliyati ustidan davlat nazorati "minimal aralashuv – maksimal qo'llab-quvvatlash" tamoyili asosida amalga oshirilishi va "davlatning haddan tashqari aralashuvi" cheklanishi;

beshinchidan, fermer xo'jaliklari va davlat o'rtasida tuzilgan yerdan foydalanishga oid ijara shartnomalarining muddatidan oldin bekor qilinishi taqiqlanishi;

oltinchidan, klasterlar va fermer xo'jaliklarining shartnomaviy-huquqiy bazasi, shuningdek, moliyaviy xatarlarni sug'urtalash mexanizmlari takomillashtirilishi lozim.

REFERENCES

1. Bayer. (n.d.). *Pozabotimsya o budushchem sel'skogo khozyaystva* [Let us take care of the future of agriculture]. <https://www.bayer.ru/ru/sustainability/nutrition>
2. Clusterland. (2019, November 13). *Klasternaya politika Evropy: Vchera i segodnya* [Cluster policy of Europe: Yesterday and today]. <https://clusterland.by/2019/11/13/klasternaya-politica-evropy>
3. Food and Agriculture Organization of the United Nations [FAO]. (2019). *Global forum of the UN decade of family farming 2019–2028 begins*. <https://www.fao.org/newsroom/detail/global-forum-of-the-un-decade-of-family-farming-2019-2028-begins/ru>
4. Gazeta.uz. (2025, July 8). *O'zbekiston BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) Kengashiga saylandi* [Uzbekistan elected to the Council of the UN Food and Agriculture Organization (FAO)]. <https://www.gazeta.uz/uz/2025/07/08/fao/>
5. Jumayev, N. X. (2023). *Oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish sifati* [Food security and quality of nutrition]. <https://parliament.gov.uz/oz/articles/1681>
6. Krupsky, D. M. (2016). *Klastery, klasternoe razvitie, klasternaya politika v Respublike Belarus: Evolyutsiya vzglyadov, realnaya praktika, tendentsii i perspektivy* [Clusters, cluster development and cluster policy in the Republic of Belarus: Evolution of views, real practice, trends and prospects]. *Ekonomika i banki [Economy and banks]*, 2, 87–96.
7. Larionova, N. A. (2007). *Klasternyy podkhod v upravlenii konkurentosposobnostyu regiona* [Cluster approach in managing regional competitiveness]. *Ekonomicheskiy vestnik RGU [Economic Bulletin of RSU]*, 1, 182.
8. Oqyulov, O., & Xolbayev, S. B. (2022). *Xo'jalik subyektlarining yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida klasterlar: voqelik va istiqbollari* [Clusters as a new organizational and legal form of economic entities: Reality and prospects]. Tashkent: TSUL Publ.
9. Republic of Uzbekistan. (2004). *Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonun* [Law of the Republic of Uzbekistan "On farming enterprises"]. <https://lex.uz/acts/275195>
10. President of the Republic of Uzbekistan. (2023, December 12). *Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida* (PF-205-son

Farmoni) [On additional measures to further develop free market relations in agriculture (Presidential Decree No. PF-205)]. <https://lex.uz/uz/docs/6692968>

11. Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan. (2023). *O'zbekiston qishloq xo'jaligining yillik hisoboti: Erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar* [Annual report of agriculture of Uzbekistan: Achieved results, analyses and trends]. <https://www.agro.uz/wp-content/uploads/2024/03/agriculture-annual-report-2023>

12. Porter, M. E. (2006). *Konkurentsia* [Competition]. Moscow: Williams.

13. Samostrokova, E. S. (2012). *Klassifikatsiya klasterov predpriyatii* [Classification of enterprise clusters]. *Molodoy uchenyy* [Young Scientist], 1, 141.

14. Vignola, R., Harvey, C. A., Bautista-Solis, P., Avelino, J., Rapidel, B., Donatti, C., & Martinez, R. (2015). Ecosystem-based adaptation for smallholder farmers: Definitions, opportunities and constraints. *Agriculture, Ecosystems & Environment*, 211, 126–132.

15. Wikipedia. (n.d.). *Klaster* [Cluster]. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Кластер>

16. Xolbayev, S. B. (2020). *Klasterlik faoliyatiga oid milliy qonunchilikning ahamiyati va uni rivojlantirish zaruriyati* [The importance of national legislation on cluster activity and the need for its development]. Tashkent: TSUL Publ.

Kelib tushgan / Получено / Received: 13.01.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 12.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.02.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.1./NUPB6687>

UDC: 347.9:342.7(045)(575.1)

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ И СУДЕБНОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВ ГРАЖДАН

Базарбаева Шахло Рахимовна,
студентка 2-го курса факультета
международного права и сравнительного правоведения
Ташкентского государственного
юридического университета
ORCID: 0009-0006-2271-2262
e-mail: shakhlobazarbaeva070601@gmail.com

Собитова Умидахон Мурод кизи,
самостоятельный соискатель,
преподаватель сектора «Суд, правоохранные
органы и адвокатура»
Ташкентского государственного
юридического университета
ORCID: 0000-0003-1257-0599
e-mail: sobitova.umidakhon@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются значение и особенности взаимодействия судебных и правоохранных органов Республики Узбекистан в процессе обеспечения верховенства закона и защиты прав и свобод граждан. Основное внимание уделяется анализу структуры, функций и взаимосвязи указанных органов, а также их роли в формировании правового государства. В исследовании отражены ключевые направления, закреплённые в Указах Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» и «О Стратегии “Узбекистан – 2030”», в которых особый акцент сделан на реформировании судебной системы и укреплении принципа справедливости. Отмечается необходимость согласованных и скоординированных действий судов, органов прокуратуры и иных институтов, обеспечивающих защиту прав человека. Подчёркивается, что эффективное взаимодействие указанных органов выступает важнейшим условием формирования демократического общества, основанного на доверии граждан к праву и государственным институтам.

Ключевые слова: верховенство закона, судебная система, правоохранные органы, взаимодействие, правовое государство, независимость суда, реформы, цифровизация, защита прав граждан

FUQAROLAR HUQUQLARINI TA'MINLASHDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR VA SUD TIZIMINING O'ZARO HAMKORLIGI

Bazarbaeva Shaxlo Raximovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti
2-bosqich talabasi

Sobitova Umidaxon Murod qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va
advokatura sho'basini o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish jarayonida O'zbekiston Respublikasi sud hamda huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu organlarning tuzilmasi, funksiyalari va o'zaro aloqasi hamda ularning huquqiy davlatni barpo etishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi va "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlarida belgilangan asosiy yo'nalishlar aks ettirilgan bo'lib, ularda sud-huquq tizimini isloh qilish va adolat prinsipini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada sudlar, prokuratura va inson huquqlari himoyasini ta'minlovchi boshqa institutlarning kelishilgan va muvofiqlashtirilgan harakatlari zarurligi ta'kidlangan. Ushbu organlarning samarali hamkorligi fuqarolarning huquqqa va davlat institutlariga bo'lgan ishonchiga asoslangan demokratik jamiyatni shakllantirishning muhim sharti ekanligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: qonun ustuvorligi, sud tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, o'zaro hamkorlik, huquqiy davlat, sud mustaqilligi, islohotlar, raqamlashtirish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish

INTERACTION BETWEEN LAW ENFORCEMENT AGENCIES AND THE JUDICIAL SYSTEM IN ENSURING THE RIGHTS OF CITIZENS

Bazarbaeva Shakhlo Rakhimovna,
2nd-year student at the Faculty of International Law and
Comparative Legislation,
Tashkent State University of Law

Sobitova Umidaxon Murod kizi,
Lecturer of the Department of Court,
Law Enforcement Agencies and Advocacy,
Tashkent State University of Law,
Independent Researcher

Abstract. The article examines the significance and specifics of the interaction between the judicial and law enforcement agencies of the Republic of Uzbekistan in ensuring the rule of law and protecting the rights and freedoms of citizens. The main focus is on analyzing the structure, functions, and interrelationships of these bodies, as well as their role in the formation of a legal state. The study reflects the key directions enshrined in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan "On the New Uzbekistan Development Strategy for 2022-2026" and "On the "Uzbekistan-2030" Strategy," in which special emphasis is placed on reforming the judicial-legal system and strengthening the principle

of justice. The need for coordinated actions of courts, prosecutor's offices, and other institutions ensuring the protection of human rights is noted. It is emphasized that the effective interaction of these bodies serves as the most important condition for the formation of a democratic society based on citizens' trust in law and state institutions.

Keywords: rule of law, judicial system, law enforcement agencies, interaction, legal state, judicial independence, reforms, digitalization, protection of citizens' rights

Введение

В современном мире, где все сферы жизнедеятельности людей развиваются наряду с совершенствованием технологий, правовые нормы и их реализация в реальной жизни также приобретают новые формы, на которые невозможно не обращать внимания. Как справедливо отмечал всемирно известный выдающийся учёный Альберт Эйнштейн: «Пока существует несправедливость, человечество не может считать себя цивилизованным» (Einstein, 1954). Это подчёркивает особую и важную роль, которую играет справедливо действующая правовая система и право в целом для надлежащего и стабильного развития общества, государства, а также граждан.

Продолжая рассуждения о развитии и справедливости, можно сказать, что главная задача любого государства – обеспечить охрану прав и интересов граждан, служить народу, определить и задать верное направление на пути к построению сильного правового демократического государства с устойчивой и эффективной правовой системой во всех сферах. Следует отметить особую и актуальную в настоящее время роль правоохранительных и судебных органов в обеспечении прав и свобод, установленных Основным законом – Конституцией Республики Узбекистан, а также многочисленными другими нормативно-правовыми актами, прав, свобод и законных интересов всего населения и каждого человека.

Важна не только эффективность выполнения ими своих функций, но и их

взаимодействие, скоординированная совместная работа в различных ситуациях. Так, если обратиться к Указу Президента Республики Узбекистан «О Стратегии “Узбекистан – 2030”», можно увидеть, что в данном нормативно-правовом акте закреплены ключевые цели и задачи, реализация которых является приоритетной для всех государственных органов и организаций. Среди этих задач особое место отводится реформам по обеспечению верховенства закона и развитию судебно-правовой системы, повышению уровня правосудия путём координации и совершенствования судебной власти, а также направлению и координации деятельности правоохранительных органов на защиту интересов, чести, достоинства и прав человека. Кроме того, Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» своей 17-й целью определил формирование нового имиджа правоохранительных органов и ориентацию их деятельности на эффективную защиту интересов, чести и достоинства, прав и свобод народа.

Эти задачи уже свидетельствуют о том, что эффективность защиты прав и свобод, интересов, чести и достоинства человека напрямую зависит от интеграции и надлежащего функционирования ключевых правоохранительных и судебных органов. В этой связи важно понять, что они собой представляют, каким образом взаимодействуют, какие пробелы и проблемы существуют в их деятельности, а также какие возможные решения могут быть предложены.

На это обращает внимание и Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев, который в своём выступлении 7 января 2017 года, посвящённом Дню работников органов прокуратуры, особо подчеркнул важную роль органов прокуратуры в обеспечении законности и справедливости (Mirziyoyev, 2017). Он отметил: «Народ может терпеть любые трудности, но не может терпеть несправедливость», обращая внимание на высокую ответственность органов прокуратуры перед обществом. Также было подчеркнуто значение взаимодействия органов прокуратуры с другими институтами власти – судами, органами внутренних дел и обществом – как органа надзора за исполнением законов в целях эффективной реализации принципа верховенства закона.

Основная часть

Если обратиться к самому понятию правоохранительных органов, то под ними понимаются специальные государственные органы, созданные в целях обеспечения законности и правопорядка, охраны права и действующие на основании и в соответствии с Конституцией и другими законами (Volkova, 2017). Как указывается в большинстве учебников и научных источников, система правоохранительных органов включает следующие органы: суд, прокуратуру, органы внутренних дел, органы государственной безопасности, таможенные органы, органы предварительного расследования, органы юстиции.

Каждый из перечисленных органов занимает своё место в системе и выполняет собственные функции, одинаково значимые для укрепления правовых гарантий граждан.

Говоря об Узбекистане, следует отметить, что правоохранительная система в целом схожа с перечисленными выше характеристиками, однако из данной си-

стемы исключены суды – как независимая ветвь государственной власти. Если перечислить органы, осуществляющие правоохранительную деятельность в нашей стране, то к ним относятся: Министерство юстиции и его территориальные органы, органы прокуратуры, Министерство внутренних дел, Служба государственной безопасности, Налоговый комитет; Таможенный комитет; Национальная гвардия; Бюро принудительного исполнения при Генеральной прокуратуре Республики Узбекистан; следственные органы и специализированные департаменты.

В законодательстве Республики Узбекистан действуют законы «О прокуратуре», «Об органах внутренних дел», «О службе государственной безопасности Республики Узбекистан», «О Национальной гвардии», которые чётко определяют функции указанных органов, обеспечивая их надлежащее взаимодействие и предотвращая дублирование полномочий в различных сферах деятельности. Функции и цели правоохранительных органов вытекают уже из самого наименования: термин «правоохранительная» означает восстановление, защиту и охрану прав. Введение данного понятия предполагает любой вид и форму защиты, предусмотренные законодательством, с учётом функций каждого из правоохранительных органов. Вместе с тем принципиально важно, чтобы каждый орган надлежащим образом взаимодействовал с другими, обеспечивая нормальное функционирование личности, общества и государства, а также защиту иных охраняемых законом объектов.

Особого внимания заслуживает роль прокуратуры среди всех правоохранительных органов, поскольку в Узбекистане именно она осуществляет надзор за точным и единообразным исполнением законов на территории Республики Узбекистан. Закрепление данного положения

в Основном законе – Конституции Республики Узбекистан, в статье 143, а также выделение отдельной главы Конституции (глава XXV) наглядно демонстрируют место прокуратуры и значение её эффективного функционирования в обеспечении действия законов.

ahamiyatga ega. Yuqorida ta'kidlanganidek, qonun ustuvorligi, fuqarolik huquqlari, saylov raqobati va shaffoflikka e'tibor qaratadigan demokratiyalar korrupsiyaga qarshi kurashishda samaraliroq ekanligi isbotlangan. Gonkongning ICAC orqali erishgan tajribasi korrupsiyaga va uning xavflariga qarshi samarali yondashuv, ya'ni oldini olish, ta'lim, qat'iy tergov va qat'iy ijro etish orqali kurashish bo'yicha samarali tajribalar va yondashuvlarni taqdim etadi. Natijada korrupsiyaga qarshi kurashish jamoatchilik munosabatlarini o'zgartirish va siyosiy tizimning yaxlitligini himoya qiluvchi mustahkam institutlarni yaratishni talab qiladi. ICAC kabi muvaffaqiyatli modellar ko'rsatganidek, tizimli islohotlar va shaffoflikni himoya qilishga sodiqlik korrupsiyani va uning boshqaruvga zararli ta'sirini kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, korrupsiya faqat past foyda va yuqori xavf deb qaralmay, balki jamiyatning ijtimoiy to'qimasiga zarar yetkazuvchi va davlatning adolatli, inklyuziv rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammo sifatida tan olinishi lozim. Shunga ko'ra, milliy qonunchiligimiz hamda amaliyotda kuzatilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida huquqiy savodxonlikni oshirish, korrupsion huquqbuzarliklar haqida xabar berayotgan fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi huquqlarini himoya qilish bo'yicha ICAC'ning ta'lim va oldini olish tamoyillarini implementatsiya qilish taklif etiladi.

REFERENCES

1. Ahmadjonov, M. (2024). Korrupsiyaga qarshi kurashish va muvofiqlik nazorati: yuristlar va huquq fakulteti talabalari orasida huquqiy savodxonlik [Anti-corruption and compliance control: Legal awareness among lawyers and law students]. *International Journal of Law and Policy*, (8), 52–67. <https://doi.org/10.59022/ijlp.145>
2. Alkhodary, A., & Saidat, Z. (2023). The impact of e-government on corporate performance: A case study of Jordanian companies. *Information Sciences Letters*, (26), 52–63. <https://doi.org/10.30525/2256-0742/2021-7-5-235-242>

3. AllahRakha, N. (2023). Sun'iy intellekt (AI)ning biznesga ta'siri va uning regulyatorlik muammolari [The impact of artificial intelligence on business and its regulatory challenges]. *International Journal of Law and Policy*, (1), 25–48. <https://doi.org/10.59022/ijlp.23>
4. AllahRakha, N. (2024). Global perspectives on cybercrime legislation. *Journal of Infrastructure, Policy and Development*, (8), 106–131. <https://doi.org/10.24294/jipd.v8i10.6007>
5. Aritonang, D. M. (2019). The impact of e-government systems on public service quality in Indonesia. *European Scientific Journal*, (13), 23–36. <https://doi.org/10.19044/esj.2017.v13n35p99>
6. Bakhramova, M. (2022). Onlayn arbitraj uchun huquqiy asoslarni uyg'unlashtirish [Harmonization of legal frameworks for online arbitration]. *International Journal of Law and Policy*, (13), 22–35. <https://doi.org/10.59022/ijlp.154>
7. Cardellini, L. (2023). Sovereignty beyond borders: Uncovering the interaction between airspace and outer space. *International Journal of Law and Policy*, (9), 28–45. <https://doi.org/10.59022/ijlp.201>
8. Carter, L., & Bélanger, F. (2020). The utilization of e-government services: Citizen trust, innovation, and acceptance factors. *Information Systems Journal*, (15), 48–71. <https://doi.org/10.1111/j.1365-2575.2005.00183.x>
9. Carter, L., & Yoon, E. (2023). Analyzing e-government design research artifacts: A systematic literature review. *International Journal of Information Management*, 64, 102430. <https://doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2021.102430>
10. Fazekas, M., & King, L. P. (2019). Risks of development funds: EU funds and grand corruption in Central and Eastern Europe. *Regulation & Governance*, (17), 52–73. <https://doi.org/10.1111/rego.12184>
11. Gonçalves de Godoi, C. E. (2020). The importance of transparency in combating corruption in public procurement in Brazil. *Mexican Bulletin of Comparative Law*, (13), 11–22. <https://doi.org/10.22201/ijj.24484873e.201912>
12. Heydari, M., & Saeidi, K. (2022). Corruption and infrastructure development based on stochastic analysis. *Archives for Technical Sciences*, (22), 37–51. <https://doi.org/10.59456/afts.2022.1528.011>
13. Hoa, N. T., & Thanh, N. N. (2023). Factors affecting corruption in the public sector: The case of Vietnam. *Journal of Liberty and International Affairs*, (19), 33–47. <https://doi.org/10.47305/JLIA2392063>
14. Marcelline, S. (2023). Examining the impact of e-government on corporate social responsibility: Mediation through mandatory CSR policy, corruption, and ICT development during COVID. *Frontiers in Psychology*, 12, 737100. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2021.737100>
15. OECD. (2022). *Collusion and corruption in public procurement*. <https://www.oecd.org/daf/competition/46235884>
16. Parliamentary Assembly of the Council of Europe. (2023). *Prevention of corruption act in Slovenia and Hong Kong*. <https://pace.coe.int/files/11673/html>
17. Parliamentary Assembly of the Council of Europe. (2024). *Promoting integrity in the fight against political corruption*. <https://assembly.coe.int/nw/xml/XRef/Xref-XML2HTML-EN.asp?fileid=23930>
18. Schachter, H. L. (2022). *E-participation opportunities and the ambiguous role of corruption: A city governance model in relation to socio-political factors*. *Public Administration Review*, (79), 10–28. <https://doi.org/10.1111/puar.13049>

Kelib tushgan / Получено / Received: 20.01.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 10.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.02.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.1./FRKP8882>

UDC: 347.1+342.7:004.9(045)(575.1)

RAQAMLI MUHITDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH SOHASIDAGI QONUNCHILIK: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY ISTIQBOLLAR

Mo'minov Asilbek Husniddin o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari
sho'basi o'qituvchisi
ORCID: 0009-0007-7417-2998
e-mail: asilbekmuminov86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishni asosiy inson huquqi sifatida ta'minlash borasida turli xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va Markaziy Osiyo davlatlarining milliy qonunchilik tizimlarida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, ma'lumot subyekti huquqlari hamda raqamli muhitda inson huquqlarini ta'minlashga oid yondashuvlar taqqoslangan. Maqolada turli huquqiy oilalarga mansub davlatlarning raqamli huquqlarni tartibga solish modellari hamda institutsional tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Muallif xalqaro inson huquqlari standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning eng samarali usullarini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil metodologiyasidan foydalangan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida raqamli muhitda inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, raqamli transformatsiya, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, ma'lumot subyekti huquqlari

ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО В СФЕРЕ ЗАЩИТЫ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

Муминов Асилбек Хусниддин угли,
преподаватель сектора «Международное право и права человека»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье проведён сравнительно-правовой анализ зарубежного опыта обеспечения защиты персональных данных как одного из основных прав человека в условиях цифровой трансформации. В рамках исследования сопоставляются подходы к обеспечению права на неприкосновенность частной жизни, прав субъектов данных, а также к защите прав человека в цифровой среде, закреплённые в национальных правовых системах

Европейского союза, Соединённых Штатов Америки, государств Азиатско-Тихоокеанского региона и Центральной Азии. В статье раскрываются особенности моделей правового регулирования цифровых прав и институциональных механизмов их обеспечения в государствах, относящихся к различным правовым семьям. С целью определения наиболее эффективных способов имплементации международных стандартов в области прав человека в национальное законодательство автор использует методологию сравнительного анализа. Результаты исследования направлены на выработку практических рекомендаций по совершенствованию системы защиты прав человека в цифровой среде в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: права человека, право на неприкосновенность частной жизни, цифровая трансформация, защита персональных данных, права субъекта данных

LEGISLATION IN THE FIELD OF PERSONAL DATA PROTECTION IN THE DIGITAL ENVIRONMENT: FOREIGN EXPERIENCE AND NATIONAL PERSPECTIVES

Muminov Asilbek Husniddin ugli,
Lecturer of the Department of
International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides a comparative legal analysis of the experience of various foreign countries in ensuring the protection of personal data as a fundamental human right in the context of digital transformation. The study compares the approaches to ensuring the right to privacy, the rights of the data subject, and human rights in the digital environment in the national legislative systems of the European Union, the United States of America, the Asia-Pacific region, and Central Asia. The article reveals the specific features of the models of regulation of digital rights and institutional systems of states belonging to different legal families. The author used the methodology of comparative analysis to determine the most effective ways of implementing international human rights standards into national legislation. The research results will serve to develop practical recommendations for improving the system of human rights protection in the digital environment of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: human rights, the right to privacy, digital transformation, protection of personal data, rights of the data subject

Kirish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borishi XXI asrda inson huquqlari konsepsiyasiga tubdan yangicha yondashuv talab etmoqda. Zamonaviy axborot jamiyatida an'anaviy shaxsiy huquq va erkinliklar yangi raqamli sharoitlarga moslashishi hamda kengayishi zarur bo'lib qoldi. Jahon Iqtisodiy Forumi ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda 5,4 milliarddan ortiq internet foydalanuvchilari mavjud bo'lib, bu dunyo aholisining 67 foizini tashkil etadi (World Economic

Forum, 2023). Ushbu raqamlar shaxsiy ma'lumotlarni raqamli makonda himoya qilish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Raqamli transformatsiya shaxsiy hayotga daxlsizlik, fikr va so'z erkinligi, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi, axborot olish huquqi kabi asosiy inson huquqlari uchun ham yangi imkoniyatlar, ham yangi tahdidlar yaratmoqda (Solove, 2023). Sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanishi, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, yuz tanish tizimlari, biometrik identifikatsiya va boshqa raqamli vositalar shaxsiy huquqlar sohasida murakkab huquqiy muammolarni

keltirib chiqarmoqda. Shu bois turli davlatlarning ushbu muammolarni hal qilish tajribasini o'rganish hamda qiyosiy tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu masala alohida dolzarblik kasb etadi, chunki mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini (2020) amalga oshirish jarayonida fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tizimini takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lsa-da, uning amaliyotda qo'llanishi va xalqaro standartlarga to'liq muvofiqligini ta'minlash bo'yicha bir qator muammolar mavjud. Mamlakat Yevropa Ittifoqi, AQSh, Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligini kengaytirmoqda va bu ma'lumotlarni xalqaro darajada almashish, investitsiyalarni jalb qilish hamda raqamli xizmatlar ko'rsatish uchun mos tartibga solish muhitini yaratishni talab qiladi. Shuningdek, O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi, Yevropa Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilayotgan sharoitda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish zaruriyati mavjud. Shu bois rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning shaxsiy huquqlarni raqamli makonda himoya qilish bo'yicha ilg'or tajribasini o'rganish hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish nazariy va amaliy jihatdan muhim vazifadir.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, turli davlatlar raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda o'ziga xos yondashuvlar ishlab chiqmoqda. Yevropa Ittifoqi 2016-yilda Ma'lumotlarni himoya qilishning umumiy reglamentini (General Data Protection Regulation) (Regulation (EU), 2016) qabul qilish orqali shaxsiy ma'lumotlarni himoya

qilishning eng qat'iy standartlarini o'rnatgan va bu global miqyosda namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari esa sektorli tartibga solish modelini qo'llab, turli sohalar uchun maxsus qonunlar asosida moslashuvchan tizim yaratgan. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar, xususan, Janubiy Koreya va Yaponiya raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi innovatsion modellar joriy qilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida esa Qozog'iston va Qirg'iziston kabi davlatlar o'z qonunchilik bazalarini yaratish va takomillashtirish jarayonida bo'lib, xalqaro tajribadan saboq olishga intilmoqda. Ushbu xilmaxillik har bir davlatning o'z konstitutsiyaviy an'analari, iqtisodiy sharoitlari va strategik yo'nalishlari asosida optimal model tanlash zarurligini ko'rsatadi.

Asosiy qism

Ushbu tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning xorijiy tajribasini o'rganish uchun keng ko'lamlı materiallar bazasi qo'llangan. Tadqiqot materiallari sifatida Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Qozog'iston va Qirg'iziston respublikalarining milliy qonunchilik hujjatlari, xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy metod orqali turli davlatlarning raqamli huquqlarni tartibga solish tizimlari taqqoslangan, ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Ushbu metod yordamida Yevropa, Amerika va Osiyo modellarining kuchli va zaif tomonlari, ularning samaradorligi hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholangan. Shuningdek, tizimli-strukturaviy metod orqali shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarining tarkibiy elementlari, ularning o'zaro bog'liqligi va butun tizim doirasidagi o'rni tadqiq qilingan. Bu metodologiya yordamida qonunchilik bazasi, institutsional tuzil-

ma, nazorat mexanizmlari va javobgarlik choralari o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilingan.

Yevropa Ittifoqi raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasida eng rivojlangan va to'liq huquqiy bazaga ega. Yevropa yondashuvi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni asosiy inson huquqi sifatida tan olish va keng qamrovli tartibga solish tizimini yaratish tamoyiliga asoslanadi (Bradford, 2020). Yevropa Ittifoqining Asosiy huquqlar xartiyasi 8-moddasida (European Union, 2000) shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish alohida inson huquqi sifatida mustahkamlangan bo'lib, bu xalqaro amaliyotda muhim yutuq hisoblanadi.

Ma'lumotlarni himoya qilishning umumiy reglamenti 2016-yildan boshlab Yevropa hududida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning asosiy qonuni bo'lib xizmat qilmoqda. GDPR shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning oltita asosiy tamoyilini belgilaydi: qonuniylik, adolatlilik va shaffoflik, maqsadni cheklash, ma'lumotlarni minimallashtirish, aniqlik, saqlash muddatini cheklash, yaxlitlik hamda maxfiylik (Kuner et. al., 2020). GDPR individual huquqlarni keng miqyosda ta'minlaydi, jumladan, ma'lumotlarga kirish huquqi, tuzatish huquqi, o'chirish huquqi va portativlik huquqi kabi yangi avlod huquqlarini joriy qilgan.

Yevropa modelining o'ziga xos xususiyati qat'iy javobgarlik mexanizmlari o'rnatilganligidadir. GDPR qoidalarini buzganlik uchun jarimalar yillik global daromadning 4 foizigacha yoki 20 million yevrogacha bo'lishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda Yevropa ma'lumotlarni himoya qilish organlari 1,6 milliard yevrodan ortiq jarimalar qo'llagan, bu esa qonunning real ta'sir kuchini ko'rsatadi (European Data Protection Board, 2024). Institutsional jihatdan har bir a'zo davlatda mustaqil nazorat organi faoliyat yuritadi va Yevropa ma'lumotlarni himoya qilish Kengashi umumiy koordinatsiyani ta'minlaydi.

2022-yilda qabul qilingan "Raqamli xizmatlar to'g'risida"gi (Digital Services Act) (European Parliament & Council of the European Union, 2022a) va "Raqamli bozorlar to'g'risida"gi qonunlar (Digital Markets Act) (European Parliament & Council of the European Union, 2022b) Yevropa raqamli huquqlar tizimini yanada mustahkamlagan (Regulation EU 2022/2065). "Raqamli xizmatlar to'g'risida"gi qonun onlayn platformalar uchun javobgarlik doirasini kengaytirdi va foydalanuvchilarga kuchli himoya mexanizmlari taqdim etdi. Ushbu qonun foydalanuvchilarga o'z shaxsiy ma'lumotlarini to'liq nazorat qilish, algoritmik qarorlar to'g'risida tushuntirish olish va kontentni moderatsiya qilish qarorlariga e'tiroz bildirish huquqlarini beradi.

Yevropa tajribasining yana bir muhim jihati ma'lumotlarni xalqaro darajada uzatishni tartibga solishdir. GDPR uchinchi davlatlarga ma'lumotlarni uzatish uchun qat'iy shartlar qo'yadi va "himoyaning yetarliligini tan olish qarorlari" (adequacy decisions) mexanizmini joriy qilgan (Kuner et. al., 2020).

Amerika Qo'shma Shtatlari raqamli huquqlarni tartibga solishda Yevropadan tubdan farq qiluvchi yondashuv qo'llaydi. Amerika modelining asosiy xususiyati federal darajada umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qonuni mavjud emasligi va sektorli tartibga solish tizimiga tayanishdir. Ushbu yondashuv AQSh konstitutsiyaviy an'alariga, xususan, Birinchi tuzatish (First Amendment to the United States Constitution) tomonidan kafolatlangan so'z erkinligiga katta ahamiyat berishga bog'liq (Solove, 2023).

"Tibbiy sug'urta portativligi va javobgarligi to'g'risida"gi (Health Insurance Portability and Accountability Act, 1996) qonun (Health Insurance Portability and Accountability Act) tibbiy ma'lumotlarni, "Bolalarning onlayn maxfiyligini himoya qilish to'g'risida"gi qonun (Children's

Online Privacy Protection Act, 1998) (Children's Online Privacy Protection Act) 13 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli ma'lumotlarni, Gramm-Lich-Bliley qonuni (Gramm-Leach-Bliley Act, 1999) moliyaviy ma'lumotlarni himoya qiladi. Har bir qonun o'z sohasida maxsus standartlar va tartib-qoidalarni belgilaydi. HIPAA tibbiy ma'lumotlarni himoya qilishda keng qamrovli talablar o'rnatgan bo'lib, tibbiy muassasalar va sug'urta kompaniyalari uchun texnik va tashkiliy xavfsizlik choralari majburiydir (U.S. Department of Health and Human Services, 2023).

Shtat darajasida raqamli huquqlarni tartibga solishda muhim o'zgarishlar mavjud. Kaliforniya iste'molchilarining maxfiylik qonuni (California Consumer Privacy Act, 2018) 2018-yilda qabul qilinib, AQShda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning birinchi keng qamrovli shtat qonuni bo'ldi. CCPA kaliforniyalik iste'molchilarga o'z ma'lumotlari to'g'risida bilish, o'chirish, sotilishiga qarshi chiqish va kamsitilmaslik huquqlarini beradi. 2023-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Kaliforniya maxfiylik huquqi qonuni (California Privacy Rights Act, 2018) esa ushbu himoya mexanizmlarini yanada kengaytirdi. AQShda hozirgi vaqtda Virjiniya, Kolorado, Konnektikut, Yuta va boshqa shtatlarda o'z ma'lumotlarini himoya qilish qonunlari qabul qilingan. Bugungi kunda federal darajada umumiy qonun qabul qilish bo'yicha takliflar muhokama qilinmoqda, ammo turli manfaatdor tomonlar o'rtasida konsensusga erishilmagan.

Shuningdek, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar raqamli huquqlarni tartibga solishda o'ziga xos, ko'pincha Yevropa va Amerika yondashuvlarini uyg'unlashtiruvchi modellar ishlab chiqqan (Greenleaf, 2014). Ushbu mintaqa davlatlari uchun xarakterli jihati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni topishga intilishdir.

Janubiy Koreya tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonun (Republic of Korea, 2023) (Personal Information Protection Act) 2011-yilda qabul qilinib, 2020-yilda GDPR talablariga yaqinlashtirish maqsadida keng ko'lamda o'zgartirilgan (Personal Information Protection Act, 2020). PIPA shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun rozilik talab qiladi, ma'lumot subyektlariga keng huquqlar beradi va Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish komissiyasi (Personal Information Protection Commission) mustaqil nazorat organini belgilaydi.

Janubiy Koreya tajribasining o'ziga xos jihati texnologik yechimlardan keng foydalanishdir. Mamlakatda blokcheyn texnologiyasiga asoslangan raqamli identifikatsiyani boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt yordamida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish vositalari hamda kiberxavfsizlik mexanizmlari faol qo'llanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Janubiy Koreyadagi kompaniyalarning 75.5 foizi ma'lumot himoyasini muhim masala sifatida baholaydi (Korea Internet & Security Agency, 2024).

Yaponiya shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda individual huquqlar va global ma'lumotlar oqimi erkinligi o'rtasidagi muvozanatga asoslangan gibridd yondashuv qo'llaydi. Yaponiyada asosiy hujjat sifatida "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonun (Act on the Protection of Personal Information, 2003) 2003-yilda qabul qilingan hamda 2017-, 2020- va 2022-yillarda tubdan o'zgartirilgan (Act on the Protection of Personal Information, 2022). APPI individual huquqlarni kengaytirdi, jumladan, ma'lumotlarni o'chirish va foydalanishni to'xtatish huquqlarini joriy qildi. Yaponiya yondashuvi shaxsiy ma'lumotlar himoyasini xalqaro iqtisodiy hamkorlik va ma'lumotlar erkin oqimi huquqi bilan chambarchas bog'laydi, ya'ni 2019-yilda Yevropa Komissiyasi tomonidan "yetarlilik" (adequacy) qaroriga ega birinchi

Osiyo mamlakati maqomini qo'lga kiritish orqali Yaponiya fuqarolarining ma'lumotlari Yevropa standartlari bilan tenglashtirildi va Yevropa-Osiyo o'rtasidagi ma'lumotlar erkin oqimi ta'minlandi. Yaponiya modeli shaxsning ma'lumot subyekti sifatidagi huquqlari va global raqamli iqtisodiyotda faol ishtirok etish huquqi o'rtasidagi muvozanatni muvaffaqiyatli o'rnatadi, fuqarolar ham individual himoyaga, ham xalqaro darajadagi raqamli xizmatlarga ega bo'ladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo davlatlari raqamli transformatsiya jarayonida bo'lib, ular shaxsiy huquqlarni himoya qilish tizimlarini faol ravishda ishlab chiqmoqda. Qozog'iston Respublikasi mintaqada ushbu sohada yetakchi o'rinni egallaydi.

Qozog'iston Respublikasi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda milliy ma'lumot suverenitetini ta'minlash va davlat nazorati ustunligiga asoslangan yondashuvni qo'llaydi. Mamlakatda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun 2013-yilda qabul qilingan va 2021-yilda keng ko'lamli o'zgartirishlar kiritilgan. Qonun shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining huquqlari, operatorlarning majburiyatlari va javobgarlik choralari belgilaydi. Qozog'iston qonunchiligining o'ziga xos jihati ma'lumotlar lokalizatsiyasi talabini o'rnatishdir. Qozog'iston modeli shaxsiy ma'lumotlar himoyasini milliy xavfsizlik va davlat nazorati huquqlari bilan chambarchas bog'laydi.

Qozog'iston qonunchiligida davlatning kuchli nazorat funksiyasi nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari majburiy ravishda milliy hududda joylashgan serverlarda saqlanishi, xorijiy platformalar va IT kompaniyalar mahalliy ma'lumotlar markazlariga ega bo'lishi lozim. Davlat organlarida tergov va nazorat vakolatlari bo'lishi belgilangan. Bu yondashuv, bir tomondan, milliy xavfsizlik va fuqarolar ma'lumotlarining chet el razvedkalari tomonidan to'planishidan

himoyalash huquqini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, ma'lumotlarning erkin oqimi, global aloqa erkinligi va xalqaro hamkorlik huquqlarini sezilarli darajada cheklaydi. Qozog'iston modeli shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan davlatning keng nazorat vakolatlari o'rtasidagi muvozanatni, asosan, ikkinchisi foydasiga belgilaydi. Mazkur holat milliy ma'lumotlar suverenitetini mustahkamlashga xizmat qilsa-da, fuqarolarning global raqamli eko-tizimdan foydalanish, xalqaro standartlarga mos xizmatlardan bahramand bo'lish hamda shaxsiy ma'lumotlarini davlatning nomutanosib aralashuvidan himoyalash huquqlarini zaiflashtiradi.

Bundan tashqari, Qozog'iston tajribasining yana bir muhim jihati raqamli hukumat tizimini rivojlantirishdir. *Egov.kz* portali orqali ko'plab davlat xizmatlari elektron shaklda taqdim etiladi va fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari markazlashtirilgan tizimda saqlanadi. Qozog'iston Respublikasi Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish vazirligi ma'lumotlarini himoya qilish sohasida nazorat funksiyalarini amalga oshiradi.

Qirg'iziston Respublikasi ham raqamli huquqlarni tartibga solish yo'lida muhim qadamlar qo'ymoqda. Mamlakatda raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda iqtisodiy erkinliklar va texnologik taraqqiyot huquqini ustuvor qo'yuvchi liberal yondashuv qo'llanadi. 2008-yilda qabul qilingan "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun 2022-yilda zamonaviy talablarga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan. Qirg'iziston yondashuvi nisbatan liberal bo'lib, biznes uchun yengilroq talablar o'rnatadi. Qirg'iziston modeli shaxsiy ma'lumotlar himoyasini tadbirkorlik faoliyati erkinligi va iqtisodiy huquqlar bilan muvozanatlashtirishga qaratilgan.

Yevropa Ittifoqining GDPR modelida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi (ECHR 8-modda) va ma'lumotlar himoyasi huquqi (EU Charter 8-modda) ustuvorlik qilsa,

Qirg'iziston yondashuvida iqtisodiy faoliyat erkinligi va raqamli rivojlanish huquqi katta ahamiyat kasb etadi. Bu model shaxsning ma'lumot subyekti sifatidagi huquqlarini nisbatan cheklaydi: rozilik olish tartibi yengilroq (presumptiv rozilik mexanizmi), ma'lumotlarni o'chirish va ko'chirish huquqlari murakkab protseduralar talab qiladi, nazorat organlari repressiv emas, maslahatchi funksiyani bajaradi. Qirg'iziston yondashuvi jamiyatning raqamli rivojlanish huquqi va individual shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi o'rtasidagi ziddiyatni birinchi foydasiga hal qiladi. Bu esa, bir tomondan, innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirsa-da, ikkinchi tomondan, fuqarolarning ma'lumotlarini suiiste'mol qilishga qarshi himoyalanish huquqini zaiflashtiradi va xalqaro inson huquqlari standartlari bilan to'liq uyg'unlik ta'minlanmaydi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan davlatlar tajribasini taqqoslash asosida uchta asosiy tartibga solish modelini ajratish mumkin. Yevropa modeli maksimal himoya va keng qamrovli tartibga solishga yo'naltirilgan, bu yerda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish asosiy inson huquqi sifatida qaraladi. Amerika modeli moslashuvchanlik va sektorli yondashuvni ta'kidlaydi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga ustuvorlik beradi. Osiyo modeli esa muvozanatli yondashuvni ifodalaydi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan shaxsiy huquqlarni himoya qilishni uyg'unlashtiradi.

Har bir model o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega. Yevropa modelining afzalliklari yuqori himoya darajasi, aniq va to'liq qoidalar, kuchli nazorat mexanizmlari va individual huquqlarning keng doirasidir. Biroq bu model biznes uchun yuqori xarajatlar talab qiladi, murakkab tartib-qoidalar qo'llanadi va innovatsiyalarni sekinlashtirishi mumkin.

Amerika modelining ustunliklari moslashuvchanlik, innovatsiyalarga qo'llab-quvvatlash va biznes ehtiyojlarini hisobga olishdir.

Sektorli yondashuv har bir soha xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi. Ammo bu modelning kamchiliklari bo'lib, iste'molchilar uchun noaniqlik, turli shtatlarda har xil himoya darajalari va umumiy standartlarning yo'qligi hisoblanadi.

Osiyo modeli tahlil natijalari bo'yicha amaliy jihatdan eng muvozanatli hisoblanadi, chunki u rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun mos. Bu model biznes rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan holda, individual huquqlarni himoya qiladi, texnologik yechimlarni faol qo'llaydi va mintaqaviy hamkorlikni ta'kidlaydi. Biroq ba'zi Osiyo davlatlarida nazorat organlari zaif, qonunchilik to'liq ishlab chiqilmagan va ma'lumotlar lokalizatsiyasi kabi cheklovchi talablar mavjud.

Xalqaro huquqiy jihatdan shaxsiy ma'lumotlarni raqamli makonda himoya qilish global miqyosda umumiy standartlarni shakllantirish zaruriyatini ko'rsatmoqda. BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy Komissarining 2018-yildagi hisobotida (United Nations High Commissioner for Human Rights, 2018) raqamli asrda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining muhimligi alohida ta'kidlangan va davlatlardan fuqarolarning raqamli huquqlarini ta'minlash bo'yicha samarali choralar ko'rish talab qilingan. Yevropa Kengashining Shaxsiy ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlashda shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi (Council of Europe, 2018) (Convention 108+) shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning xalqaro standartlarini belgilab berdi va bu hujjat Yevropa chegaralaridan tashqarida ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu xalqaro hujjatlar shaxsiy hayot daxlsizligi, fikr erkinligi, axborot olish huquqi kabi klassik shaxsiy huquqlarning raqamli makonda yangi shakllarda namoyon bo'lishini tan oladi va davlatlardan ularni samarali himoya qilishni talab qiladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishning universal tamoyillari mavjud, bular barcha davlatlar tajribasida umumiy hisoblanadi.

Birinchi tamoyil – shaxsiy hayot daxlsizligi bo‘lib, bu Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 17-moddasi bilan kafolatlangan (Muminov, 2025). Raqamli sharoitda bu huquq shaxsiy ma‘lumotlarni noqonuniy yig‘ish, saqlanishi va tarqatilishidan himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi tamoyil – axborot olish va fikr erkinligi huquqi bo‘lib, raqamli makonda bu huquq senzurasiz axborot olish, o‘z fikrini erkin ifodalash va onlayn kommunikatsiya qilish erkinligini nazarda tutadi. Uchinchi tamoyil – shaffoflik va axborotga kirish huquqi bo‘lib, fuqarolar o‘z shaxsiy ma‘lumotlari qanday yig‘ilayotgani, qayta ishlanayotgani va qanday maqsadlarda foydalanilayotgani haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lish huquqiga ega. To‘rtinchi tamoyil – shaxsiy ma‘lumotlar ustidan nazorat huquqi bo‘lib, bu shaxsga o‘z ma‘lumotlarini boshqarish, tuzatish, o‘chirish va ularning noto‘g‘ri foydalanishiga qarshi chiqish imkoniyatini beradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy huquq va erkinliklarning yangi avlodi shakllanmoqda. Ular klassik huquqlarning kengayishi va yangi shaklda ifodalanishidir. Ma‘lumotlarni ko‘chirish huquqi (data portability) fuqarolarga o‘z raqamli identifikatorlarini bir platformadan ikkinchisiga erkin ko‘chirib o‘tish imkoniyatini beradi va bu raqamli jamiyatda harakatlanish erkinligining yangi shakli hisoblanadi. Unutilish huquqi (right to be forgotten) shaxsiy hayot daxlsizligining raqamli shakllanishi bo‘lib, shaxsga o‘tmishdagi ma‘lumotlarini o‘chirishni talab qilish huquqini beradi. Algoritmik qarorlarga qarshi chiqish huquqi inson qadr-qiyamatini himoya qilish va sun‘iy intellekt tizimlarining noto‘g‘ri qarorlariga qarshi himoya mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Profillashtirish va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilishdan himoyalani shu huquqi shaxslarni kamsituvchi yoki noto‘g‘ri algoritmik qarorlardan himoya qiladi. Ushbu yangi huquqlar klassik shaxsiy

huquq va erkinliklarning raqamli davrdagi davomi bo‘lib, ularni samarali ta‘minlash xalqaro hamkorlik va umumiy standartlarni joriy etishni talab qiladi.

Xulosa

Raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, xorijiy davlatlar tajribasi turli yondashuvlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Qirg‘iziston Respublikasi iqtisodiy liberalizm va texnologik rivojlanishni rag‘batlantirishga asoslangan yondashuvni qo‘llab, minimal davlat aralashuvi va biznes-do‘stona tartibga solishni ustuvor qo‘ygan. Bu model raqamli iqtisodiyot va startap ekotizimining tez rivojlanishini ta‘minlasa-da, fuqarolarning shaxsiy ma‘lumotlari himoyasining zaif kafolatlari muammosini keltirib chiqarmoqda.

Qozog‘iston Respublikasi esa milliy ma‘lumot suverenitetini ta‘minlash va davlat nazorati ustunligiga asoslangan imperativ lokalizatsiya modelini tanlagan bo‘lib, bu yondashuv milliy xavfsizlikni mustahkamlasa-da, fuqarolarning global raqamli ekotizimdan foydalanish va ma‘lumotlarni erkin ko‘chirish huquqlarini sezilarli cheklaydi.

Yaponiya individual huquqlar va global ma‘lumotlar oqimi erkinligi o‘rtasidagi muvozanatga asoslangan gibridd yondashuvni amalga oshirib, 2019-yilda Yevropa Komissiyasidan “yetarlilik” qarorini olgan birinchi Osiyo mamlakati bo‘ldi. Mazkur model shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi va xalqaro iqtisodiy hamkorlik huquqining uyg‘unligini ta‘minlaydi. Amerika Qo‘shma Shtatlari esa federalizm va bozor o‘z-o‘zini tartibga solishi ustunligiga asoslangan fragmentlashgan modelni qo‘llab, turli shtatlarda turfa standartlarni joriy etgan. Bu esa so‘z va axborot erkinligi huquqini shaxsiy hayot daxlsizligi huquqidan ustun qo‘yishga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi uchun eng maqbul yondashuv Yaponiya tajribasiga

asoslangan gibrid modelni qabul qilish hamda unga Yevropa standartlarining muhim elementlarini bosqichma-bosqich va maqsadga muvofiq integratsiya etishdan iborat. Bunday model O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichi, mavjud iqtisodiy imkoniyatlari hamda xalqaro hamkorlik ustuvor yo'nalishlari bilan uyg'un hisoblanadi.

Qozog'iston tajribasidan kelib chiqib, ma'lumotlar lokalizatsiyasi tamoyilini to'liq emas, balki faqat kritik ahamiyatga ega bo'lgan davlat va maxfiy ma'lumotlarga nisbatan qisman qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan bir qatorda xalqaro AT kompaniyalar uchun qulay investitsiya muhitini saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Yaponiya tajribasining asosiy elementi bo'lgan individual huquqlar va global hamkorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, konsensus va ijtimoiy javobgarlik madaniyatiga tayangan o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlarini joriy etish hamda Yevropa Ittifoqi bilan "yetarlilik" qaroriga erishish strategiyasi O'zbekiston uchun eng maqbul va qimmatli model sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday gibrid model O'zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichi, iqtisodiy imkoniyatlari va xalqaro hamkorlik yo'nalishlari bilan mos keladi. Bahodir Ismailovning ta'kidlashicha, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish jarayoni bir martalik hodisa emas, balki doimiy va izchil jarayondir. U mamlakat rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak (Ismailov, 2019).

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ustuvor choralar amalga oshirilishi zarur.

Birinchi, Yaponiya va Yevropa tajribasiga asoslanib, shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunni GDPR asosiy tamoyillariga (qonuniylik, maqsadni cheklash, ma'lumotlarni minimallashtirish, shaffoflik) yaqinlashtirish lozim.

Ikkinchi, Yaponiyaning "yetarlilik" maqomiga erishish tajribasidan foydalanib, mustaqil va professional nazorat organi – Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish agentligi yoki komissiyasini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu organ Qozog'iston modelidagi kabi faqat repressiv emas, balki Qirg'iziston va Yaponiya tajribasidagi kabi maslahatchi va ta'lim funksiyalarini ham bajarishi kerak. Bundan tashqari, Yaponiya mintaqaviy hamkorlik tajribasiga asoslanib, Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda mintaqaviy standartlar ishlab chiqish va Yevropa Ittifoqi bilan "yetarlilik" to'g'risidagi muzokaralar olib borish ham samarali usullardan biri hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimi statik emas, balki dinamik bo'lib, texnologik taraqqiyotga doimiy ravishda moslashib borishi zarur. O'zbekiston xorijiy davlatlar tajribasidan oqilona foydalanib, Qirg'iziston modelining iqtisodiy innovatsiyalarni rag'batlantirish salohiyati, Qozog'istonning milliy xavfsizlikka yo'naltirilgan yondashuvi hamda Yaponiyaning muvozanatli va xalqaro integratsiyaga ochiq tajribasini uyg'unlashtirish orqali o'z milliy xususiyatlariga mos, samarali himoya modelini yaratishi mumkin.

REFERENCES

1. Act on the Protection of Personal Information. (2003). Act No. 57 of 2003, as amended by Act No. 37 of 2021. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4241/en>
2. Bradford, A. (2020). *The Brussels effect: How the European Union rules the world*. Oxford University Press.

3. California Consumer Privacy Act of 2018, Cal. Civ. Code §§ 1798.100–1798.199.
4. Charter of Fundamental Rights of the European Union. (2000, December 18). https://www.europarl.europa.eu/charter/pdf/text_en.pdf
5. Children’s Online Privacy Protection Act of 1998, Pub. L. No. 105-277, div. C, title XIII, 112 Stat. 2681 (1998), codified at 15 U.S.C. §§ 6501–6505. <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/15/chapter-91>
6. Council of Europe. (2018). *Convention for the protection of individuals with regard to automatic processing of personal data (Convention 108+)*.
7. European Data Protection Board. (2024). *Annual report 2023*. https://www.edpb.europa.eu/system/files/2024-04/edpb_annual_report_2023_en.pdf
8. European Parliament & Council of the European Union. (2016). *Regulation (EU) 2016/679 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data (General Data Protection Regulation)*.
9. European Parliament & Council of the European Union. (2022a). *Regulation (EU) 2022/2065 on a single market for digital services and amending Directive 2000/31/EC (Digital Services Act)*. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2022/2065/oj/eng>
10. European Parliament & Council of the European Union. (2022b). *Regulation (EU) 2022/1925 on contestable and fair markets in the digital sector (Digital Markets Act)*. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2022/1925/oj/eng>
11. Greenleaf, G. (2014). *Asian data privacy laws: Trade and human rights perspectives*. Oxford University Press.
12. Gramm–Leach–Bliley Act, Pub. L. No. 106-102, 113 Stat. 1338 (1999). <https://www.govinfo.gov/content/pkg/PLAW-106publ102/html/PLAW-106publ102.htm>
13. Health Insurance Portability and Accountability Act of 1996, Pub. L. No. 104-191, 110 Stat. 1936 (1996). <https://www.congress.gov/bill/104th-congress/house-bill/3103>
14. Ismailov, B. I. (2019). *International standards in the field of personal rights and freedoms and the national legislation of the Republic of Uzbekistan* (Doctoral dissertation abstract, specialty 12.00.10 – International law). Tashkent.
15. Korea Internet & Security Agency (KISIA). (2024). *2023 information security status survey*. IITP/KISIA. https://kisia.or.kr/research/infosec_survey/
16. Kuner, C., Bygrave, L. A., & Docksey, C. (Eds.). (2020). *The EU General Data Protection Regulation (GDPR): A commentary*. Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/oso/9780198826491.001.0001>
17. Republic of Kazakhstan. (2013, May 21). Law No. 94-V of 21 May 2013 “On Personal Data and Their Protection”, as amended by Law No. 96-VII of 30 December 2021. <https://adilet.zan.kz/eng/docs/Z1300000094>
18. Kyrgyz Republic. (2008, April 14). Law No. 58 of 14 April 2008 “On Personal Data”, as amended (latest amendments: 12 July 2022). <https://dpa.gov.kg/en/npa/4>
19. Muminov, A. (2025). International legal regulation of the right to internet access: A new generation of human rights. *TSUL Legal Report*, 6(4). <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.lr.6.4/LGWC1735>
20. Republic of South Korea. (2011). Personal Information Protection Act (Act No. 10465).
21. Personal Information Protection Commission of Korea – PIPC. (2023). *Annual report on personal information protection*.
22. President of the Republic of Uzbekistan. (2020, October 5). *Decree No. PF-6079 on approval of the “Digital Uzbekistan — 2030” strategy and measures for its effective implementation*. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
23. Republic of Uzbekistan. (2019, July 2). *Law No. O’RQ-547 on personal data*. <https://lex.uz/docs/-4396419>

24. Solove, D. J. (2023). The limitations of privacy rights. *Notre Dame Law Review*, 98(3), 975–1020.

25. U.S. Department of Health and Human Services, Office for Civil Rights. (2023). *HIPAA security rule: Summary*. U.S. Department of Health and Human Services. <https://www.hhs.gov/hipaa/for-professionals/security/index.html>

26. United Nations (2018). United Nations High Commissioner for Human Rights. *The right to privacy in the digital age* (A/HRC/39/29).

27. World Economic Forum. (2023, September). *Internet access is not a luxury, but a basic necessity*. <https://www.weforum.org/stories/2023/09/broadband-no-luxury-basic-necessity/>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 1-SON

VOLUME 6 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.6.1.